

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
Muqimiy nomidagi Qo'qon Davlat pedagogika instituti.

**MILLIY ISTIQLOL G'OYASI, HUQUQ VA MA'NAVIYAT ASOSLARI
KAFEDRASI.**

“MAFKURA VA GEOSIYOSAT”

fanidan

MA'RUZALAR MATNI.

Qo'qon – 2010 yil

Ushbu ma'ruzalar matni "Mafkura va geosiyosat" fani bo'yicha o'tiladigan ma'ruzalarda foydalanish uchun mo'ljallangan yordamchi qo'llanma sifatida tayyorlandi. Unda milliy davlatchiligimiz taraqqiyoti muammolari va uning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari, milliy g'oya va mafkuraning nazariy va amaliy masalalari, jamiyatning demokratlashuvi – ichki va tashqi tahdidlarni bartaraf etishning ma'rifiy yo'li kabi masalalar o'z aksini topgan. Ma'ruzalar matni shu soha bo'yicha shug'ullanayotgan mutaxassislar, o'qituvchilar va talabalar uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi:

Falsafa fanlari nomzodi,
dotsent v.b. M.M.Aminova.
O'qituvchi, D.O'rinboyev

Taqrizchi:

F.f.n.prof. O'. Toshtemirov

Ushbu ishchi dastur kafedraning 2010 yil 26 avgustdagi № 1-sonli majlisida tasdiqlangan.

"Milliy istiqlol g'oyasi, huquq va ma'naviyat asoslari" kafedراسi mudiri:
M. Aminova

Yuqoridagi ma'ruzalar matni Qo'qon Davlat pedagogika institutining ilmiy kengashining 2010 yil 28 avgust № 1-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan.

I-mavzu: Maʼfuraviy jarayon: mohiyati va namoyon boʻlish shakllari

Reja:

1. “Maʼfuraviy jarayon” tushunchasi. Maʼfuraviy jarayonda gʻoyaviy qarashlar tizimining shakllanish.
2. Maʼfuraviy jarayon mohiyatining ijtimoiy-tarixiy belgilanganligi va oʻzgaruvchan xarakteri.
3. «Maʼfuraviy kurash» tushunchasi. Maʼfuraviy kurash maʼfuraviy jarayonning muhim sifatli belgisi sifatida.
4. Mustaqillik sharoitida Oʻzbekistonda maʼfuraviy jarayon shakllanishi va rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari.

Har bir xalq oʻzining yuksak taraqqiyotiga erishish uchun mustaqil boʻlishi hamda milliy davlatchilikning haqiqiy demokratik jarayonlarini amalga oshirishi zarur. Bu jarayonlarni istiqlol yillari amalga oshirib, umumeʼtirof etilgan demokratik normalar va milliy manfaatlarimizga mos keluvchi huquqiy-demokratik milliy davlat qurishga kirishdik. Shuni aytish kerakki, davlatning demokratik tamoyili universal holat boʻlib, Amerikada, Rossiyada qanday boʻlsa bizda ham shunday boʻlishi kerak, deb anglashimiz notoʻgʻri. Yaʼni uni vujudga keltiradigan, shakllantiradigan ijtimoiy, iqtisodiy, maʼnaviy-siyosiy, tarixiy, geografik, geostrategik sharoitlar turli xalqlar va davlatlarda har xil darajada rivojlangan boʻladi. Demak, rivojlanish jarayonlari millat ruhiyatidan kelib chiqadi. Mamlakatning, aholining rivojlanish darajasi asosiga qarab milliy davlatning demokratik jarayonlari shakllanib boradi.

Milliy davlatning demokratik prinsiplari Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda. Yurtboshimizning taʼkidlashicha, “istiqlol biz uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochdi. Oʻz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan yaratadigan boʻldik. Hayotimiz va umumiy xonadonimizni milliy manfaat va qadriyatlarimizni, umumeʼtirof etilgan demokratik mezonlarga monand qilib qurishdek noyob tarixiy imkoniyatga ega boʻldik”, degan fikrlari hozirgi davrda demokratik jarayonlar muammolarini belgilaydi.

- a) Siyosiy – ijtimoiy rivojlanishning demokratik obʼyektiv qonunlari bizdagi jarayonlarning oʻziga xos va oʻziga mos xususiyatlari bilan uygʻunlashgan holda sodir boʻlmoqda. Garb mamlakatlarida esa rivojlanishda inqilobiy oʻzgarishlar koʻp uchraydi. Bizning xalqimiz esa mulohazakor, yetti oʻlhab bir kes, qabilida ish tutadi, yaʼni bu xalqimiz mentalitetidan kelib chiqadi.
- b) Oʻz ruhiyati va ijtimoiy ong taraqqiyotiga koʻra xalqimizning yangilikka va maʼrifatga ishtiyoqi baland. Natijada madaniyat rivoji va xoʻjalik yuritishi, ayniqsa savdoning hozirgi jahon andozalari talablari darajasida tiklanishi – Ipak yoʻli gullab-yashnashning oʻzagi boʻldi.
- c) Milliy davlatning demokratik jarayonlari insonga xizmat qilar ekan, bu albatta insonning ehtiyoji, manfaati, qobiliyatidan kelib chiqishi kerak. Yaʼni uzoq yillar

davomida to'plangan tajriba, shuningdek, jahon tajribalari xalqimizning intellekti hisobga olingan holda amalga oshirilmoqda.

d) Mamlakatimizda jamoatchilik fikri jamoaviy nuqtai-nazari asosida rivojlanmoqda. G'arb davlatlaridagi demokratiyadan farqli o'laroq, bizda jamoa o'z-o'zini boshqaradi. Oilada yoki jamoada kim aqlli, tajribali va yoshi ulug' bo'lsa, o'shaning fikri boshqalarga ko'proq ta'sir qiladi. Mahalla va qishloqlarda oqsoqollar bir tomondan, hurmatli kishilar bo'lib, biror to'xtamga kelishda ularning fikri bilan hisoblashiladi. Ikkinchi tomondan esa shunga mos ravishda hukumat vakillariga ham alohida hurmat bilan qaraladi. Bu qo'rquv yoki qaramlik emas, balki rahbarlarga hamda ulug' kishilarga bo'lgan ishonch va hurmatdir.

Qur'oni Karimda ham rahbarlar fikri farzdir, ya'ni bajarish ijobiy holda zarurligi qayd qilingan. Bu yerda an'anaviylik va zamonaviylikning shunday manbai mavjudki, qaysi davlat va uning rahbari xalqini chin dildan e'zozlasa, taraqqiyotning eng zarur tayanch nuqtasi topilgan bo'ladi. Shu jihatdan oladigan bo'lsak, O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'limotining noyobligini ko'ramiz. Yurtboshimiz mahallalarga davlat tomonidan yordam berish, ularga buyuk davlat qurish yo'lidagi imkoniyatlaridan foydalanishning taktik va strategik yo'llarini belgilab berdi. Bunda davlatning demokratik jarayonlari quyidagicha ta'rif qilinadi:

1. O'zbekiston jamiyatidagi jamoaviy ustuvorlikning tabiati falsafiy-tarixiy chuqur ildizlarga ega va jamoatchilik hayoti tizimida alohida ijtimoiy muvozanat yaratish zarurligiga asoslanadi. Mahalla institutlari saqlanib qolingan hamda jamoaviylik qadriyatlari davom etmoqda. Uning ijtimoiy hayotga ta'siri juda kattadir.

2. Davlatning demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish sharoitida fuqorolarni ayni demokratik jarayonlarning faol ishtirokchisi, uning faol himoyachisi sifatida tayyorlash murakkab hamda muddat talab etadigan hodisa. Chunki, mustamlakachilik davri illatlaridan qutulish "azobi"ni fikrlab yashash, aql-idrok yo'rig'i bilan kun ko'rish "mashaqqati"ni yengish uchun insonga ichki iroda, ma'naviy-huquqiy qudrat kerak. Ana shu Iroda va Qudratni uyg'otish, shakllantirish, unga quvvat baxsh etish bugunning asosiy vazifasidir. O'zbekiston fuqorolik jamiyatini barpo etish yo'lini tanlagan ekan, ya'ni inson ongi va qalbini isloh qilish, uni "yangi"lash, ma'naviy-ruhiy-huquqiy "ta'mirlash" kabi sarmashaqqat vazifani amalga oshirmoqda. Bu esa juda katta siyosiy qudrat, siyosiy madaniyat va siyosiy iroda talab etadigan muddatli jarayondir.

President Islom Karimov ta'kidlab, "aholimizning siyosiy faolligi hali zamon talablari darajasida emasligini, hamon sust ekanligini qayta-qayta aytishga to'g'ri kelmoqda. Tan olishimiz kerak: eski andozalardan to'liq qutula olmayapmiz. Barcha muhim qarorlar yuqoridan qabul qilinib, bizlarni bor-yo'g'i itoatgo'y ijrochilarga, ba'zan o'ylanmay qabul qilingan qarorlar qurboniga aylantirgan ma'muriy-buyruqbozlik, mustabid tuzum illatlaridan judo bo'lishimiz qiyin kechyapti",-degan edi Oliy Majlisning II-chaqiriq XIV sessiyasida. Bu ayni jamiyatni erkinlashtirish va shu asosda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda eng katta g'ov bo'layotgan holatlardan biridir. Shu sababli

ham Yo'lboshchimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishidagi ma'ruzasida jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, chuqur isloh etish muammolari hamda milliy davlat rivojining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

3. Mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari pirovard natijada O'zbekistonda yangi, adolatli fuqorolik jamiyati barpo etishga qaratilgan. Respublikada sobitqadamlik bilan xalqchil, adolatli jamiyatni barpo etish – bosh vazifadir.

4. Demokratiyaning murosachilik va yakdillik madaniyati mamlakat ichki hayotida ham, tashqi siyosatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, odamlar, mamlakat fuqorolari o'rtasidagi munosabatlar qanchalik iliq bo'lsa, umumxalq va umumdavlat manfaatlari yo'lida birlashib, muammolarni hal etishda oqilona faoliyat ko'rsatsa, barcha uchun umumiy bo'lgan vazifalar oldida mas'uliyat chuqur xis qilinsa – bu demokratiyaning mamlakat ichki hayotidagi madaniyatini belgilaydi.

5. Demokratik jamiyatni barpo etishning xalqaro tamoyillari, dunyo hamjamiyati e'tirof etgan yo'riqlari mavjud. Bu bevosita fuqoroning o'z xohish-irodasini erkin ifodalash huquqiga egaligi, o'zchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqorolarning millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi, saylov va saylanish huquqi va boshqalardir. Biroq ma'lum bir mamlakatda demokratiyani joriy etishda faqat shuning o'zi kifoya qiladimi? Yo'q. chunki, har bir xalqning o'z turmush va tafakkur tarsi, tarixiy an'analari, hayotga munosabati va boshqa jihatlaridan kelib chiqib, demokratiyaga yondoshish usuli bor. Shu ma'noda Prezidentimiz : “Sharqda demokratik jarayonlarning qadimdan shakllangan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlari bor. Buni also nazardan qochirib bo'lmaydi. Ya'ni Sharqda demokratik jarayonlar uzviy ravishda va asta-sekin taraqqiy topadi. Bu sohada inqilobiy o'zgarishlat yasashga urinishlar g'oyat noxush, hatto fojeali natijalarga olib keladi. Inqilobni G'arb olimlari ham “ijtimoiy taraqqiyotning ibtidoiy va yovvoyi shakli” deb ataganlar. Tabiiyki, bunday yo'l bizga also to'g'ri kelmaydi”, deganlarida Yurtboshimiz, demokratiyani joriy etishning yurtimizda o'zbekona tamoyillari shakllanayotganligini ko'rsatadilar.

6. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bir qator mamlakatlar, jumladan, Turkiya, Olmoniya, Angliya, Yaponiya, Xitoy, AQSH, Fransiya va boshqa davlatlarning demokratik taraqqiyot yo'llari bilan yaqindan tanishdi. Bu mamlakatlarda demokratiyaning ibratli va o'rganishga arzirli tajribalari mavjud. Biroq, O'zbekiston Prezidenti bu masalaga o'zining munosabatini aniq va ravshan bayon etdi. Har bir millat o'z milliy ruhiyatidan kelib chiqib bu masalaga yondoshishi zarur. Aniq, o'zbeklar singari juda qadimiy millat va juda boy an'analarga esa xalq ehtiyojlarini hisobga olmaslik og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini uqtiradi va “odamlarning tafakkuri va ijtimoiy saviyasi bilan demokratik o'zgarishlar darajasi va suratlari bir-biriga qanchalik mutanosib bo'lishiga bog'liqdir. Aksincha, buday yo'l chalkash va xatarli oqibatlarga olib kelishi mumkin”- deb ta'kidladi.

Milliy davlatimizning demokratik tamoyillarini yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish to'g'risida ko'p gapiramiz. Biroq, amaliyotda ma'naviy-siyosiy va huquqiy jihatdan to'liq darajada tayyor emasligimiz sababli ba'zi bir uzilishlar ro'y barayotganligi sezilib turadi. Aslida, demokratiya bu "ob'yektiv voqelik". U bor yoki yo'q. Bir tizimdan boshqasiga o'tayotganda uni yo'riqnomalar berish uslubi bilan darhol qurib bo'lmaydi. Bu haqda juda ko'p aytilgan va yozilgan. Biroq, barqaror demokratik jamiyatning qaror topishi uchun zarur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning hayotga tadbqiq qilishga qodir kuchli milliy davlat lozimligini tushunib yetdik. Chunki, davlatning, alohida davlatning demokratik jarayonlari haqida gap bormoqda. Albatta, iqtisodiy va siyosiy hayotdagi erkinliklarni bosqichma-bosqich kengaytirib borishni ma'lum darajada demokratiyalashtirish deb tushunish mumkin. Ammo, sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sarqitlarining uzoq davr mobaynida sezilarli darajada ta'sir qilishini ham inkor etib bo'lmaydi. Tabiiyki, jamiyatning demoktariyalashtirish odimlarini sho'ro sarqitlariga qarab o'lchab bo'lmaydi. Har bir narsani o'zining mohiyatidan kelib chiqib, o'z nomi bilan mardonavor aytish ayni Islom Karimovning siyosiy sifatlaridan biridir. Har qanday siyosiy vazifa siyosatchi zimmasiga rejadagilarni amalga oshirish irodasi va layoqatidan iborat bo'lgan javobgarlikni yuklaydi. Rahbar o'zini "demokrat", mamlakatini esa "demokratiya oroli" deb xohlaganicha aytishi mumkin, biroq shu bilan birgalikda uning mamlakatida ochlik, qashshoqlik, tartibsizlik, turli tomonga tashlanishlar hukmron bo'lishi ham hech gap emas?! Bir qator MDH mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bunga yorqin misol bo'la oladi. Va bizning mamlakatimizga kelsak, shuni alohida ta'kidlash kerakki, XXI asrda mamlakatlarning arzon populizmi va demokratiya niqobi ostidagi o'yinlari emas, balki zaruriy g'oyadan voqelikka aylangan haqiqiy demokratik, ochiq adolatli jamiyat tomon qo'ygan shahdam qadamlari bu borada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan O'zbekistonimiz tanlagan yo'l – demokratik tamoyillar mazmunini tashkil etadi.

Mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasiga demokratik jarayonlar ila chiqishi ham muammolar yechimiga ta'sir ko'rsatadi, albatta.

Yevropa Ittifoqi va O'zbekistonning munosabatlariga 1996 yil 21 iyunda Yevropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasida tuzilgan muhim hujjat – sherikchilik va hamkorlik to'g'risidagi Bitim imzolanishi bilan demokratik jarayonlarga dastlabki asos solingan edi. Mazkur bitim doirasida Yevropa komissiyasi O'zbekistonda Yevropa Eyd (Yevropa ko'magi) dasturining bir qator loyihalarini moliyalashtirib kelmoqda. Shunday loyihalardan biri "O'zbekistonda demokratik jarayonlarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash" bo'lib, bir qator amaliy ishlar qilindi. Loyihaning maqsadi O'zbekistonda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari, demokratiyaning umume'tirof etilgan prinsiplari asosida fuqorolik jamiyati asoslarini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat. Loyiha doirasida yevropalik ekspertlar yordamida amaldagi qonun hujjatlarini tahlil qilish, qonun ijodkorligi jarayonini demokratlashtirish, qonun loyihalarini tayyorlashda xorijiy tajribalarni o'rganish, demokratik o'zgarishlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangi huquqiy hujjatlarni

ishlab chiqishda Oliy Majlisning palatalari a'zolariga ko'maklashish borasida keng qamrovli ishlar olib borildi.

Ushbu Yevropa Eyd dasturi loyihasi Oliy Majlisning sud-huquq masalalari va demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqorolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari qo'mitalari, Oliy Majlis huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsmon) hamda bir qator nodavlat, notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirildi. Loyihaning ish boshlashi mamlakatimizda ikki palatali parlament tizimiga o'tishga tayyorgarlik ko'rish davriga to'g'ri kelganligi bois, ikki palatali parlamentning huquqiy asoslarini yaratish, bunda jahon tajribasini o'rganish va tahlil qilish hamda uning maqbul jihatlarini milliy qonunchiligimizga tadbiq etishda muhim omil bo'ldi. Loyiha doirasida yevropalik va milliy ekspertlar tomonidan 30 dan ziyod yo'nalishda ish olib borildi. Bu ishlarning barchasi parlament qo'mitalariga o'z faoliyatida foydalanishi uchun taqdim etildi.

Insoniyat tarixiga nazar solsak, davlatlarning demokratik jarayonlarni amalga oshirishi muhim ahamiyat kasb etgan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili bo'lib xizmat qilgan. Har bir xalq demokratiyani o'z mentaliteti, o'z ko'nikmalari, qadriyatlariga munosib tarzda u yoki bu darajada hayotga joriy qiladi. Umuminsoniy mohiyat va mazmunga ega bo'lgan tamoyillar har bir davlatning taraqqiyot darajasi, boshqaruv tizimi, siyosiy muhiti, xalq ommasining, ijtimoiy ongning faolligi bilan bog'liq holda joriy qilinadi. Xuddi shu va boshqa ijtimoiy rivojlanish suratlarini belgilovchi omillar ta'sirida davlatning demokratik jarayonlarini joriy qilish suratlari jadallashishi yoki sustlashishi mumkin. Demak, demokratiyani yuqoridan majburiy joriy etish mumkin emas. Demokratiya – xalq ijodi, fuqorolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi natijasida qo'lga kiritiladigan boshqaruv tizimi. Demokratiya doimo xalq ommasining faol harakati, o'z huquqlari, ehtiyojlarini qondirish uchun olib borgan mashaqqatli kurashlari, faol mehnati natijasida qo'lga kiritilgan. Har bir davlatda demokratik tamoyillarni hayotga joriy qilish turli yo'llar vositasida amalga oshirilgan. Lekin uning asosiy talabi va omili doimo shaxsning huquq va erkinliklari, shu jumladan, erkin fikrlash va o'z fikr va mulohazalarini erkin bayon qilish huquqini ta'minlashdir.

Har qanday davlatning demokratik jarayonlarni amalga oshirish ma'lum muddat talab qiluvchi holatdir. Avvalam bor demokratiyaning huquqiy asoslari barpo qilinishi shart. Ushbu jarayonlarni sun'iy ravishda jilovlab turish ham yoki suratlarini jadallashtirish ham ijobiy natijalar bermaydi. "Haqiqiy demokratik jamiyat pastdan, ya'ni fuqorolarning o'zlari o'z ehtiyojlari, huquq va erkinliklari uchun kurashish ko'nikmalarini tashkil toptirgan holda, uning faollari birlashgan kasaba uyushmalar, partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari tomonidan qo'yilgan talablar qonun shaklida ifoda qilinishiga erishilgandagina shakllanadi va xalq manfaatlarini ko'zlab faoliyat ko'rsata oladi", deb yozgan falsafa fanlari doktori S.Shermatovanning fikrini qo'llab-quvvatlaymiz.

Hozirgi paytda huquqiy demokratiya yo'lini tanlab, rivojlanayotgan milliy davlatimiz uchun insoniyat tarixining turli davrlarida demokratik davlatlar

shakllanishi va amaliyotini tahlil qilishi, qiyosiy o'rganishi muhim ahamiyatga egadir. Ya'ni dunyo davlatlari demokratiyaga ma'naviy-ma'rifiylashgan jamiyatga xos tamoyillar bilan munosabatda bo'lishlari va baholash madaniyatini egallab olishlari, hatto ba'zi manfaatlardan voz kechishi ham muhim bo'lib qolmoqda. Masalan, hayot kechirish G'arb turmush tarziga mos bo'lsa va uni targ'ib etsa demokratiya, unga to'g'ri kelmasa demokratiya emas, deb qarash bir tomonlama yondoshuv hisoblanib, o'zini qadrlagan, hurmat qilgan xalq uchun xavfli hamda tahdidli bir holatdir. Turli xalqlar, turli madaniyatlar, manfaatlarning yonma-yon yashashi, yashay olishi faqat milliy demokratik sharoitdagina amalga oshadi. Buni biz mamlakatimiz miqyosida ko'rib turibmiz.

Bugungi dunyo erishayotgan yutuqlardan orqada qolmaslik, yangi texnologiyalarni egallab, uni ishlab chiqarishga jalb etish uchun izlanish, yangi yangi ixtirolar qilishga qodir bo'lish, mustaqillikni mustahkamlash va uni rivojlantirish mamlakatimizning muhim yo'nalishlarini tashkil etadi. O'zligini anglagan xalq mustaqillikka, o'z taqdiriga, farzandlarining kelajagiga istiqbol ko'zi bilan qaraydi!? Jahonda o'ziga xos o'ringa ega bo'layotgan O'zbekiston shunday milliy demokratik yo'ldan bormoqda. Bu yo'lda unga milliy g'oya, mafkura va ma'naviy-axloqiy qarashlar asos bo'lmoqda.

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdek ulug' ishni amalga oshirish, avvalo, ma'naviy omil bilan uzviy bog'liqdir. Ma'naviyat – millatning o'tmishi, buguni va kelajagini belgilaydigan asosiy ijtimoiy-ma'rifiy mezon. Shu bois istiqlolning ilk kunlaridanoq xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy-ma'rifiy va ta'lim-tarbiya sohalarini isloh etish, yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, barkamol va ma'rifatli etib tarbiyalash masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmoqda.

Jamiyatni demokratlashtirish va isloh etishda milliy istiqlol g'oyasi bilan bog'liq masalalarga Prezidentimiz tomonidan mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq alohida e'tibor qaratilgan edi. Yurtboshimiz asarlarida milliy istiqlol g'oyasi mamlakat taraqqiyotining g'oyaviy tamoyillari to'g'risidagi yaxlit nazariya sifatida ta'riflab berilgan, uni jamoatchilikning ishonch va e'tiqodiga aylantirish masalalari atroflicha yoritilgan. Shu sababli ham O'zbekiston Prezidentining "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha ta'lim dasturlari yaratish va ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi Farmoyishi (2000 yil 18 yanvar) bu ta'limotni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdirish, odamlarni ezgu g'oyalarga ishontirish orqali oliyjanob maqsadlar sari safarbar etish dunyodagi turli kuchlar o'rtasida axborot kurashlari avjiga chiqayotgan hozirgi globallashuv zamonida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqning ruhiyati, kayfiyati, hissiy kechinmalari va faoliyat ko'rsatishga shayligi uning harakat dasturi bo'lgan umummilliy g'oyaga bo'lgan ishonchi bilan belgilanadi. Ana shunday ishonch jamiyat a'zolarida mustahkam e'tiqodni shakllantirib, ularni yanada jipslashtiradi, mamlakat fuqorolarining o'zaro totuv, do'st va inoq bo'lib yashashiga, o'z manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga chorlaydi.

Milliy istiqlol g'oyasi, avvalo, xalqni, aholining turli qatlamlari, mamlakatimizdagi xilma-xil qarashdagi kishilar, siyosiy partiyalarni yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati yo'lida birlashtiruvchi ta'sirchan ma'naviy omildir. Bu borada Prezidentimizning ma'ruzasida quyidagi fikrlar muhim ahamiyatga ega: "...siyosiy partiyalar xalqni, millatni qadim-qadimdan birlashtirib kelayotgan mushtarak g'oyalar ham borligini doimo esda tutishi zarur. Shu bois ular o'z manfaatlarini himoya qilishda bir-biriga raqib yoki muxolifat bo'lishi mumkin, lekin yagona Vatan, yagona xalq manfaatlari haqida gap ketganda, hammasi musht bo'lib birlashishi darkor. Bugungi kunda bizning yurtimizda milliy istiqlol g'oyasi ana shunday birlashtiruvchi kuch bo'lib hisoblanadi".

Darhaqiqat, milliy istiqlol g'oyasi yurtimizga chetdan tahdid solayotgan, xalqimiz, ayniqsa yoshlar ongini zaharlashga intilayotgan, el-yurtimizni tanlagan yo'lidan qaytarishga intilayotgan g'arazli maqsadlarni ko'zlovchi yovuz kuchlarga qarshi turishda tayanch vazifasini o'tamoqda. Bu g'oya xalqimizni hech kim, hech qachon qaram qila olmasligining noyob timsoliga aylanib, bizga ma'naviy kuch bermoqda, fuqorolarimizni xayrli ishlarga safarbar etmoqda.

G'oyaviy sohada amalga oshirilgan islohotlar qanchalik zarur ekanini bugun jamiyatimiz hayotining o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi. Bu bir tomondan, davlat va jamiyat hayotini mafkuralashtirishdan, yakka mafkuraning ta'siridan saqlaydi. Ikkinchidan, jamiyatda turli xil fikr va qarashlarning rivojlanishiga imkoniyat yaratib beradi. Bugun yurtimizda hech qaysi mafkura davlat mafkurasini sifatida o'rnatilmaganining o'zi jamiyatda erkin tafakkur rivoji uchun shart-sharoit yaratib bermoqda.

Hozirgi paytda bir haqiqat tobora ayon bo'lmoqda, ya'ni bizning hayotimiz, kelajagimizni hech kim chetdan kelib ta'minlab bermaydi. Nimagaki erishsak, o'z kuchimiz, imkoniyatimiz va salohiyatimiz bilan erishmoqdamiz. Bosh islohotchi bo'lib kelayotgan, o'tgan suronli va murakkab yillar davomida bu vazifani ado etib, xalqimizning ishonchini qozongan milliy davlatimiz bundan bo'yon ham mustahkam tayanch va suyanch bo'lib qolaveradi.

Tayanch iboralar:

Huquqiy-demokratik milliy davlat, xalqimiz mentaliteti, xalqimizning intellekti, jamoaviy o'zini-o'zi boshqarish, fuqorolik jamiyati, demokratik jarayonlar.

Nazorat savollari:

1. Milliy davlatning demokratik prinsiplari deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy davlat rivojining ustuvor yo'nalishlarida qanday vazifalar o'z aksini topgan?
3. Milliy davlatchiligimizning demokratik tamoyillarini chuqurlashtirish uchun qanday vazifalarni amalga oshirish zarur?

2-mavzu: Ijtimoiy hayot sohalari va mafkuraviy jarayonlar

Reja:

1. Ijtimoiy munosabatlarning mohiyati.
2. Ma'naviy munosabatlarning mafkuraviy mazmuni.
3. *Ma'rifat va ta'lim-tarbiya.*
4. *Ijtimoiy tahdidlarni anglash zaruriyati.*

Sayyoramiz sivilizatsiyasi taraqqiyotining o'tgan asrlar tajribasi bugungi kunga kelib, shuni yaqqol tasdiqlamoqdaki, xalqlar, millatlarning tarixiy taraqqiyoti hech qachon silliq kechmagan. Zamonning zayli bilan insoniyat tarixida kuchli evrilishlar, vayron qiluvchi ijtimoiy-siyosiy to'fonlar ham, shu bilan bir qatorda, u yoki bu millatning hayotida yangi davrni boshlab berishi mumkin bo'lgan noyob imkoniyatlar ham tug'ilib turgan.

Ana shu holatdan kelib chiqib qaralganda, davrning shafqatsiz to'fonlariga javob bera olmasdan tamomila barbod bo'lgan yoki mavjud imkoniyatlari bo'la turib undan foydalana olmaslik oqibatida, ko'p asrlar qoloqlik komiga tushib qolgan xalqlarni ham yoki aksincha, zamon zayliga hozirjavob bo'lib, undan o'z xavfsizligi va taraqqiyoti uchun imkon qidirib topa olgan, natijada jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotining bayroqdori darajasiga ko'tarilgan xalqlarni ham tarixdan yaxshi bilamiz.

Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'iladi: xo'sh, xalqlar va millatlar nomutasanligi asosida nima yotadi? Nima uchun ayrim xalqlar tarixiy taraqqiyot o'lchamlari bilan hisoblaganimizda, uncha uzoq umr ko'rmay, insoniyat sivilizatsiyasidan o'ziga munosib o'rin topa olmay, butkul tanazzulga yuz tutganlar? Aksincha, ayni bir paytda, boshqa bir xalqlar, o'zining nomini, qadriyatlarini yo'qotmasdan, oldiga qo'ygan buyuk maqsadlaridan adashmasdan umrboqiylikka dahldor bo'lib qolgan. Buning sir-asrori nimada?

Kishilik jamiyati rivojlanishi natijasida to'plangan nihoyatda katta tajribadan kelib chiqib xulosa qilganimizda, insoniyat taraqqiyoti ko'pgina omillarga bog'liq ekanligiga, lekin ularning orasida ma'rifatga intilish omili ustun bo'lib xizmat qilganligiga amin bo'lamiz.

Zamonning shafqatsiz sinovlariga qarshi o'zining yuksak manfaati bilan javob bergan millat hech qachon zavolga yuz tutmagan. Aynan ma'rifat, millatning zamon bilan hamnafas turishini ta'minlagan, millat taqdiri uchun xatarli vaziyatlarda bamisoli jamiyatning qalqoni vazifasini o'tagan.

Germaniya va Yaponiya mamlakatlarining urushdan keyingi bosib o'tgan yo'liga nazar tashlasak, quyidagi bosqichlar ko'z oldimizda paydo bo'ladi: ya'ni, millat sifatida o'zlikni saqlab qolish, taraqqiy qilish hamda jahon hamjamiyatida munosib o'rinni egallash. Bu mamlakatlarning shu tarzda muvaffaqiyatlari sabablarini qanchalik chuqur tahlil qilmaylik, baribir, unda ma'rifatga intilish omilining yetakchi o'rinda turganligini ko'ramiz. Shu jihatdan olib qaralganda, qudratli demokratik davlat sari bugun o'tish davrini o'z boshidan kechirayotgan

bizning mamlakatimiz hayotida ham ma'rifat omili taraqqiyotning bosh ustuni bo'lib xizmat qilishi lozimligini barchamiz chuqur anglashimiz kerak. Yuksak ma'rifatli jamiyatgina yuksak maqsadlarni ko'zlay oladi va unga erishish yo'llarini ham hal qiladi, degan fikrni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tafakkuriga singdirish – davrimizning eng muhim vazifasidir. Zero, Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Ma'rifatparvarlik biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muammoni yechmasak, barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon hayot ham bo'lmaydi".

Ushbu fikrlardan kelib chiqadigan bosh xulosa shundaki, mamlakatimizda ma'rifadni yuksaltirish davrimizning eng mas'uliyatli talabidir. Chunki ma'rifatli jamiyat, nafaqat o'zining taraqqiyot istiqbollarini oldindan ko'ra biladi, balki o'ziga xavf solishi mumkin bo'lgan turli tahdidlarni ham mardonovor bartaraf eta oladi.

Shu jihatdan olib qaralganda, mamlakatimizda ma'rifadni yuksaltirishning asosiy vositasi bo'lgan yangi ta'lim va tarbiya tizimini hayotimizga tadbiq qilish ishlarini sifat jihatidan butunlay yangi darajaga ko'tarish vazifasi ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ma'lumki, bu borada davlatimiz tomonidan katta ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, davlat tomonidan qabul qilingan yangi qonun o'zining tub mohiyatiga ko'ra, eng zamonaviy ta'lim tizimini barpo qilishning mukammal huquqiy asosidir. Bundan tashqari, davlatimiz yangi ta'lim tizimining barcha kerakli moddiy asoslarini ham hal qilib bermoqda.

Ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish ishlariga halaqit berayotgan eng katta qusurlardan biri – bu hali ko'pchiligimizning tafakkurimizdagi eskicha yondoshuvlardir. Masalan, ta'lim va tarbiya ishini faqat maorifchilarning vazifasi deb qarash hollari hali ham ko'p joylarda uchrab turibdi, bu g'oyatda achinarlidir.

Bugungi kunda bunday kayfiyatdan tezlik bilan voz kechish payti allaqachon yetib kelgan. Gap jamiyat, uning kelajagi, xavfsizligi va uning taraqqiyoti haqida ketayotgan bir paytda, millatimiz dushmanlari quturib, jamiyatimiz a'zolarining tafakkurini, ayniqsa yoshlarimiz ongini makkorlik bilan egallashga harakat qilayotgan ayni bir ziddiyatli davrda, ta'lim va tarbiya borasida loqayd bo'lib turish – millatga xoinlik qilish bilan barobar emasmi? Bizga tahdid solayotgan g'animlar keyingi paytlarda afsuski, aynan mana shu ta'lim-tarbiya borasida jamiyatimiz a'zolari tomonidan yo'l qo'yilgan loqaydlik holatidan ustalik bilan foydalanib qolishga harakat qilmoqdalar. Deylik, bola 11 yil davomida maktabda, qolaversa, tug'ilgan oilasi va mahallasida ta'lim-tarbiya olsa-da, qandaydir begona "mulla"ning ikki-uch oycha bergan yashirincha "darsi"ni tinglab, uning mafkurasiga ergashib ketsa? Bu holat barchamizni birday tashvishga solishi kerak emasmi?

Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda, birinchi navbatda, ta'lim va tarbiyani amalga oshirishning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan maktab va oilaning faoliyatiga baho berishda, biz qo'llab kelayotgan mezondagi eskilik sarqitlaridan xalos bo'lishimiz kerak.

Sir emaski, maorif tizimiga baho berishda ko'pchilikning tafakkurida hali ham eskicha mezon, eskicha yondoshuv, ya'ni qaysidir maktabni bitirgan yigit-qizlar orasidan qancha ko'p oliy o'quv yurtiga kirganlar bo'lsa, demak, o'sha maktab, uning o'qituvchilari shuncha yaxshi ishlagan, oilasi yaxshi tarbiya bergan, degan xulosa chiqarish hollari kundalik amaliyotimizda ustunlik qilmoqda. Bunday yondoshuv esa jamiyat hayotini, uning oldida turgan muhim vazifalarini nihoyatda bir tomonlama va chala anglashga olib keladi. Qolaversa, poytaxtimizda 16 fevral voqealarini sodir etishda ishtirok qilgan murtadlarning ko'pchiligi oliy ma'lumotli ekanliklarini ham esdan chiqarmasligimiz kerak.

Ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirishda jamiyatimizda albatta, xalqimiz diniy qadriyatlarining roli ham beqiyos. Shu o'rinda, nazarimizda, muhim bo'lib turgan yana bir jihatga e'tibor qaratmoqchimiz. Yoshlarimiz ongi va tafakkuriga muqaddas Islom dinimizning pokiza g'oyalari to'g'risida, xalqimiz e'tiqod qiladigan Imom A'zam mazhabi qoidalarini to'g'risida haqqoniy bilimlarni shakllantirishda nima uchun mahallalardagi masjidlar, ulardagi imom-xatiblar chetda turibdilar. Nima uchun ular yoshlarni faqat masjidlarda kutib o'tiradilar-da, maktablardan o'zlarini olib qochadilar. To'g'ri, bizda din davlatdan ajratilgan. Bu – dunyoviy davlatning tamoyillaridan biri. Lekin bunday holat din jamiyatidan ham ajratilgan degan ma'noni mutlaqo anglatmaydi-ku. Aksincha, diniy qadriyatlar xalqimiz qadriyatlarining ajralmas bo'lagi ekan, nima uchun dinimiz peshvolari umumjamiyat ishi bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimini amalga oshirilishidan o'zlarini chetga olishlari kerak?

Yoshlarimizga begona “chalamullalar” emas, o'zimizning sof vijdonli, sog'lom fikr yurituvchi imomlarimiz maktablarga qadam ranjida qilib, avvalambor, muborak ona zaminimizda tug'ilib, voyaga yetgan, Islom dunyosida mashxo'r bo'lgan buyuk imomlarimiz Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, allomalarimiz Naqshbandiy, Ahmad Yassaviy, Zamaxshariy, Moturdiy kabilarning ta'limotlari, Muqaddas Qur'oni Karim, muborak hadislar hamda ulardagi insonparvarlik g'oyalari haqida ma'ruzalar o'qib tursalar bo'lmaydimi? Shunday yo'llar bilan ham qancha-qancha yoshlarimizni diniy aqidaparastlar changalidan qutqarib qolish mumkin emasmi?

Bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyotining yangi ufqlari ochilmoqda. Demokratik, adolatli jamiyat qurishdek ulug'vor maqsadlarga erishish yo'lida yanada sobitqadam bo'lishimiz lozim. Ayni paytda bu borada oldimizda to'siq bo'lib turgan ayrim muammo va illatlarni anglab yetish va bartaraf qilish ham dolzarb vazifadir. Ba'zi mansabdor shaxslarning o'z mansabini suiste'mol qilishi, ayniqsa, adolatsizlik va poraxo'rlik ko'rinishlari jamiyatimiz ijtimoiy hayotiga, uning taraqqiyotiga tahdid solmoqda. Bu kabi salbiy holatlarni va ularning sabablarini chuqur anglash, muammoning yechimlarini topish, Prezident Islom Karimov so'zlari bilan aytganda, “...zamonaviy dunyoqarashimiz, ma'naviy tamoyillarimiz, urf-odatlarimiz, ko'nikmalarimiz yangicha negizda shakllanayotgan va shubhasiz, ertangi avlod ta'lim-tarbiyasiga asos bo'ladigan ijtimoiy-axloqiy qarashlarimiz vujudga kelayotgan bugungi hal qiluvchi pallada butun xalqimiz uchun ham nihoyatda muhimdir”. Bu o'rinda, ijtimoiy tahdidlarning nazariy jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ko'pgina demokratik mamlakatlarda olimlar va mutaxassislar insonning ma'naviy dunyosi bilan bog'liq omillarni o'rganishga katta ahamiyat berishmoqda. Jumladan, olam barqarorligi va yaxlitligida iqtisodiy, siyosiy, texnologik, umuman, moddiy omillar bilan birga ijtimoiy jarayonning inson xohish-irodasi, xatti-harakati va ongi, hayotiy faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlanmoqda.

Turli xavfli jarayonlarni bartaraf etishda insonning ishtiroki va o'rni haqida so'z yuritar ekanmiz, ushbu o'rinda, ijtimoiy faol shaxsning faol qiyofasi, mohiyati, ichki dunyosi, qolaversa, moyilliklari to'g'risida turli-tuman fikrlar mavjudligini, albatta, e'tiborga olish zarur. Insonning shakllanishi va ijtimoiy mavjudot sifatidagi ma'naviy rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari, ularning mohiyat va xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Bu haqiqatni hech kim inkor etolmaydi. Lekin mustaqillikka erishilib tafakkur xilma-xilligi tamoyili qaror topgunga qadar bu muammo bir yoqlama talqin qilinib kelingan. Doimiy takrorlanib turuvchi ijtimoiy qonuniyatlar jarayoni bilan inson salohiyati o'rtasidagi o'zaro munosabat haqida noto'g'ri tasavvur hukmron bo'lib, inson bunda ularga ko'r-ko'rona bo'ysunuvchi, allaqanday universitetlar tasarrufidagi ikkinchi darajali omil deb hisoblangan, insonning buyuk kuch-qudrati uning cheksiz imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan ko'plab ilg'or g'oyalardan ongli ravishda uzoqlashtirilgan edi. Ilg'or ma'naviy dunyoqarashga ega kishi esa darhol "idealistlar" safiga kiritilardi.

Inson o'z murakkab muammolari bilan taqdir girdobiga tashlab qo'yildiki, natijada u or-nomus, haq-huquqini himoya qilishni qandaydir "partiya rahnamoligi" yoki "xalqlar otasi" bo'lgan "dohiyalar" nomi bilan bog'lash payiga tushdi. Sho'rolar tuzumida yashagan inson shu qadar ixtiyorsizlikka yuz tutdiki, oqibatda u fashizm, kommunizm va totalitarizm singari vahshiy tartiblarga qarshi ochiqdan-ochiq bosh ko'tarishdan ko'ra, yolg'izlikni, uzlatni, loqaydlikni afzal ko'ra boshladi. Buyuk nemis faylasufi I.Kant "Men tarixni o'qigan va tahlil qilganim sari, uning insonlar nomukammalligining unsiz guvohi ekanini anglab yetdim", deganida, nihoyatda haq edi. Bu ulkan muammo bugun ham o'z yechimini topmagani bois, dunyo hamon tahdidli jarayonlar girdobida qolmoqda.

Yer yuzining turli mintaqalarida sodir bo'layotgan mohiyatan butun insoniyat boshiga xavf solib turgan turli noxush hodisalarni tahlil qilib, ularning barchasida inson omili bosh sababchi ekanini sezish qiyin emas. Birgina misol, Germaniya olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, 1945-1995 yillar orasida, ya'ni qirg'inbarot ikkinchi jahon urushidan keyingi 50 yillik "tinchlik hukm surgan davr"da insoniyat atigi 26 kun tinchlik nash'asidan bahramand bo'lgan ekan. Ana shu yillar davomidagi turli xil mojarolar o'p-qonida 25 milliondan 35 milliongacha kishi begunoh halok bo'lgan. Nemis olimlari o'z tadqiqotlarida millatchilik, zo'ravonlik va diniy ekstremizmning barchasi odamzodda aql-zakovat, madaniyat va ma'rifat yetishmagani tufayli sodir etilgan, degan ibratli xulosani bildirishdi.

Insonning buyuk yaratuvchilik salohiyati va uning qadr-qimmati munosib baholanmasa, u turli-tuman manfaatga ega bo'lgan guruhlar qo'lida qurolga aylanishi shubhasizdir. U o'z manbai va ildizidan begonalashib, o'zi yashaydigan

makonga salbiy ta'sir qila boshlaydi, eng dahshatlisi, u o'zligini unutish darajasiga yetib boradi. Odamzotning ma'naviy butunligini asrash, e'zozlash o'rniga, uning yaxlitligiga rahna soladigan xatti-harakatlar avj olsa, insonning bevosita ishtiroki, aralashuvi tufayli tabiat, jamiyat va shaxs o'rtasidagi uyg'unlik buziladi. Insoniyatga bevosita xavf soluvchi bu yangi tahdid "antropogen tanazzul" degan nom bilan ilmiy va siyosiy lug'atlardan joy ola boshladi.

Taraqqiyot jarayonida ijtimoiy munosabatlar chuqurlashib, davlatimiz murakkab umumbashariy muloqotlar tizimiga kirib borar ekan, fuqarolarning mas'uliyati ham kuchaya boradi. Mas'uliyatni his etish esa, birinchi navbatda, davlat manfaatlar, umumilliy manfaatlar darajasida fikr qilish bilan chambarchas bog'liqdir.

Ona zaminga vatanparvarlik tuyg'usi elu yurtga tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday xavf-xatarni yengishning beqiyos manbaidir. Shunday ekan, Vatan xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda, uning kuch-qudratini yanada oshirishda inson salohiyati, ya'ni inson omilining o'ri beqiyosdir.

Bu o'rinda rahbar xodimlarning mas'uliyati, jonbozligi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda xalqimizning ruhiyatini baland ko'tarish uchun yurtiga, ona Vataniga cheksiz muhabbat tuyg'usini qalbida mujassam etgan, dili pok, ma'rifatga intiluvchi rahbarlar har qachongidan ham zarurdir. Rahbarning adolatligi, zakovati, bilimga doimo chanqoqligi ezgulik xislatlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan taqdirdagina ijtimoiy taraqqiyotimizning buguni va ertasi yorug' bo'lishi mumkin. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Ma'rifatsiz rahbar hamisha o'z tevaragida ma'rifatsiz rahbarchalarni yig'ish bilan mashg'ul bo'ladi. Chunki uning yagona maqsadi o'z amalini mustahkamlashdan iborat bo'lib qoladi. Shu sababdan ham u g'ayratli, fidoyi, ma'rifatli kishilarni hokimiyatga yaqinlashtirmaslikka tirishadi, ularni badnom qiladi, ularning yutug'idan azoblanadi".

Mamlakatlar tarixiy tajribasidan ma'lumki, xavf-xatar omiliga nisbatan doimiy ravishda sergaklik bilan munosabatda bo'linsa, muntazam nazorat qilib borilsa, u ma'lum doirada chegaralanib, jamiyat asoslariga jiddiy xavf tug'dirmaydi. Jahonning yetakchi davlatlari amaliyotidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Rossiya Federatsiyasida esa Chechenistonda ro'y berayotgan murakkab jarayonlarga o'z vaqtida jiddiy e'tibor berilmasligi, to'g'ri siyosiy baho berilmaganligi oqibatida, nisbatan osonlik bilan hal qilinishi mumkin bo'lgan muammo nihoyatda chigallashib ketdi. Natijada, mamlakat ikki marta qonli urush girdobiga tushdi va uning oqibatlari hali ham davom etmoqda. Tojikistondagi bugungi vaziyat ham yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Ma'lumki, aslida bu bundan bir necha yil oldin Dushanbening "Shohidon" maydonida boshlangan, keyinchalik xunrezliklarga aylanib ketgan xavf-xatar omilining o'z doirasidan allaqachon chiqib ketganligidan dalolat berar edi. Lekin, o'sha paytdagi Tojikiston hukumati bu vaziyatga tegishli siyosiy baho bera olmaganligi natijasida, mamlakat uzoq davom etuvchi siyosiy beqarorlik holatiga tushib qoldi. Tahdidli holat davlatning ma'lum ma'noda "yashash usuli"ga aylanib qoldi. Buning asosida esa siyosiy loqaydlik, beparvolik, inertlik, noshudu notavonlik, kaltabinlik, ijtimoiy immunitetning susayishi, milliy biqiqlik va

milliy xudbinlik holatlari yotadi. Demak, jamiyatda xavf-xatar xuruji o'z vaqtida anglanmasa va unga to'g'ri siyosiy baho berilmasa, uning nihoyatda zo'rayishiga asos bo'ladi.

Jamiyatda vujudga kelgan tahdidli holat tegishli asoslarga ko'ra, quyidagi alomatlarida aks etadi:

- maqsadga yonaltirilgan maqtovg'a berilish;
- ayrim ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarning nazoratdan chetda qolishi;
- aholining ba'zi qatlamlarini e'tibordan qochirish;
- aholining ayrim guruhlarida yolg'izlanish kayfiyatining kuchayishi;
- norozi va muholif kuchlarning xoli joylarda guruhlashishiga e'tiborsizlik bilan qarash;
- salbiy tendensiyalarni xaspo'shlash amaliyoti;
- ommaviy konforizm (xo'jako'rsinlik);
- siyosat va fanning bir-biridan yiroqlashishi;
- davlatning imkoniyatlarini real baholay olmaslik;
- davlat hokimiyati organlarining haddan ziyod zo'riqishi.

Bunday vaziyatda jamiyat hayotining barcha jabhalarida salbiy jarayonlar kuchayib boradi. Siyosiy barqarorlik nihoyatda zaiflashadi. Mafkuraviy immunitet kuchsiz ahvolga tushadi.

Shuningdek, o'zining impul's manbaiga ko'ra, ichki va tshqi tahdidlar bo'lishi mumkin. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, bevosita tahdid omilini uning maqsad va mohiyatiga nisbatan ham ajrata bilish lozimdir.

Bizning fikrimizcha, maqsad va mohiyat nuqtai nazaridan olib qaralganda, tahdid omili quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin: hududiy ekspansionizm; mafkuraviy ekspansionizm, axborot ekspansionizmi; diniy ekstremizm va fundamentalizm, separatizm; siyosiy terrorizm, mintaqaviy mojarolar, separatizm, diplomatik taz'yi; yadroviy, bakteriologik, kimyoviy, ekologik texnogen, ekologik antropogen, millatchilik, shovinizm, imperiyaviy tafakkur, umumbashariy hakamlikka intilish va xakazo.

Fikrimizcha, tahdidga bevosita javob quyidagilarni o'z ichiga oladi: umummilliy siyosiy lider omili; zudlik bilan aniq qaror qabul qilish; milliy xavfsizlik uchun dolzarb ishlarni zudlik bilan amalga oshirish, tezlik bilan tahdid va chora-tadbirlarning mohiyati yo'nalishi haqida jahon hamjamiyatini ogoh qilish; hokimiyat organlari muassasalari faoliyati sinxronligini oshirish; tahdidga qarshi umummilliy safarbarlik muttasilligini ta'minlash; OAV orqali tahdidga oid haqqoniy axborot oqimini kuchaytirish tahdidning millat taqdiriga qaratilganligini tushuntirish; xalqning siyosiy farosat kuchiga tayanish; umumxalq, umumdavlat yakdilligini oshirish; tahdid va tahdidli holatlarga barham berish.

Shi qoidadan kelib chiqqan holda, bizning nazarimizda, bevosita tahdid va unga javobning uch ehtimoli mavjud bo'ladi. Ya'ni:

- agar chora-tadbirlar to'laqonli samara bersa, u holda jamiyatda jo'shqin siyosiy taraqqiyot va barqarorlik davom etadi (O'zbekiston misolida buni ko'rdik);

- agar chora-tadbirlar yarim-yorti amalga oshirilsa, xavf-xatarning ildizi bilan bog'liq siyosiy noaniqlik hamda qaltis holat saqlanib qoladi (masalan: Tojikiston, Isroil va Falastin muammolari, Yugoslaviya amaliyoti);
- agar chora-tadbirlar ko'rilmasa yoki ular butkul samarasiz bo'lib chiqsa, davlatning siyosiy taraqqiyoti mutlaqo izdan chiqishi, sifat o'zgarishlari yuzaga kelishi kuzatiladi (masalan, demokratiyadan diktaturaga aylanish holati – Chili siyosiy amaliyoti).

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilgan holda shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda ham tahdidlarning yechim va uslublari bilan bog'liq nazariy muammolarga jiddiy munosabatlarni shakllantirish nihoyatda dolzarb vazifa bo'lib turibdi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: “Agar biz bugungi hayotimizga, bunyodkorlik ishlarimizga, erishayotgan yutuqlarimizga to'g'ri baho bermasak, ularning qadriga yetmasak, o'z xushyorligimizni yo'qotib, bizni har qadamda kutayotgan tahdidlarni, tinch turmushimizga, xavfsizligimizga rahna solayotgan, oyoq ostidan chiqayotgan har xil balo-qazolarni ham payqamay, sezmay qolishimiz mumkin.

Nazarimizda, bu fojealarning asosiy sabablaridan biri, birinchidan, mafkuramiz sohasidagi usul va uslublarning hayot bilan hamnafas bo'lmayotganidadir. To'g'ri, mamlakatimiz ilk mustaqillikni qo'lga kiritgan davrdan boshlab bog'cha, maktab, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, oila, mahalla, jamoat jamg'armalari, siyosiy partiya va harakatlar doimiy e'tiborimizda bo'ldi. Ammo jamiyat siyosiy tizimida paydo bo'lgan norasmiy tashkilotlar, oqimlar, guruhlar, “Islom ozodlik partiyasi”, xizbulloh, hizb ut-tahrir, akromiyalar, vahhobiylar kabi yot oqimlarga yetarli darajada e'tibor bermadik. Ularning g'oyaviy qarashlari, maslak-maqсад va vazifalari, ish uslublarning asl mohiyatini chuqur o'rganishga, zararli oqibatlarini o'z vaqtida aniqlab, ularni fosh qilishga loqaydlik bilan qaradik.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida fuqorolarimiz, ayniqsa yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga, to'la ish bilan ta'minlanishiga yetarli e'tibor berilmadi. Ayniqsa, qishloq joylarida maktabni bitirgan aksariyat yoshlarni ishga joylashtirish jiddiy muammoga aylandi.

Yanada achinarli joyi shundaki, bizning nazarimizdan chetda qolgan aynan o'sha nozik nuqtalar xavfsizligimizga tahdid soluvchi kuchlarning doimiy e'tiborida bo'ldi. Prezidentimiz Islom Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi nutqida ham 16 fevraldagi voqealarning ishtirokchilari asosan yoshlardan tashkil topganligi g'oyat tashvishli ekanligini, bizning beg'amligimiz, loqaydligimiz, ishimizdagi kamchiliklar oqibatida jinoiy guruhlar, ekstremistlar, shuningdek, diniy mutaassiblar ta'siriga tushib qolganliklarini alohida ta'kidladi. “Bu avvalo siyosiy-ijtimoiy sohadagi muayyan nuqsonlar, eng muhimi, yoshlar tashkilotlari, mahalla kengashlari ishidagi kamchiliklarni ko'rsatadi. Men bu masalada davlat hokimiyati va jamoat tashkilotlari barcha yig'inlari rahbarlarining aybi borligini ta'kidlashga majburman”.

Bugungi kunda O'zbekistonda yagona yoshlar tashkiloti bo'lgan “Kamolot” jamg'armasi faoliyatini chuqur o'rganish va ularning ishlarini yangi taraqqiyot

bosqichiga ko'tarish zarurati sezilmoqda. Bu tashkilotning yoshlar orasida, ayniqsa, ularning tuman, shahar bo'limlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi bo'limlarida ta'sirini kuchaytirish darkor.

Ma'lumki, mahalla bugungi kunda jamiyatimiz siyosiy tizimida muhim o'rin tutuvchi o'z-o'zini boshqarish organlarining tarkibiy qismiga aylandi, uning huquqiy va iqtisodiy asoslari tobora mustahkamlanib bormoqda. Biroq ayrim mahalla kengashlari, oqsoqollari o'zining asosiy vazifasini to'ylarni o'tkazish, ma'rakalarda qatnashish, moddiy yordamlarni tarqatishni tashkil etishdangina iborat deb o'ylamoqdalar. Mahalla bilan oilalar, maktab xotin-qizlar kengashi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi hamkorlik sezilarli darajada emas. Mahalla oqsoqoli yaxshi siyosatchi, g'ayratli, tarbiya va mafkuraviy ish uslublarini mukammal biladigan shijoatli rahbar bo'lishi lozim. Hayotimizning asosi-adolat mahalladan boshlanishi kerak. Bir mahalla ikkinchisiga o'xshamaydi, shu sababli ularning ishida bir xil yondoshuv hamma vaqt ham samara beravermaydi. Mahalla kengashining ishlari shu mahalla xususiyatlaridan kelib chiqishi lozim.

Birinchi navbatda, islom dini niqobidagi tashqi tajovuzkor kuchlarni, ekstremizmning xususiyatlarini mukammal bilishimiz, yoshlarga anglatishimiz zarur. Biz islom dinini niqob qilib, O'zbekiston xavfsizligiga tahdid solayotgan kuchlarga o'zimizning ma'rifatimizni qarshi qo'ymog'imiz kerak.

Ikkinchidan, tahdidlarni oldini olishning muhim siri – aholining barcha qatlamlariga, ayniqsa, yoshlarga nisbatan ijtimoiy siyosatni adolatli amalga oshirishdir. Har bir fuqoroning, ayniqsa, yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishiga davlat hokimiyati organlarining, fuqorolar o'z-o'zini boshqarish organlarining yordami va g'amxo'rligi, e'tiborini kuchaytirish kerak, ularning yangi shakllarini joriy etish zarur.

Uchinchidan, davlat va jamoat organlari Kadrlar tayyorlash milliy dasturining amalga oshirilishini xavfsizlikning oldini olish chorasi, barqarorlikning muhim sharti, taraqqiyotning muhim kafolati, deb bilmog'i shart.

To'rtinchidan, mafkuraviy ishlarimizning usul va shakllarini yangilashimiz zarur.

Biz bugun yoshlar ongiga O'zbekiston davlati – “Baxt haqida chinakam tushunchaga ega bo'lgan kishilar jamoasi”, huquq va ezigulik, adolat vositasi kabi ezgu g'oyalarni singdirishimiz kerak. Davlatning oliy Maqsadi – O'zbekistonning har bir fuqorosi huquqlari va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilish ekanligini tushuntirish lozim.

Beshinchidan, har bir fuqoro, har bir rahbar o'z burchlarini halol, vijdonan, adolatli bajarishi kerak. O'z burchini halol bajargan insongina o'zining kimligini anglaydi. O'z yo'lini topish, o'z o'rnini bilish – inson uchun eng muhimi bo'lib, bu o'zligini tanish demakdir. O'z yurtining asl farzandi bo'lgan, qadrdon zamin bilan bog'liqligini teran his qilgan inson vatanni chin dildan sevadi, tahdidlarni bartaraf etadi, o'z kuchiga ishonch hosil qiladi. Va boshqalar uchun yashash qudratli kuch ekanini his qiladi. Zeroki, inson faqat mushohada bilan emas, harakat, amaliy faoliyat orqali o'zini anglaydi. “Burchingni ado etishga harakat qil, shunda darhol o'zingning kimligingni tushunasan”.

Tayanch iboralar:

Jahon sivilizatsiyasi, ma'rifat, ijtimoiy tahdidlar, ma'naviy rivojlanish, "antropogen tanazzul".

Nazorat savollari:

1. Insoniyat taraqqiyoti qanday omillarga bog'liq?
2. Ma'rifatni yuksaltirishda ta'lim-tarbiya qanday rol o'ynaydi?
3. Jamiyatda vujudga kelgan tahdidli holat qanday alomatlarida aks etadi?

3-mavzu: Mafkuraviy jarayonning rivojlanish mexanizmlari va vositalari

Reja:

1. "Targ'ibot" va "tashviqot" tushunchalari, ularning shakllari va mafkuraviy jarayonlar kechishidagi o'rni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi PQ-451-sonli qarorining ahamiyati.
3. Siyosiy partiyalar, harakatlar va jamoat tashkilotlarining mafkuraviy jarayonlar rivojida o'rni.
4. Ommaviy axborot vositalari mafkuraviy targ'ibotni amalga oshirishning muhim bo'g'ini sifatida.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" 2006 yil 25 avgustdagi PQ-451-sonli Qarori Xalq, Vatan va Davlat manfaatlari yo'lida qabul qilindi.

Xalq bor ekan, vatan bor ekan, Davlat bor ekan, bu uch buyuk boylik birligiga erishish, shu birlikni asrab-avaylash, qadriga yetish – shu Xalq vakili, shu Vatan sohibi, shu Davlat fuqarosi bo'lgan har bir kishining muqaddas burchiga aylanishi shart.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining 2006 yil 16 sentabr va 18 noyabrda bo'lib o'tgan yig'ilishlarida ana shu Qaror ijrosini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Mohiyatini o'ylab ko'rsangiz, bu – nihoyatda muhim hujjat. Chunki, Qarorda to'g'ri qayd etilgandek, Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish, ehtimol hech qachon bugungidek dolzarb masalaga aylanmagandir. Xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va information kurashlar kuchayib borayotgani hech kimga sir emas. Hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy hurujlardan himoya

qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatlarini shakllantirish, ularda yon-atrofdagi yuz berayotgan voqealarga dahldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi bu sohadagi ishlarni, jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi faoliyati va tarkibiy tuzilishini qayta ko'rib chiqishni taqozo etgani uchun shu Qaror qabul qilindi.

Ayni hujjat bundan bo'yon tamoman yangicha kuch-g'ayrat, ogohlik va aniq mo'ljal asosida ishlashni talab etyapti. Havoyi gaplar, umumiy da'vatlar, balandparvoz hamdu sanolar davri o'tdi. Axir, biz axborotlar kurashi davrida yashayapmiz. Targ'ibotchi shuni unutmasligi kerakki, bugun tinglovchi sodda emas, uning boshqa information manbalardan ma'lumotlar olish va ularni tahlil etish, hayotni bevosita kuzatish bo'yicha juda katta imkoni bor. Demak, bugun ma'naviy-ma'rifiy, kerak bo'lsa, g'oyaviy-mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishida o'ta hushyorlik, chuqur tahlil salohiyati, eng muhimi, katta axborot bazasiga ega bo'lish va uni ta'sirchan, sodda, ishonarli tarzda fuqaro ongi va qalbiga yetkazish mas'uliyati talab qilinadi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi bundan bo'yon ana shu yuksak talablar asosida faoliyat olib borishga majbur. Aks holda, barcha sa'y-harakatlar zoye ketadi.

Xo'sh, Qarorda milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish uchun bu tizimga qanday jiddiy yangiliklar kiritildi?

Birinchisi - Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga Raislik qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri zimmasiga yuklatildi. O'n bir kishidan iborat Kengash Boshqaruvi tashkil etildi.

Ikkinchisi – Qoraqalpog'iston respublikasi Jo'qori kengesi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchisi shtati joriy etildi. Respublikamizning barcha mintaq va hududlarida birinchi rahbar mintaqaviy-xududiy Ma'naviyat va ma'rifat kengashining raisi hisoblanadi. Yordamchilar amalda ana shu mintaqaviy Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisining o'rinbosari bo'ladi va joylardagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish hamda o'zaro muvofiqlashtirishda u Jo'qori Kenges Raisi va hokimlarga bevosita yordam beradi.

Ochiq aytib qo'ya qolgan ma'qulki, bu vazifada ishlaydigan kishi tom ma'noda ma'naviyatchi, yana ham yaqinroq qilib ifodalansa, haqiqiy mafkurachi bo'lishi kerak. Shunday salohiyatga ega yetuk mutaxassis – bilimi, tajribasi yetarli kadr qo'yilishi lozim.

Milliy g'oya va mafkura targ'iboti, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahamiyati chigit ekish yoki g'alla yetishtirishdan kam emas. Axir, terroristik-ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushib qolgan fuqarolarimiz ishtirokida mamlakatimizda mustaqillik yillarida nimalar qilinganini bir emas, bir necha bor boshdan o'tkazdik-ku.

Qarorda ko'zda tutilgan **uchinchi** yangilik shuki, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining tashkiliy guruhi – ijroiya idorasi hisoblanmish Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi Respublika Ma'naviyat targ'ibot markaziga aylantirildi. Uning tarkibiy tuzilishida ham muayyan o'zgarishlar qilindi.

Qo'shimcha ravishda yangi Targ'ibotchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va malakasini oshirish bo'limi ochildi. Ijtimoiy-siyosiy, huquqiy targ'ibot bo'limi Ijtimoiy-siyosiy targ'ibot bo'limiga, Ijtimoiy-iqtisodiy targ'ibot bo'limi Huquqiy targ'ibot bo'limiga aylantirildi. o'z-o'zidan, ijtimoiy-iqtisodiy targ'ibot ham ijtimoiy-siyosiy targ'ibot bo'limi zimmasiga yuklandi.

To'rtinchi yangilik shuki, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi huzurida shu paytgacha faqat yutib olgan grantlari asosida faoliyat olib borgan Milliy mafkura ilmiy targ'ibot markazi davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markaziga aylantirildi va unga 9 ta shtat birligi ajratildi.

Shu tariqa Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi amalda ikki qanotga ega bo'ldi. Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi ilmiy-nazariy, uslubiymetodik tavsiyalar, dasturlar, ishlanmalar, risolalar, qo'llanmalar va boshqa nashriy bosma mahsulotlar ishlab chiqadi, milliy g'oya va mafkura targ'iboti bo'yicha monitoring olib boradi. Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi bevosita amaliy targ'ibot ishlari bilan shug'ullanadi. Mamlakatda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tizimini takomillashtiradi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni uyushtiradi, muvofiqlashtiradi, joylarda, tashkilot va muassasalarda bu boradagi ahvolni o'rganadi, ularga yordam ko'rsatadi, shu soha mutaxassislarining malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yadi.

Ko'rinib turibdiki, Qarorda vazifalar o'ta muayyan tarzda belgilab berilgan. Uning ijrosi uchun ishni yuksak darajada tashkil etish kerak.

Islahotlar tub mohiyatini, erishilgan yutuqlarni ishonarli, asosli, taxliliy tarzda ham bevosita aholi o'rtasida, ham ommaviy axborot vositalari orqali izchil va muntazam yoritib borish darajasini keskin ko'tarish lozim. Yashirib nima qildik, oramizda shunday odamlar ham borki, mustaqillik sharofati bilan o'zimizda ishlab chiqarilgan zamonaviy "Neksiya"da yuribdi, aynan mustaqillik davrida qurilgan keng va ravon yo'lda ketyapti. Afsuski, fikri-yodida norozilik, noshukurlik va xakazo o'ylar. Shu fuqaro bilan kim gaplashadi? Uning fikrini kim o'zgartiradi? Kim uning ko'ngliga shukr urug'ini sepadi?

Hozir axborot asrida yashayapmiz, har tarafdin axborot kirib kelyapti. Bu tabiiy jarayon. Lekin do'konlarimizda sotilayotgan xorijdan keltirilgan nashriy mahsulotlar, audio-videokassetalar, turli disklar, kinolar, kitoblarning g'oyasi, mafkurasi, maqsadi nimadan iborat, ular milliy manfaatlarimiz, g'oya va maqsadlarimizga zid emasmi – buni kim nazorat qiladi, kim o'rganadi, kim bunday xavflarning oldini oladi?

Biz demokratik jamiyat quryapmiz. Vijdon erkinligini ta'minlash – demokratiyaning oily talablaridan biri. Biroq tushunib yetdikki, haqiqiy din – boshqa, din niqobi ostidagi yot mafkura – boshqa narsa. Din bahonasida aynan qanday g'arazli, yot g'oyalar kirib kelyapti – o'z vaqtida aniqlab boryapmizmi? Mullalar, otinoyilar ma'ruzalari kassetalar tarzida tarqatilyapti. Marhamat. Biroq aytilayotgan, da'vat etilayotgan g'oyalar zahirida yot maqsad yashirin emasmi? Buni izchil tahlil qilib borish, diniy va dunyoviy targ'ibotni o'zaro uyg'unlashtirish zarurati kun sayin ortib borayotir.

Dinlararo bag'rikenglik g'oyasini targ'ib etish Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazining asosiy vazifalari sirasiga kiritilgan. Bilamizki, bizda bir din vakilini ikkinchi dinga da'vat etish qonun bilan ta'qiqlangan. Biroq ilgari islom niqobi ostida turli yot, ekstremistik-terroristik oqimlarni yoyib kelgan g'arazli kuchlar endilikda nasroniylik va boshqa dinlar niqobi ostida yoshlarimizni yo'ldan adashtirishga harakat qilib, missionerlik faoliyati bilan shug'ullanishga kirishdi. Bunga qarab turib bo'ladimi?

Xalq ta'limi, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'lim tizimlarida milliy g'oya va mafkura, ma'naviyat asoslari qanday singdirilyapti? O'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalarda e'tiborsizlik, bilimsizlik oqibatida, farzandlarimiz ong-tafakkuri va qalbiga o'zimizga qarshi g'oya singdirilayotgani yo'qmi?

Adabiyotimiz va san'atimizda qanday g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy jarayonlar kechmoqda? Mualliflarimiz qaysi g'oyalarni ilgari suryapti? Ularni shu nuqtai nazardan kim tahlil etadi?

Bunday savollarga javob izlash bevosita Xalq, Vatan va Davlat buguni va kelajagi uchun suvu havoday zarur. Xalq, Vatan va Davlatni har kuni har lahzada qo'riqlash, asrash, muhofaza qilish shart. Bu esa, eng avvalo, odamlar, xususan yoshlar ong-tafakkuri, ma'naviyati va qalbida O'zbekiston, uning ravnaqi, tinchligi, farovonligi uchun yashash tuyg'usini mustahkam o'rnatish orqali kechadi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi, uning tuzilmalari, mintaqaviy-hududiy kengashlari shu vazifalarni bajarishni butkul o'z zimmasiga olishi shart.

Kengash jamoat tshkiloti sifatida shunday masalalarni ko'tarish, izchil o'rganish, jamoatchilik fikrini uyg'otish, oldini olishga to'la haqli va shunga mas'ul.

Prezident Qarori bundan bo'yon ishni shu asosda tamoman yangi saviya va darajada yo'lga qo'yishni talab etadi.

Siyosiy partiyalar faoliyatining Konstitutsiyaviy asoslari

Siyosiy partiyalarning muayyan ijtimoiy qatlam manfaatlarini himoya qilishidan kelib chiqib, ularning boshqa ijtimoiy-siyosiy qatlamlar manfaatlariga munosabatlarini, jamiyat hayotidagi o'rnini, mavqeini belgilash zaruriyati va ehtiyoji qonuniy-huquqiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, millat, davlat va umuminsoniyat tsvilizatsiyasi uchun jiddiy tahdid tug'dirgan siyosiy partiyalar (masalan, fashizm) ning maydonga chiqishi va agressiv siyosati bu jarayonni yanada kuchaytirmoqda. SHuning uchun ham siyosiy partiyalar faoliyatining konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlash jahon tajribasida keng

qo'llanilmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, davlatlarning ichki va tashqi siyosatida demokratik tamoyillarning qaror topishi, xalqaro nufuzini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatni tashkil qilgan ijtimoiy-siyosiy strukturaviy elementlar, shu jumladan siyosiy partiyalar o'rtasidagi siyosiy-huquqiy

«Хар бир партия муайян ижтимоий қатламга таянган ҳолда, ана шу синф манфаатларининг ҳимоячиси сифатида ўзининг аниқ ва равшан ҳаракат дастурига эга бўлиши керак. Унда ҳар қайси партиянинг мақсад ва вазифалари, жамият тараққиёти борасидаги муқобил таклифлари ўз ифодасини топиши лозим». Ислом Каримов. («Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт — пировард мақсадимиз» асаридан).

munosabatlar tizimi ham o'zgarib, partiyalar faoliyatini Asosiy qonun - Konstitutsiya orqali reglamentlashtirish zaruriyati tug'ildi.

SHu bilan birgalikda, partiyalarning muayyan davlat siyosiy tizimdagi o'rni, xalqaro miqyosda mavqei kuchayib borishi bilan, ularning maqomlarini, funktsiyalarini belgilash (faoliyatlarini cheklash, ta'qiqlash, jazolash va rag'batlantirish)ning huquqiy tartibotlari har bir mamlakatda o'ziga xos va mos shakllarda namoyon bo'lmoqda. YA'ni, ularning faoliyatlarini tashkillashtirish,

**«Сайловлар натижасида
Қонунчилик палатасида ўз фракциялари
ва маҳаллий кенгашларда депутатлик
гуруҳларини тузиш ҳуқуқига эга бўлган
сиёсий партияларнинг ҳукумат раҳбари
ва вилоят ҳокимларини сайлаш ва
тайинлаш, уларни вазифасидан
четлаштиришда фаол иштирок этиши,
шу орқали ижро ҳокимияти фаолиятига
беvosита таъсир кўрсатиши. . . сиёсий
партияларнинг ҳаётимиздаги роли ва
амалий таъсири кескин кучайишининг
яққол исботи».** . Ислом Каримов. (*«Инсон
манфаатларини таъминлаш, ижтимоий
ҳимоя тизимини такомиллаштириш-
устувор вазифамиз» асаридан*).

boshqarish va nazorat qilishga doir qonuniy-huquqiy normalar, qoidalar turli mamlakatlarning huquqiy manbalarida turlicha shakllarda: Konstitutsiya va maxsus qonunlar, huquqiy me'yorlar; hukumat qarorlari; parlament palatalari reglamentlari; prezident farmonlari, qarorlari, sud hokimiyatiga konstitutsiyaviy nazorat xuquqi berilgan mamlakatlarda esa, sud qarorlarida o'z ifodasini topgan. SHu bilan birgalikda, bir necha asrlar davomida konstitutsiya asosida faoliyat ko'rsatib kelayotgan

ayrim mamlakatlar (masalan, AQSH) konstitutsiyalarida partiyalar faoliyatiga doir hech qanday moddalar keltirilmagan bo'lsa ham, bu mamlakatlarda ko'p partiyalilik tizimi konstitutsion mexanizmning ajralmas qismi sifatida, davlat boshqaruvining faol ishtirokchisi va sub'ekti hisoblanadi. Buning asosiy sababi, konstitutsiyalar qabul qilingan tarixiy davrlarda, bu mamlakatlarda hali siyosiy partiyalarning shakllanib, siyosiy kuch sifatida ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi maqomi turg'un bo'lmaganligidir.

XX asrning ikkinchi yarimiga kelib, xususan ikkinchi jahon urushidan so'ng, siyosiy partiyalar ijtimoiy-siyosiy harakatlarning asosiy tashkilotchilik rolini bajara boshlashi bilan, nisbatan industrial rivojlangan: Italiya (1947), YAponiya (1948), Frantsiya (1958), SHvetsiya (1974), Gretsiya (1975), Portugaliya (1976), Ispaniya (1978) va boshqa mamlakatlarning qabul qilingan konstitutsiyalarda partiyalar masalasiga, muayyan darajada e'tibor berildi. Bundan tashqari, mazkur davlatlar konstitutsiyalarida partiyalar faoliyatiga tegishli moddalarni konkretlashtiruvchi normalar ham kiritilgan. Bunga, birinchidan, konstitutsiya qabul qilingan davrdagi mamlakatdagi milliy: ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy shart-sharoitning xususiyatlari; ikkinchidan, jamiyat ijtimoiy-siyosiy strukturasida siyosiy kuchlarning o'zaro munosabati; uchinchidan, muayyan mamlakatdagi mavjud siyosiy partiyalarning davlat tashqi siyosatidagi mavqei va xalqaro munosabatlaridagi o'rni va rolining oshib borishi kabi sabablarni ko'rsatish mumkin.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, aksariyat davlatlarning konstitutsiyalarida siyosiy partiyalar mamlakatdagi turli darajalardagi boshqaruv tizimiga saylovlarni

o'tkazish jarayonini: tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish mexanizmi, vositasi, ya'ni saylov kampaniyasida muayyan ijtimoiy-siyosiy qatlamlar (elektorat)ning manfaatlari asosida siyosiy tizimga nisbatan pozitsiyasini hamda irodasini shakllantirishga qaratilgan institut sifatida o'z ifodasini topgan va ularning faoliyatlari shu maqsad doirasida reglamentlashtirilgan. Masalan, siyosiy partiyalar va guruhlarining saylovlarda ovoz berishga ko'maklashish imkoniyati, ularning xalq irodasini shakllantirish va siyosiy hokimiyatni tashkil qilishdagi omilligi: Frantsiya Konstitutsiyasining 4-moddasida; Portugaliya Konstitutsiyasining 47-moddasi 1-qismida; Germaniya Konstitutsiyasining 21-moddasi 1-qismida; Ispaniya Konstitutsiyasining 6-moddasida qayd etilgan. SHu kabi fikrlar boshqa davlatlarning konstitutsiyalarida ham ko'rsatilgan¹.

Davlatlarning Konstitutsion qonunchiligida siyosiy partiyalar faoliyatini reglamentlashtirilishiga (chegaralash, ta'qiqlash yoki rag'batlantirishga) doir moddalarning kiritilishi, ular faoliyatidagi o'zgarishlarni normativ-huquqiy tartibga solish zaruriyatidan kelib chiqib, davlatlarning yuridik jihatdan demokratik rivojlanishidan darak beradi. Bu, o'z navbatida davlatlarning siyosiy institut sifatida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy roli samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, hozirgi davrda konstitutsiyalarga siyosiy partiya haqidagi maxsus moddalarning kiritilganligi, ularning jamiyat va davlat siyosiy tizimining muhim elementi ekanligini konstitutsiyaviy tan olinishni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, konstitutsiyalardagi siyosiy partiyalar bilan bog'liq o'zgarishlarning kiritilishi: birinchidan, davlat qonunchilik tizimida siyosiy institutlarning sistemalashgan yuridik bazasi shakllanishi va mukammallashtirilishidir. Ikkinchidan, partiyalarning mavjud siyosiy tizimga munosabatini qonun yo'li bilan tartibga solish uchun, ularning faoliyatlarini muvofiqlashtirish imkoniyati va sharoiti yaratiladi. Uchinchidan, siyosiy partiyalar faoliyatining konstitutsiyaviy asosda legallashtirilishi, ularning nisbatan mustaqil institut sifatida davlat boshqaruvi mexanizmida faol mavqeni egallashiga xizmat qiladi.

Ba'zi bir davlatlarning konstitutsiyalariga siyosiy partiyalar to'g'risidagi moddalar kiritilmagan bo'lsada, jamoatchilik uyushmalari, birlashmalari yoki tashkilotlari faoliyatlariga doir qonunlarda yoki ularga doir me'yoriy-normativ hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

Ayrim davlatlarda, xususan Germaniyada (1967 yil), Avstriyada (1975 yil), Meksikada (1977 yil), Ispaniyada (1978 yil), CHexoslovakiyada (1990 yil), O'zbekistonda (1996 yil) siyosiy partiyalar faoliyatiga doir maxsus qonunlar qabul qilingan. Bir qator davlatlarda (masalan, Avstraliya, Buyuk Britaniya, SHveytsariyada) siyosiy partiyalar to'g'risida umuman hech qanday qonun yo'q. Lekin, bu davlatlarda siyosiy partiyalar faoliyati fuqarolikka doir qonunlar yoki saylov to'g'risidagi qonunlar bilan tartibga solingan va maqomi belgilangan².

¹ Қаранг: Хитин Л.М. Политические системѹ развиваюхихся стран (государство и партии в странах Азии и Африки). -М.: 1978.

² Қаранг: Ricknell 1. . Statsskick Haг vatt statsskick fundgerar. Stockholm, 1975, SS. 52-53.

Evropada rivojlangan davlatlar ichida birinchi bo'lib Germaniya Federativ Respublikasi partiyalar faoliyati to'g'risidagi umumiy qoidalarini konkretlashtirib, Konstitutsiyaviy qonun maqomini belgilab berdi. YA'ni, konstitutsiya mamlakatdagi siyosiy partiyalarning huquqlari, mas'uliyati, burchlari, ularning ichki tuzilishi, vazifasi, saylovlarda ishtirok etishining yo'l-yo'riqlari, saylovoldi xarajatlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va ularni sarflashga doir hisobotlari, partiyalar faoliyatini antikonstitutsiyaviy motivlar buyicha ta'qiqlash kabi me'yorlarni tartibga solib turadi.

Ba'zi davlatlarning konstitutsiyalarda siyosiy partiyalar masalasiga alohida o'rin ajratilmagan. Masalan, Italiya Konstitutsiyasida partiyalar faoliyati haqidagi «Fuqarolarning huquq va erkinliklari» bobida berilgan 49-moddasiga binoan, «fuqarolar erkin ravishda, demokratik yo'l bilan milliy siyosatni belgilash maqsadida partiyalarga birlashish huquqlariga ega», deyilgan.

Gretsiya Konstitutsiyasida esa, partiyalarning huquqiy maqomi davlat tuzilishi bobining 29-moddasida ko'rsatilib, unga muvofiq, ovoz berish huquqiga ega bo'lgan grek fuqarolariga «siyosiy partiyalar tuzish yoki ularga qo'shilish» huquqlari beriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, siyosiy partiyalar a'zolarining faoliyati saylov huquqi bilan bog'lab qo'yilgan SHu bilan birga, siyosiy institut sifatida, partiyalar faoliyatini davlat tuzumining asosiy maqsadlari doirasida reglamentlashtirib, «demokratik rejimning erkin yashashiga xizmat qilishdir», deb belgilab qo'yilgan.

Ispaniya Konstitutsiyasida siyosiy partiyalar aholining ijtimoiy hayotga «siyosiy ishtiroki vositasi», deb belgilagan (6-modda), partiyaning asosiy maqsadi esa, «xalq irodasini shakllantirish va ifodalash»dir, deb ko'rsatilgan³.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Jamoat birlashmalari" to'g'risidagi bobining 60-moddasida siyosiy partiyalar faoliyatining qonuniy asoslari: "Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o'z faoliyatlarini moliyaviy taminlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar", deb belgilangan. Konstitutsiyaning bu moddasi bilan siyosiy partiyalar faoliyati umumxalq nazoratiga olinganligi ko'zga tashlanadi va demokratiya tamoyillariga to'liq mos keladi.

Konstitutsiyaning ettita moddadan iborat "Jamoat birlashmalari" bobi respublikada fuqarolik jamiyati va kuppartiyaaviylik tizimini qaror toptirish uchun ham huquqiy, ham amaliy jihatlardan shart-sharoitlar yaratdi. Unga binoan «jamoat birlashmasi», «kasaba uyushmalari», «siyosiy partiyalar» kabi tushunchalarga huquqiy anikliklar kiritildi. SHu asosda ular demokratik talqinlar asosida ta'riflana boshladi.

Respublikada fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishning siyosiy va huquqiy kafolatlari birinchi Konstitutsiya va boshqa qonunlarda o'z ifodasini

³ Каранг: Современное буржуазное государственное право: Критические очерки, Отв. Ред. Туманов. **В.А.** Т. 2. -М.:Наука, 1987. С. 156-170.

topdi. Natijada jamiyatda ko'p partiyaviylik tizimini shakllantirish uchun imkoniyatlar tug'ildi. «Birinchidan, yurtimizda olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va davom ettirish maqsadida amalda o'zini oqlagan bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lidan izchil borib, islohotlarning bir bosqii oxiriga etishi bilan ularni yangi bosqichga ko'tarish zaruratini ta'kidlash lozim.

Ikkinchidan, mustaqillik davrida siyosiy partiyalarning amaliy tajribasi, siyosiy nufuzi ortgani va ancha pishib etilganini hisobga olgan holda, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va hayotimizda hal qiluvchi siyosiy kuchga aylantirish uchun qonuniy yo'l-yo'riqlarni yaratib berishni bugun zamonning o'zi talab qilayotganini qayd etish zarur»⁴.

1996 yil 26 dekabrda "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Konyn ham aynan Konstitutsiyaga asoslanilgan holda qabul qilingan. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining turli davrlaridagi holatlari davlat va jamiyat qurilishiga doir qarashlarning amalga oshishi darajasiga mos kelgan. SHuningdek, davlat va jamiyat boshqarishning xususiyatlari davlatlarning qonunlarida o'z ifodasini topgan. SHu jumladan, «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yildi. Ushbu Qonunning maqsadi - davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakat hayotini

«Биз қонун устуворлигига эришгандагина ўзимиз учун мақсад қилиб қўйган адолатли, эркин жамият, фаровон ҳаёт барпо этишимиз мумкин.

Буни ҳеч қачон унитмаслигимиз у барчамиз учун ҳаётий барчага айланиши лозим». Ислон Каримов. (2000 йил 7 декабрда Ўзбекистон Конституциясининг 8 йиллигига бағишланган тантанали маросимда сўзлаган нутқидан).

modernizatsiyalashda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishdan iborat, deb belgilangan. Darhaqiqat, davlatning bosh islohotchilik roli jamiyatdagi siyosiy institutlarning milliy taraqqiyot yo'lidagi faoliyatlariga qonuniy-huquqiy asos yaratib berishi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti I.A.Karimov

jamiyatimizda ko'p partiyaviylik tizimini rivojlantirishning dolzarb vazifalari to'g'risida: "O'rta qo'yilgan vazifalarni hal etishda jamoat, nodavlat tuzilmalarni rivojlantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga egadir, binobarin, bunday tuzilmalar zamirida, nazarimda, fuqarolar tashabbuslarini shakllantirish, odamlarning ijtimoiy faolligini oshirish, turmushimizning ko'pgina dolzarb muammolarini hal etish istiqbollari mujassam. SHuni yaxshi uqib olishimiz kerakki, jamiyatimiz tuzilmalarida muvozanatni saqlaydigan kuchli ommaviy, jamoat birlashmalari bo'lmas ekan, davlat hokimiyatining barcha bo'g'inlarida o'zboshimchalik, volyuntarizm, avtoritar tafakkur va boshqaruv apparatining korruptsiyasi singari illatlar paydo bo'lmasligiga jiddiy kafolat ham bo'lmaydi",⁵ degan edi.

⁴ Киргизбоев М. Фукаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. -Т.:«Шарк», 1998. –Б. 56.

⁵ Каримов И.А. Ҳозирги босқичда демократик ислохотларни чуқурлаштиришнинг муҳим вазифалари. — Т.: Ўзбекистон. 1996. –Б. 26-27.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi siyosiy partiyalarga nisbatan o'rganilsa, bu tushuncha Asosiy qonunda 11 marta ishlatilgani ko'ramiz. YA'ni, "Jamoat birlashmalari" to'g'risidagi XSH bobda, "Xalq hokimiyatchiligi" (II bob, 10-modda), "Siyosiy huquqlar" (VIII bob, 32-34-moddalar), "Sud hokimiyati"ga bag'ishlangan XXII bobning 106, 108, 112-moddalarida siyosiy partiyalarga uyushishning qonuniy-huquqiy asoslari to'g'risida aytilgan.⁶ Bu masalalar Konstitutsiyaga berilgan sharhlarda ham munosib darajada ko'rsatilgan. Xususan, 1995 yil SH. O'razaev tahriri ostida nashr etilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharhda: "Siyosiy partiyalar o'z a'zolarining siyosiy irodasini ifodalab, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda ishtirok etuvchi, shuningdek hokimiyat organlariga qonuniy tarzda saylangan vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishni maqsad qilib qo'yuvchi jamoat birlashmasidir",⁷ deb yozilgan bo'lsa, 2001 yilgi sharxda esa: "Siyosiy partiya — qarashlari, manfaat va maqsadlari mushtarakligi asosida tashkil etilgan, ma'lum guruhlarining davlat hokimiyatini shakllantirishdagi siyosiy irodasini ifodalovchi, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda o'zining vakillari orqali ishtirok etuvchi, ixtiyoriy ravishda birlashgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining uyushmasidir",⁸ deyilgan.

Ikkala sharh taqqoslab ko'rilsa, siyosiy partiyalarning ta'riflangan maqsad va vazifalari mazmunan umumiy bo'lib, faqat 1995 yilgi sharxda "jamoat birlashmasi", 2001 yilgi sharxda esa, "fuqarolar uyushmasi" degan iboralar ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu iboralar ma'nosiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lsada, lekin «jamoat birlashmasi» tushunchasi «fuqarolar uyushmasi» tushunchasidan kengroqdir. YA'ni, fuqarolar biron maqsadni ko'zlab uyushib, o'z ustavlarini tuzib, davlatning rasmiy tashkiloti ro'yxatidan o'tib, ixtiyoriy ravishda, jamoat birlashmasini tuzishlari mumkin. Bundan tashqari, «fuqaro» maqomi biror davlat fuqarosining saylash va saylanish imtiyozini ham ifodalaydi. SHu nuqtai nazardan, «fuqarolik» tushunchasi, demografik holatiga ko'ra, «jamoat a'zosi» tushunchasiga nisbatan konkretdir. Eng muhimi, keyingi sharxda siyosiy partiyalarga ma'lum guruhlarining qarashlari, manfaat va maqsadlari mushtarakligi asosida uyushishning, tashkiliy jihatdan, ixtiyoriyligi ta'kidlangan. Chunki, har qanday ijtimoiy-siyosiy faoliyatda ixtiyoriylik demokratiyaning muhim belgisi bo'lib, inson erkinligini ifodalaydi.

YUqorida ko'rsatilgan ikkala sharxda ham siyosiy partiyalarning davlat boshqaruvida manfaatlarining individuallik masalalariga alohida ahamiyat berilib, umummilliy masalalar, ya'ni partiyalarning millat taraqqiyotiga nisbatan g'oyaviy birligi, manfaatlari umumiyligi muammolari diqqatdan chetda qolgan.

1996 yil 26 dekabrda qabul qilingan "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida siyosiy. partiya: "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar

⁶ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Т.:Ўзбекистон. 2003. –Б. 12.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарх. // Ш. Ўразаев таҳрири остида. — Т.:Ўзбекистон. 1995. –Б. 103.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Конституциясига шарх, // Ш. Ўразаев таҳрири остида. —Т.:Ўзбекистон. 2001. – Б. 309-310.

mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ruyobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir", deb ta'rif berilgan⁹.

Qonunning 2-moddasida Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraktsiyalarining faoliyat doirasi belgilangan. YA'ni, «Siyosiy partiya fraktsiyasi – siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlar tomonidan partiya manfaatlarini Qonunchilik palatasida ifodalash maqsadida tuziladigan va belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan deputatlar birlashmasidir»¹⁰. Bu Partiyalarning parlamentdagi fraktsiyalariga hukumatning tutgan yo'liga, muayyan sohani rivojlantirishga doir dasturlariga yoki ularning ayrim yo'nalishlariga qo'shilmasdan, o'zlarini muxolifat deb e'lon qilish imkoniyatining berilishi, davlat va jamiyatning demokratik rivojlanish tamoyillariga mos keladi. O'zlarini muxolifat deb e'lon qilgan partiya fraktsiyalari davlat va jamiyat qurilishiga doir muqobil dasturlarini taqdim etib, ularni amalga oshirishning g'oyaviy-mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish imkoniyatlariga ega deb e'tirof qilingan.

Mazkur Qonun loyihasida partiya fraktsiyalarining vakolatlari va huquqlari davlat hamda jamiyat qurilishining muqobil g'oyaviy-mafkuraviy tamoyillarini belgilash imkoniyatlari ifodalangan. SHuning uchun partiyalar fraktsiyalari yoki ularning bloklariga muayyan qonun loyihasini muhokama qilib, o'zgartirishlar kiritish imkoniyatining yaratilishi, ularning g'oyaviy-mafkuraviy faoliyat doirasini demokratiyalashuvini ifodalaydi.

SHu Qonunning «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun va «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to'g'risida»gi Qonun loyihalariga SHarhlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nomiga yo'llagan xatidagi printsiptial mezonlar) da davlat va jamiyat qurilishiga doir: «Siyosiy tajriba orttirish va siyosiy etuklikka erishish, eng muhimi moliyaviy mustaqillik, jamiyatda o'z o'rini topish, o'zining barqaror elektoratiga tayanish – bu, shakqshubhasiz, bugungi kunda siyosiy platformasi va yo'nalishidan qat'i nazar, mamlakatimizda barcha partiyalar bosib o'tgan yo'ldir» deb ko'rsatilgan¹¹. SHuningdek, bu sharhlarda «jamiyatimiz hayotida ijtimoiy-siyosiy faollikni yanada oshirish, faqat xalq irodasiga, fuqarolarning o'tkazilayotgan islohotlardagi faol ishtirokiga, ularning yurtimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarni tushunishi va qo'llab-

⁹ «Сиёсий партиялар тўғрисидаги қонун. // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997, # 2, 36-модда.

¹⁰ «Давлат бoshqарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида»ги Конституциявий қонун ва «Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айрим моддаларига (89-моддасига, 93-моддасининг 15-бандига, 102-моддасининг иккинчи қисмига) тузатишлар киритиш тўғрисида»ги Қонун лойиҳаларига Шарҳлар (Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси номига йўллаган хатидаги принципал мезонлар). / Халқ сўзи. 2006 йил 9 ноябр.

¹¹ Ўша манба.

quvvatlashiga tayangan holda, mamlakatni chngilash va modernizatsiya qilishning maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarish mumkin»ligi Qonun loyihasining asosiy maqsadi qilib belgilangan. Bu maqsad va vazifalarni amalga oshirish g'oyaviy-mafkuraviy targ'ibot-tashviqot ishlarini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirishning yangi usul-vositalarini taqozo qiladi.

Ushbu Qonunning amaliyotga joriy etilishi jahondagi siyosiy partiyalarning davlat va jamiyat qurilishiga doir tajribalarini umumlashtirish asosida vujudga kelib, O'zbekistonning demokratik davlatlar hamdo'stligida mustahkam siyosiy mavqega ega bo'lishiga olib keladi hamda mamlakatiimzdagi milliy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi haqidagi g'arazli fikrlarga munosib zarba beradi.

Konstitutsiyaning 34-moddasida "muxolifat" haqida so'z yuritilishi, uning demokratik tamoyillarga asoslanishi va hayotiyiligini ko'rsatadi, ya'ni demokratik huquqiy davlatlarda muxolifat partiyalar bo'lishi mumkinligi va bu masala O'zbekistonda ham qonuniy asosda hal etilganligidan dalolat beradi. Bu haqda M. Qirgizboev: "Ilg'or demokratik davlatlarda siyosiy muxolifat hokimiyat tepasiga kelgan siyosiy partiyaning hukumat tarkibida faoliyat ko'rsatishi uchun xalal bermaydi, shuningdek, hokimiyat uchun faqat saylovlar davridagina kurashadilar. Saylovlargacha bo'lgan davrda muxolifat o'z jamiyatining ijtimoiy va siyosiy barqaror bo'lishiga o'z hissasini qo'shib boradi. Hech bir mamlakatda hukumat va uning organlariga bo'lgan saylovlargacha davrda siyosiy muxolifatning hokimiyat uchun kurashishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunda "siyosiy muxolifat"ni davlat ham, xalq ham inkor etadi", degan fikrni bildirgan¹².

Siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun «faqat saylovlar davridagina» kurashini e'tirof etish, ularning doimiy faollik ko'rsatish doirasini chegaralaydi. CHunki, siyosiy partiyalar faolligi, mavjud siyosiy tizimni takomillashtirishga doir muxolifligining uzluksizligi bilan xarakterlanadi.

Siyosiy muxolifatning o'rni, uning zaruriyati to'g'risida Prezident I.A.Karimov batafsil to'xtalib: «Muxolifat» degan tushunchaning asl ma'nosini aniq anglab olishimiz lozim. Biz siyosiy muxolifatni muqobil muxolifat sifatida tushunamiz. Turmushimizning hamma sohasida muqobillik bo'lishi lozim. SHu sababli, muxolifat haqida so'z borar ekan, eng avvalo, islohotlar o'tkazish, jamiyatning taraqqiyot va yangilanish yo'lidan olg'a borishi bo'yicha muqobil dasturlarini taklif etishga qodir, amaliy muxolifatni nazarda tutamiz...

Biz rasmiy hokimiyat bilan g'oyaviy va amaliy jihatdan raqobatlasha oladigan, amaliy takliflar kirita biladigan, jamiyatimizning turli siyosiy qatlamlari manfaatlarining ifodachisi tariqasida maydonga chiqa oladigan muxolifatni ko'rishni istaymiz", degan edi¹³.

Siyosiy partiyalar fraktsiyalarining parlamentda faolligini kuchaytirish - partiya a'zolari siyosiy faolligini oshirish bilan uzviy bog'liqdir. Zero, har qanday partiya tashkiloti fraktsiyalarda faoliyat ko'rsatayotgan deputatlari (ular partiya

¹² Кирғизбоев М. Фуқаролик жамияти: сиёсий партиялар, мафкуралар, маданиятлар. — Т.:«Шарқ». 1998. —Б. 138.

¹³ Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш — давр талаби. -Т.:Ўзбекистон, 1997. —Б. 122-123.

emas, balki partiyalarning davlat boshqaruvidagi vakillari sifatida) faoliyatini kundalik nazorat qilib turish, zarur paytda siyosiy vaziyatni operativ muvofiqlashtirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Chunki, muayyan partiya faoliyatiga uning Oliy Majlisning quyi palatasida tashkil etilgan fraktsiyasi qanday ishlayotganligiga, ya'ni partiyaning maqsadlarini, vazifalarini amalga joriy etishlariga qarab xolisona baho berish mumkin.

Har bir fraktsiya tavsiya qilinayotgan Qonun loyihalari bo'yicha o'z yondoshuvining asoslarini, fraktsiyalar o'rtasidagi munozarali fikrlarni ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarga etkazib turishi zarur. Siyosiy partiyalar saylovoldi kampaniyalarida omma e'tiborini qozonish uchun jamiyatdagi mavjud muammolarning konstruktiv-ratsional echimlarini taklif qilish orqali ishtirok etgan bo'lsalar, parlamentning qonunlarni ijod va qabul qilish faoliyatida esa, partiya manfaatiga, ya'ni o'z a'zolari va saylovchilari manfaatlariga mos keluvchi qonunlar qabul qilinishiga erishishlari kerak.

Parlamentdagi partiyalar fraktsiya faoliyatini jamiyat hayotining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etadigan bo'lsak, muayyan partiya mansub fuqarolarning manfaatlari fraktsiya orqali parlamentga va u qabul qilgan qonunlar orqali jamiyat taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy partiya fraktsiyalari parlamentdan qonunlar ustida ishlash, qabul qilishi va amalda joriy etilinishini nazorat qilishi bilan jamiyat ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarni muvofiqlashtirgan holda huquqiy tartibga solinishini ta'minlaydi.

Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy partiyalar haqida ma'lumot berish maqsadga muvofiq. Milliy mustaqillik davrida tashkil topgan siyosiy partiyalardan biri, bu - O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidir. Partiyaga uning 1991 yilning 1 noyabrida bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida asos solingan. Faoliyat maqsadiga, doirasiga ko'ra, XDP asosan ishchilar, hunarmandlar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lsa ham, jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari uning a'zolari tarkibini tashkil etadi.

O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi 1995 yilning 18 fevralida bo'lib o'tgan ta'sis qurultoyida tashkil etilgan. Partiya o'z maqsadini jamiyatda adolatni ta'minlashga xizmat qilishdan iborat, deb belgilagan. Zero, «adolat» tamoyili barcha tarixiy davrlarda, barcha davlatlarda muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib, uning qonuniy asoslarini yaratish va adolatli qonunlar doirasida yashash, mehnat qilish insonlarning azaliy orzu-umidlari bo'lib kelgan.

O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining tarkibi asosan ziyolilar, o'qituvchilardan iborat bo'lib, 1995 yilning 3 iyunidagi ta'sis qurultoyida tashkil topgan. Uning a'zolari milliy taraqqiyotga yurtdoshlarimizda Vatanga sadoqat, millatparvarlik kabi fazilatlarni tarbiyalash orqali o'z hissalarini qo'shishni maqsad qilganlar.

«Fidokorlar» milliy demokratik partiyasi 1999 yil iyun oyidagi ta'sis qurultoyida tashkil topgan bo'lib, u o'z safida mamlakat fuqarolarini, millatning fidoyi insonlarni Vatan ravnaqi manfaatlari asosida birlashtirishni maqsad qilgan. Ayniqsa, yoshlarda Vatanga sadoqat va fidoyilikni kuchaytirish orqali milliy davlatchilikni rivoj toptirish bu partiyaning bosh maqsadlaridan biridir.

O'zbekistonning ichki siyosiy munosabatlari maydonida eng yosh partiya, lekin 2004 yilgi parlament saylovida saylovchilarning eng ko'p ovozini olishga muvaffaq bo'lgan O'zbekiston «Liberal-demokratik partiyasi» 2003 yil 15 noyabrdagi ta'sis qurultoyida tashkil topgan. A'zolarining aksariyat qismini tadbirkorlar va ishbilarmonlar tashkil etgan bu partiyaning asosiy maqsadi – partiya a'zolarining huquq va manfaatlarini qonun darajasida himoya qilish orqali davlatning iqtisodiy jihatdan yuksalishiga erishishdir.

O'zbekiston XDPning markaziy matbuot nashrlari bo'lib "O'zbekiston ovozi", "Golos O'zbekistana" gazetalari, "Muloqot" jurnali chop etiladi. "Adolat" SDPning matbuot nashri "Adolat" ijtimoiy-siyosiy haftalik gazetasidir. MTDPning matbuot nashri "Milliy tiklanish" haftalik gazetasidir. "Fidokorlar" MDPning "Fidokor» nomli ijtimoiy-siyosiy gazetasi haftada ikki marta chop etiladi. O'zLiDeP «XXI asr» nomi ostida haftalik ijtimoiy-siyosiy gazetasini chop etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mavjud har bir siyosiy partiyaning o'z ommaviy axborot vositalari, maxsus nashri mavjudligi, ularning ijtimoiy qiyofasini, amaliy faoliyat doirasini keng xalq ommasiga ko'rsatishga va baholashga xizmat qiladi. «Ko'ppartiyaviylik, avvalo, jamiyatimizda o'z manfaat va qarashlariga ega bo'lgan har qaysi ijtimoiy qatlam va guruhning maqsad va intilishlarini to'liq aks ettirish uchun kerak».¹⁴ Bundan tashqari, partiyalarning ommaviy axborot vositalari keng xalq ommasi o'rtasida o'z tarafdorlari bilan doimiy muloqotini ta'minlash imkoniyati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning faoliyat ko'rsatishi uchun ijtimoiy-siyosiy muhit ham, qonuniy-huquqiy asoslar ham, etarli darajada ta'minlangan. Hatto, davlat, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan, ularning faoliyatini amalga oshirishi uchun moliyaviy jihatdan zamin yaratilib, rag'batlantirilishi uchun qonuniy asoslar mavjud. Bu esa, o'z navbatida, ularning xalq o'rtasidagi faoliyatini tobora faollashtirishga moliyaviy imkoniyat yaratadi. Bunga misol sifatida 2004 yilgi parlament saylovlarida partiyalarning kurashchan ruhda, maqsad va vazifalarini umuman jamiyatimiz rivoji, undagi kechayotgan islohotlar bilan bog'lab qatnashganlarini ko'rsatish mumkin. Bu siyosiy jarayonda partiyalarning bir-birlaridan ajralib turuvchi tomonlari ham yaqqolroq ko'rinib, partiya fraktsiyalarining parlamentdagi faoliyatida ham ko'zga tashlanmoqda. «SHu bilan birga, siyosiy partiyalar xalqni, millatni qadim-qadimdan birlashtirib kelayotgan mushtarak g'oyalar ham borligini doimo esda tutishi zarur. SHu bois ular o'z manfaatlarini himoya qilishda bir-biriga raqib yoki muxolifat bo'lishi mumkin, lekin yagona Vatan, yagona xalq manfaatlari haqida gap ketganda hammasi bir musht bo'lib birlashishi darkor. Bugungi kunda bizning yurtimizda milliy istiqlol g'oyasi ana shunday birlashtiruvchi kuch bo'lib hisoblanadi».¹⁵

Xulosa qilib aytganda, **birinchidan**, davlat va jamiyat qurilishining erkinlashuvi hamda demokratiyalashuvini ko'rsatuvchi mezonlar tizimida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi siyosiy partiyalarning vujudga kelishi hamda faoliyat ko'rsatishiga imkoniyat yaratish

¹⁴ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократиялаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислох этишдир. -Т.:Ўзбекистон, 2005. –Б. 12.

¹⁵ Каримов И.А. Ўша асар. –Б. 14.

mavjud siyosiy tizimning rivojlanish darajasini ko'rsatadi. Zero, «Har qaysi siyosiy partiyaning jamiyatimizdagi kuchi ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda taklif etgan va amalga oshirayotgan dasturlarining ta'siri va ularni qo'llab-quvvatlayotgan tarafdorlari soni bilan o'lchanadi.

Binobarin, partiyalar o'zining ijtimoiy-siyosiy faoliyatini aholi orasida qancha jonlantirib, kengaytirib borsa, xalqimiz va saylovchilarimizning siyosiy ongi va faolligi shuncha yuksalib, ularning islohot va o'zgarishlarga o'tkazadigan ta'siri tobora ortib boraveradi».¹⁶ **Ikkinchidan**, jamiyat a'zolarining siyosiy partiyalarga manfaatli munosabatlarini shakllantirish va ularning faoliyatlarida ishtirokini ta'minlash: bir tomondan, davlat va jamiyat qurilishini demokratiyalashtirishda siyosiy partiyalarga bo'lgan ehtiyoji hamda uni qondirish imkoniyatlariga, ikkinchi tomondan, mamlakat ichki va tashqi siyosatida partiyalarning mavqeiga, dasturlarida belgilangan strategik va taktik vazifalarining hayotiylikiga bog'liqdir. «Bu yo'l demokratiya va erkinlikning umume'tirof etilgan va asosiy printsiplariga tayanadi. Ayni paytda, mamlakatimizning tarixiy, milliy va diniy xususiyatlariga va xalqimizning dunyoqarashiga asoslanadi».¹⁷

Uchinchidan, O'zbekiston mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash va milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda o'z maqsad-intilishlari bilan xalqqa yaqin bo'lgan siyosiy partiyalar faolligini oshirish g'oyat muhim ahamiyatga ega. «Odamlarning faolligini oshirish yo'li esa, o'z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar, turli manfaatlarni ifoda etadigan siyosiy partiyalar faolligini oshirish bilan chambarchas bog'liq ekanini hayotning o'zi tasdiqlamaqda»¹⁸. Binobarin, bugungi kunda biz barpo etayotgan davlat va jamiyat taraqqiyotining mohiyatini, uning bugungi va kelgusi rivojlanish bosqichlarini xalqqa tushuntirib borish siyosiy partiyalar faoliyatining muhim yo'nalishi bo'lishi darkor.

XX asr boshida o'zbek adabiyotida dramaturgiya janri hali shakllanmagan edi, demak milliy teatr san'ati to'g'risida so'z ham yuritish mumkin emas edi. Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat singari ma'rifatparvarlarning sa'y-harakatlari tufayli dramaturgiya shakllana boshladi va keyinroq teatr san'ati vujudga keldi. O'sha paytlarda teatr san'atini o'zbek millati uchun 6t, begona g'oya deb e'lon qilganlar oz emas edi. Dramaturgiya va teatrnı rad qilish faqat dahanaki tanqid bilan chegaralanmagan edi. San'atning bu turlarini O'zbekistonga olib kirishga harakat qilayotgan insonlarni mazax qilish, masharalash, hatto sazoyi qilish o'zlarini milliy ma'naviyat himoyachilari, deyuvchilar tomonidan amalga oshirilgan edi. Hamma narsa uchun oliy hakam hisoblanadigan vaqt esa, teatr san'ati milliy ruhiyatimiz va ma'naviyatimizga yot, deyuvchilarning o'zlari milliy ma'naviyat rivojiga g'ov ekanini ko'rsatdi. Hozirgi kuqtsa har million kishiga xlsoblaganda teatrlar soni bo'yicha O'zbekiston

¹⁶ Каримов И. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 14 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги «Инсон манфаатларини таъминлаш, ижтимоий ҳимоя тизимини такомиллаштириш-устувор вазирамиз» маърузаси. FF «Тошкент оқшоми», 2006 йил 8 декабр. № 240.

¹⁷ Ўша манба.

¹⁸ Ўша манба.

dunyodagi eng ilg'or o'rinlardan birini egallaydi va teatr milliy ma'naviyatimizning uzviy qismiga aylangan.

Milliy kiyimlar ham milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. XX asr davomida ana shu qadriyatimizning tadrijini kuzatsak, g'aroyib hodisalarning guvohi bo'lamiz. O'tgan asr boshlarida mahalliy erkaklarning qishki kiyimi telpak, paxtalik chopon, paxtalik shim va etikdan iborat edi. YOzgi kiyim esa do'ppi, ko'ylak yoki yaktak, oq lozim va shippak yoki kafshdan iborat edi.

O'sha paytlarda Ovrupocha kiyim kiyish, galstuk taqish yoki kostyum va shlyapa kiyish u yoqda tursin, milliy kiyimga ozroq bo'lsa ham o'zgarish kiritishga urinish din peshvolari va milliy o'zlik "himoyachi" lari tomonidan milliy ma'naviyatga taxdid sifatida baholanar edi. Masalan, an'anaviy tarzda tugma qadalmaydigan yaktakka tugma qadash 1918 yil fevral oyida Buxoro muftiysi tomonidan kofirlarning ishi deb e'lon qilindi. O'sha paytlarda endigina rivojlanib kelayotgan vaktli matbuot, ya'ni gazeta va jurnallarni o'qish ham kufr deb e'lon qilindi. XX asr oxiriga kelib esa milliy o'zlikka taxdid, deb e'lon qilingan o'sha gazeta va jurnallar milliy o'zlikni himoya qiluvchi vositalardan biriga aylandi. Erkaklarning kiyimlari ham bir asr davomida mutlaqo o'zgarib ketdi.

Ayollarning kiyimlari ham bir asr davomida jiddiy o'zgarishlarga uchradi. U paytda ayollar libosi keng va uzun ko'ylak, kamzul va kafsh-maxsidan iborat edi. Ananaga ko'ra, ayollar ko'ylagi badanning past-baland joylarini bilintirmaydigan darajada keng bo'lishi, englari esa bilaklarni to'la yopib turishi lozim edi. Abllarning shunday kiyimlari 30-yillargacha moda bo'lib keldi. O'sha paytlarda biror kishi yana 30-40-yillardan keyin o'zbek ayollari tor ko'ylak va yubka, shim kiyib yurishadi, desa boshqalar uni aqldan ozganga chiqarib qo'yishi hech gap emas edi. Oradan 40-50 yil o'tar-o'tmas ayollar shunchaki tor ko'ylak va shim emas, mini yubka, juda tor shimlar kiya boshlashdi. Endi kiyim ularning badanidagi past-baland joylarni yashirishga emas, bo'rtib turgan joylarni yana ham bo'rttiribroq ko'rsatishga xyumat qila boshladi. Asr boshida abllar badanining 5-6 foiz qismi ochiq yurgan bo'lsa, asr oxiriga kelib yoz paytlarida ayollar badanining 50-60 foyu qismi ochiq yuradigan bo'ldi. XX asrning so'nggi choragqtsa ayollar asr boshidagi ayollar liboslarini kinofilm va fotosuratlarda ko'rib ajablanishadi, xolos. Bularning bari hozirgi til bilan aytganda, globallashuv, aniqrog'i ma'naviyatdagi globallashuv natijasi edi.

Ko'rib o'tgan misollarimizda erkak va ayollar liboslaridagi o'zgarishlar yuz bergan har bir bosqichda avvalti bosqich liboslarini himoya qiluvchi, yangiliklarni esa G'arbdan kelayotgan ma'naviy tahdid, deb baholovchilar ham anchagina bo'lgan. Mana shu misollar globallashuv jarayonnda chetdan kirib kelayotgan hodisalarning qaysi biri ma'naviyatga taxdidu, qaysi biri habtbaxsh ekanini aniqlab olish qiyin ekanini ko'rsatadi. SHuning uchun chstdan kelabtgan har qanday g'oyani yot va vayronkor, deb e'lon qilshtsdan avval milliy manfaatlar yo'lida foydalanish mumkin yoki mumkin emasligi to'g'risida obdon o'ylash lozim.

Sport sohasidagi atamalarni globallashuv jarayoniga ham tadbiq qiladigan bo'lsak, vayronkor g'oyalardan himoyalaniishning eng samarali yo'li ularga qarshi hujumga o'tishdir. YA'ni, biz yot g'oyalardan himoyalaniish bilangina shug'ullanmay, o'z g'oyalarimiz, an'analarimiz, turmush tarzimizni dunyga yoyish

uchun harakat ham qilishimiz zarur. Hozircha biz ma'naviyat sohasida ko'proq himoya bilan bandmiz.

Tariximiz ilm-fan, din, san'at sohasida yurtimizda etishib chiqqan allomalar butun dunyoga dong tarattanidan guvoxlik beradi. Abu Nasr Forobiy jahon falsafasi rivojiga sezilardi hissa qo'shgan bo'lsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamaxshariy, Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek singari allomalarimiz jahon fanini yangi pog'onalarga ko'tarishdi. Ismoil Buxoriy, at Termiziy, Moturidiy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Axmad YAssaviylar esa, hadis, kalom, fikh ilmlari va tasavvufda porloq yulduzlar hisoblanishadi. Amir Temur va Mirzo Boburning harbiy san'ati naqadar yuksakligini butun jahon e'tirof etadi.

SHo'rolar davrida milliy qadriyatlarimizni dunyoga yoyish uyoqda tursin o'z yurtimizda qadrlash uchun ham yo'l berilmadi, ko'pchilik qadriyatlarimiz esa toptaldi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'sha xo'rlangan qadriyatlarimizni tiklash imkoniga ega bo'ldik. Bundan tashqari. qadriyatlarimizni targ'ib qilish imkoniga ham ega bo'ldik. O'zbek milliy kurashini dunyoga yoyish bo'yicha qilingan ishlar, dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida o'zbek kurashi federatsiyalarining tuzilishi buning yaqqol misoli. SHuni e'tirof etash lozimki, o'zbek kurashini dunyoga yoyish bo'yicha ishlarning tashabbuskori va tashkilotchisi Prezident I. Karimov bo'ldi. Demak, biz globallashuv jarayonida passiv qabul qiluvchi tomongina bo'lmay, faol targ'ib qiluvchilarga ham aylanishimiz mumkin ekan.

Tarixga nazar tashlasak, fan va madaniyatimiz, milliy ma'naviyatimizning gurkirab o'sishi bilan birga tushkunlik davrlari ham bo'lganini ko'ramiz. Masalan, Mirzo Boburdan keyin XX asrgacha yurtimizda dunyoni lol qoldiradigan na sarkarda, na alloma, na shoiru fuzalo etishib chikdi. SHu davrda Boborahim Mashrab va Ogahiy singari bir necha shoirlarning etishib chiqishini esa bu davr uchun qonuniyat emas, baxtli tasodif, deb baholamoq zarur.

Tariximizning so'nggi besh yuz yilida avvalgi besh yuz yillikdagi singari yuzlab allomalar, shoirlar, lashkarboshilar etishib chiqmsh aniiimg sababi nimada, degan savolning tugilishi tabiiy. Buning qator sabablari bor. Ular orasida xalq ruxiyati bilan, harbiy vaziyat va iqtisodiyot bilan bog'liqlari ham mavjud. Iqtisodiy sabablardan eng muhimi bizningcha shundaki, XV asr oxirida qilingan Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Buyuk Ipak yo'li o'z ahamiyatini yo'qota boshlagani, hududimiz savdo yo'llaridan chetda qolgani ana shunday iqtisodiy va ma'naviy tushkunlikka olib keldi. Bundan chiqarshpimiz lozim bo'lgan eng muhim xulosa shundaki, globallashuv jarayonidan chetda qolganimiz bizning milliy ma'naviyatimizga, ruxdyatimizga ijobiy emas, salbiy ta'sir o'tkazdi. Demak, biz globallashuv jarayonida oqilona yo'l tutsak, ham inqilooiy, ham ma'naviy ravnaqqa erishishimiz mumkin ekan. Oqilona yo'l esa globallashuvni to'la inkor qilish yoki chapak chalib kutib olishda emas, kerak bo'lganda uning yo'nalishiga moslashishda, tegishli paytda uni o'zimizga moslashtirishda. Buning uchun esa uni muttasil kuzatib borshp va taxlil qilish lozim.

Milliy ma'naviyatimizni va ma'naviy o'zligimizni taxdidlardan himoya qilish uchun milliy istiqlol g'oyasidan samaraliroq va kuchliroq vosita yo'q. SHu

masalada milliy istiqlol g'oyasining juda muhim funksiyasi, ya'ni milliy va ma'naviy o'zlikni himoyalash kabi muhim funksiyasi namoyon bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasi ana shu funktsiyani bajarishi uchun esa yoshlar va aholi ongqda faqat bilim, tasavvur sifatida emas, e'tiqod sifatida shakllanishi lozim.

Milliy istiqlol g'oyasining shakllantirilishi va uning o'quvchilar, talabalar, keng aholi tomonidan o'rganishga kirishilishi mamlakatimiz ma'naviy taraqqibtida alohida bosqichni tashkil qiladi. Aslida milliy istiklol g'oyasining asoslari Prezident I.Karimov tomonidan istiqlolning dastlabki bosqichlaridayoq shakllantirilgan edi. Lekin, bu g'oyani yoshlar va aholi ongiga singdirish uchun muayyan poydevor kerak edi. YA'ni, avvalo milliy qadriyatlarni, milliy ma'naviyatni tiklash, milliy g'ururni uyg'otish, bir so'z bilan aytganda, milliy istiqlol g'oyasi tomir otishi va gurkirab rivojlanishi uchun zamin tayyorlash lozim edi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan buyon o'ttan davr ichida ma'naviyat sohasida ujan nazariy, ma'rifiy va amaliy ishlar bajarildi. Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari tuzildi, yuzlab maqola va risolalar nashr etildi, tadqiqotlar o'tkazildi, bir so'z bilan aytganda, milliy istiqlol g'oyasini keng targ'ib qilish uchun zamin yaratiddi.

Milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishda bshningcha ba'zan birtomonlamalikka yo'l ko'yilmokda. Bu g'oyani targ'ib qilishda ishtirok etayotgan murabbiy va o'qituvchilar, tadqiqotchilarning chiqishlarida, maqola va risolalarida ma'rifatchilik bilan cheklanish ko'zga tashlanmoqda, Holbuki, ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy yondashuv ma'rifiy yondashuv bo'lsa ham milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishda bu yondashuv bilan cheklanib bo'lmaydi. Bu xol milliy istiqlol g'oyasining xususiyatlari bilan bog'liq.

Milliy g'oya jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko'ndalang qo'yayotgan masalalarni xal qilishga, chetdan bo'layotgan g'oyaviy, ma'naviy taxdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Uning mohiyati shundaki, u odamlar ongidagi, xotirasidagi g'oyaligicha qolmay amaliyotga, hayotga aylangan taqdirdagina haqiqiy milliy va haqiqiy istiqpol g'oyasi bo'lishi mumkin. SHundagina u milliy ma'naviyatni va ma'naviy o'zlikni tashqi mafkuraviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi.

Milliy istiqlol g'oyasining hayotimiz jarabniga singib ketishini ta'minlash uchun esa, g'oyalar amaliy harakatlarga aylanishi jarayonini sinchiklab o'rganishi kerak. Buning uchun dastavval, g'oya bevosita amaliyotga, amalibt dasturiga aylanishi mumkinmi? Agar mumkin bo'lsa, bu jarayon qanday yuz beradi, degan savollarga javob topish kerak.

Zamonaviy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqqai nazaridan bu savolga "ko'pincha aylanmaydi" deb javob berish kerak. CHunki inson ongida, miyasida o'nlab, yuzlab va xatto minglab g'oyalar bo'ladi. Ularning barchasi amaliyotga aylanaversa inson ham ma'nan, ham jismonan mayda bo'laklarga bo'linib, parchalanib ketidsh kerak edi. CHunki, ayni bir inson ongida ayni bir paytning o'zida o'nlab turli xil, jumladan, diniy, axdoqiy, siyosiy, ilmiy, badiiy va boshqa xil goyalar bo'lishi tabiiy. Ular bir-birlarini to'lg'azishi va ko'pincha bir-birlariga to'la mos kelmasligi mumkin. Natijada, shaxs bu goyalardan eig zarurlarini va o'zi eng to'g'ri, deb bilganlarini ajratib hayotga tadbiq

qiladi. Ana shu tanlash, ya'ni goyaning amaliyotga o'tishidagi muxdm bosqichni to'laroq va chuqurroq anglash uchun shu tanlash mezonlarini aniqlab olish zarur.

G'oyalarni saralashda shaxs foydalanadigan mezonlarning eng muhimlaridan biri, saralab olinayotgan g'oyaning shaxs manfaatlariga, ehtiyojlariga, ustanovkalariga, e'tiqodiga mosligidir. Bu hodisalar, ya'ni manfaatlar, ehtiyojlar, ustanovkalar, e'tiqodlar va ularning g'oyalar bilan o'zaro aloqadorligi shu qadar murakkabki, uni bir emas bir necha maqola doirasida ham yoritish amri mahol. Buning ustiga bu muammo jahon fanida ham kam o'rganilgan. Mamlakatimiz psixolog olimlari bu muammo ustida endi bosh qotira boshladilar.

Muammoning murakkabligini hisyubga olib biz uning faqat bir jihati ya'ni g'oyalar va e'tiqod aloqadorligi to'g'risida fikr yuritmoqchimiz.

E'tiqod shaxs ongida shunday muhim o'rin tutadiki, uning hayot yo'nalishi, hayot tarzi, intilishlari mana shu e'tiqod bilan belgilanadi.

Inson ongiga yo'l topayotgan, kirib borayotgan g'oyalar ham mana shu e'tiqod chig'irig'idan o'tkaziladi. E'tiqodga mos kelmaydigan g'oyalar rad etiladi.

Lekin, g'oya va e'tiqod aloqadorligi faqat bir tomonlama jarayon emas. Ularning aloqadorligi faqatgina e'tiqodning nazoratchiligi, g'oyalarni elaqtan o'tkazishi bilan cheklanmaydi. SHunday holatlar ham bo'ladiki, inson ongiga kirib kelayotgan g'oya undagi e'tiqodni mustaxdsamlaydi yoki bo'shashtiradi, ba'zan esa shu g'oyaning o'zi e'tiqodga aylanadi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgach, mamlakatimizda keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar boshlandi. Bu islohotlar jarayonida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususilashtirish, ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish singari ko'plab tadbirlarni amalga oshirishga kirishildi.

Islohot ijtimoiy ruhiyat sohasida ham amalga oshirila boshladi. Bu sohadagi eng muqim vazifa odamlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish edi. Buning uchun esa ularni sobiq sho'rolar tuzumi qoliplaridan, boqimandalik, o'zibo'larchilik kayfiyatidan xalos qilish kerak edi. Bu yo'nalishda muayyan ishlar amalga oshirildi. Biroq bu jarayon mamlakatimizda milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari shakllanishi bilan o'zining yakunlovchi pallasiga kirdi. CHunki Prezident I. Karimov ko'p marta ta'kqdlaganidek, tabiatda bo'lmagani singari inson ongida ham mutlaq bo'shliq bo'lmaydi. Sobiq totalitar tuzum sarqitlarini inson ongidan supurib tashlash uchun kuchli qurol kerak. Bunday qurol vazifasini faqat milliy istiqlol g'oyasi bajarishi mumkin. CHunki, hayotbaxsh g'oya bilan qurollanmay turib eski g'oyalar ta'siridan to'la qutilish mumkin emas. SHunisi ham borki, milliy istiqlol g'oyasidan jamiyat a'zolarining ko'pchiligi xabardor bo'lishi eski tuzum sarqitlarini supurib tashlash uchun kifoya qilmaydi. Milliy istiqlol g'oyasi e'tiqodga aylangandagina eskilik sarqitlarini supurib tashlashi mumkin.

G'oyaning e'tiqodga aylanishi uning amaliyotga o'tishidagi muhim bosqichdir. SHaxs e'tiqodga aylangan goyani ro'yobga chiqarish uchun harakat qila boshlaydi. E'tiqod qanchalik kuchli bo'lsa, uni amalga oshirish uchun shaxs shunchalik ehtiros bilan harakat qiladi. Kuchli e'tiqod yo'lida shaxs bilimini, kuchini, boyliklarini, hatto hayotini ham ayamaydi. Tarixdan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. AQSH Prezidentlaridan biri T. Jefferson "Ozodlik

shunday daraxtki, u ba`zan odam qoni bilan sug`orib turishlarini talab qiladi", deganda xuddi shunday e`tiqodli odamlarni, ozodlikni himoya qilish yo`lida ular o`z joiidai kechishga ham tayyor turishlarini nazarda tutgan edi. YUrtimiz tarixida ozodlik daraxti o`z qoni bilan sugorgan yoki sug`orishga tayyor turgan qahramonlar ko`p bo`lgan. O`gizxon, SHiroq, To`maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari shaxslar shular jumlasidandir. Ular ozodlik, yurt mustaqilligi yo`lida butun kuch-gayratlarini, zarur bo`lganda jonlarini ham ayamadilar.

Mustaqillikni ham ozodlikka o`xshatish mumkin. Ular - egizak. Mustaqillik ham ozodlik bo`lmaydi va aksincha-ozodliksiz mustaqillikka erishib bo`lmaydi. Mustaqillik daraxti ham ba`zan odam qoni bilan sugorishlarini talab qiladi. Uni himoya qilish uchun jon fido qilishga tayyor o`g`lonlar bo`lmasa u qurib qoladi. Lekin, u faqat odam qoni bilai ko`kara olmaydi. Mustaqillik daraxti gullab-yashnashi uchun faqat qon emas, uning poyiga ko`prok ter to`kish kerak. Vatan o`g`il-qizlari qanchalik ko`p mehnat qilib ter to`ksalar, mustaqillik daraxti, uning ildizlari, ildizlari orasidagi o`qtomir-milliy istiqol g`oyasi shunchalik barq urib rivojlanadi. Bayon qilinganlardan ma`lum bo`ladiki, milliy istikdol g`oyasini targ`ib qilishda, uni yoshlar va aholi ongiga sindirishda ma`rifiy yo`l bilan cheklanib bo`lmaydi. Bu yo`lni to`la inkor qilib bo`lmaydi, u ham zarur. Lekin faqat uning o`zi bilan qanoatlanilsa, nari borganda istiqol g`oyasini izoxdab, tushuntarib berish mumkin, izoxlash va tushuntarish yo`li bilan esa odamlarning faqat fikriga, xotirasiga ta`sir o`tkazsa bo`ladi. Milliy istiqol g`oyasini yaxshi tushunib`olgan talaba yoki o`quvchi imtihonda "a`lo" yoki "yaxshi" baho olishi mumkin, lekin unda bu g`oyaga e`tiqod shakllanmagan bo`lsa bu bilimni u tezda unutadi. E`tiqod shakllanshpi uchun faqat bilimning o`zi kifoya qilmaydi. E`tiqod, xususan g`oyaviy e`tiqod bilim va his-tuyg`uning farzandidir. G`oyaviy e`tiqodning otasi bilim bo`lsa, onasi his-tuyg`udir. Ulardan biri bo`lmasa g`oyaviy e`tiqod ham bo`lmaydi. SHu xususiyati bilan g`oyaviy e`tiqod e`tiqodning boshqa turlaridan, aytaylik diniy e`tiqoddan farq qiladi. Diniy e`tiqod shakllanishi uchun din arkonlari to`g`risida chuqur bilim bo`lishi shart emas. Dindorlarning ko`pchiligida ana shunday chuqur diniy bilim yo`q, lekin ularning talay qismidagi e`tiqod bilimdon ulamlarning e`tiqodidan kuchliroq bo`lishi mumkin. Buning sababi shundaki, diniy e`tiqod bilimni inkor qilmaydi, lekin unda extiros ustivorlik qiladi. Din bo`yicha juda ko`p bilimga ega bo`lgan odamning e`tiqodi sust va buning aksicha, oz bilimga ega bo`lgan odam kuchliroq e`tiqodga ega bo`lipsh mumkin.

Ilmiga amal qilmagan mulladan beshak,

Afzaldir ustiga kitob ortilgan eshak,

deganda SHayx Sa`diy bilimdon, lekin e`tiqodsiz mullalarni nazarda tutgan edi.

Milliy istiqol g`oyasini targ`ib qilishda ham bizning nazarimizda talaba va o`quvchilarga bilim berishga ko`proq harakat qilinib, e`tiqod shakllantirish vazifasi soyada qolmoqda. Xuddi shunday holatni milliy istiqol g`oyasiga bag`shplangan ilmiy risolalar, maqolalar, darslik va o`quv qo`llanmalaridagi ma`rifiy yondashuv bilan cheklanishda ham kuzatish mumkin. Milliy istiqol g`oyasi fanini o`qitishda z`tiqodni shakllantirish masalalariga bagishlangan risola u yokda tursin, kichikroq

maqolani qam topish amri mahol. Ahvol shu taxlitda davom etsa e'tiqodsiz bilimdonlar ko'payib ketishi mumkin. Bilim bo'lgani bilan e'tiqodsiz odamlar bu bilimga amal qilmaydilar va ularning SHayx Sa'diy ta'riflagan ustiga kitob ortilgan maxlukdan farqi kam qoladi.

Milliy istiqlol g'oyasi e'tiqodga aylangandagina mukammallik kasb etadi. Milliy istiqlol g'oyasining haqiqatan ham millat, xalq miqyosidagi g'oya ekanligini ko'rsatuvchi muhim bir mezon bor: bu uning har bir fuqaro shaxsiy etiqodiga aylanganligidadir. Bu g'oyaning ko'pchilik fuqarolar e'tiqodiga aylangandagina uning haqiqatan ham *milliy* g'oya ekanini tasdiqlaydi. Milliy istiqlol g'oyasi va alohida fuqaroning g'oyaviy e'tiqodi o'rtasidagi bog'liqlik shundaki, shaxs e'tiqodi milliy goya negizida shakllanadi va milliy g'oya o'z navbatida alohida shaxslar e'tiqodidan quvvat oladi, alohida shaxslar e'tiqodi sifatida mavjud bo'ladi.

Milliy istiqlol g'oyasining mohiyatiga monand tarzda uni yoshlar va axoli ongiga singdirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ma'rifiylik bilan cheklanmay e'tiqod shakllantirishga yo'naltirilsa ko'ngildagiday bo'lardi. Buning uchun esa e'tiqodning o'ziga xos xususiyatlari, uning shakllanishidagi bosqichlar, murakkabliklar, nozikliklarni doimo yodda tutish zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.I.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va isloh etishdir. "Xalq so'zi" gazetasi, 2005 yil, 29 yanvar.

2. I. Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5-jild. Toshkent, 1997 yil, 149-bet.

3. I. Karimov. Demokratik o'zgarishlar — jamiyatimiz yangilanishi asosi. Diplomatiya kormusi rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda so'zlangan nutq. 1996 yil 27 dekabr.//Yangicha fikrlash va ishlash talabi.-T.: "O'zbekiston", 1997 yil, 290-bet.

davr

4. I. Karimov. ^aonunlarimiz xalq manfaatlariga xizmat qilsin.// I.Karimov. yangicha fikrlash va ishlash — davrtalabi. 5-jild.. -T: "O'zbekiston", 1997 yil, 283-bet.

5. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.// I. Karimov. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida.-T.: "O'zbekiston", 1998 yil, 208-bet.

6. I.Karimov. Xotin-qizlar faolligini oshirish — davr talabi.// I.Karimov. Tinchlik va havfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.-T.: "O'zbekiston", 2004 yil, 350-bet

7. I.Karimov. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar ijtimoiy qatlami O'zbekiston siyosiy maydonida o'z o'rnini egallashi lozimU/I.Karimov. Tinchlik va havfsizligimiz o'ch kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.-T.: "O'zbekiston", 2004 yil, 21-bet.

« *

8. Islom Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. "Uzbekiston", Toshkent, 1998 yil, 328-bet.

9. I.Karimov. Uzbekiston suzib yuradigan muztog' emas. "Izvestiya muxbirlari bilan suhbat".// I.Karimov. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Toshkent, "O'zbekiston" 1998 yil, 389-bet.
10. I.Karimov. Vatan sajdagohkabi muqaddasdir. Toshkent, 1996, 72-bet.
11. I.Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5-jild. .-Toshkent, "O'zbekiston", 1997yil. 113-bet
12. I.Karimov. Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti davlatlari rahbarlarining oliy darajadagi ikkinchi uchrashuvida so'zlangan nutq. 1993 yil, iyul./I.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlo, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. 264-265-betlar.-T.: "O'zbekiston", 1996 yil.
13. I. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.-Toshkent. "Uzbekiston" nashriyoti. 1997 yil.
14. I. Karimov.. Inson, uning huquq va erkinliklari — oliy qadriyat. O'zbekiston Konstitutsiyasi 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali majlisda so'zlangan nutq. Xalq so'zi gazetasi, 2006 yil 8 dekabr.
15. A. Begmatov. Ma'naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi T.: "SHarq", 2000.
16. Zapasnik M. Loj v politike//Filosofskie nauki. 1991. №8, str.98.
17. "Polis" jurnali, Moskva, 1994 yil, 1-son, 42-bet.
18. P.s.s. T.41.S.399.
19. MasMaueSH N. Orege ZsoIe, 1973, R.8.

Tayanch tushunchalar: siyosiy tizim, siyosiy partiya, siyosiy harakat, muxolifat, siyosiy munosabatlar, siyosiy g'oyalar, siyosiy maqsadlar, siyosiy manfaatlar, ijtimoiy harakat, g'oyaviy-siyosiy qarashlar, siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi, siyosiy munosabatlarning qonuniy-huquqiy asoslari.

Nazorat savollari

1. Siyosiy partiyalar vujudga kelishining tarixiy zaruriyati nimada?
2. Siyosiy partiyalarning g'oyaviy-mafkuraviy faoliyatini tushuntiring.
3. Jamiyatni demokratiyalashda siyosiy partiyalar qanday rol o'ynaydi?
4. Mamlakatni modernizatsiyalashning mohiyatini tushuntiring.
5. Siyosiy partiyalar faoliyatining qonuniy-huquqiy asoslarini tavsiflang.
6. Umumxalq manfaatlari siyosiy partiyalar faoliyatida qanday namoyon bo'ladi?
7. Milliy taraqqiyotning g'oyaviy-mafkuraviy asoslarini mustahkamlashda siyosiy partiyalar qanday o'rin tutadi?
8. Milliy g'oya va mafkurada siyosiy manfaatlarni muvofiqlashtirish imkoniyatlarini ko'rsatib bering.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston respublikasining Siyosiy partiyalar to'g'risidagi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997.
2. Karimov I.A. Inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish - ustuvor vazifamiz. / «Toshkent oqshomi», 2006 yil 8 dekabr.
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. - T.:O'zbekiston, 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharx. // SH.O'razaev taxriri ostida. — T.:O'zbekiston. 1995.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharx, // SH.O'razaev tahriri ostida. —T.:O'zbekiston. 2001.
6. «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun va «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga) tuzatishlar kiritish to'g'risida»gi Qonun loyihalariga SHarhlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nomiga yo'llagan xatidagi printsiplial mezonlar). / Xalq so'zi. 2006 yil, 9 noyabr.
7. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. —T.:«SHarq». 1998.
8. O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh qilish yo'lida. T.: 2005.

Tayanch iboralar:

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi, targ'ibot-tashviqot ishlari, tizim yangiliklari, axborot asri, demokratik jamiyat, dinlararo bag'rikenglik g'oyasi, erkin matbuot, missionerlik faoliyati, Xalq, Vatan va Davlat tushunchalari.

Nazorat savollari.

1. Milliy g'oya targ'ibotidan qanday maqsadlar ko'zlanadi?
2. Milliy taraqqiyotda milliy g'oyaning vazifalari nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida”gi PQ-451-sonli qarori qanday ahamiyatga ega?

4- mavzu: Geosiyosiy jarayonlar: mohiyat va maqsadlar

Reja:

1. “Geosiyosat” tushunchasi. Geosiyosatning mohiyati to’g’risidagi qarashlarning sifatiy xilma-xilligi va evolyutsiyasi.
2. *Hozirgi davr geosiyosiy maqsadlar va mafkuraviy siyosat.*
3. *Jahonni mafkuraviy bo’lib olishga intilishlar.*

Mazkur mavzu uchun Prezidentimizning “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asari asosiy manba bo’lib hisoblanadi.

“Geosiyosat” tushunchasi o’zida “geo” – “yer”, “siyosat” esa “davlat” va “ijtimoiy ish” ma’nolarini anglatadi. “Geosiyosat” atamasida geosiyosiy muddaolar, ularning ko’rinishlari, turli xil davlat va xalqlarning manfaatlari tizimi, unga bo’lgan yondoshuv uslublari, vositalari, u yoki bu davlatning hududiy joylashuvi, salohiyatiga bo’lgan munosabatda ifodalangan maqsadlar o’z ifodasini topadi.

“Geosiyosat” uzoq tarixga ega bo’lsada, u tushuncha sifatida XX asrning boshlarida shakllangan. Bu atama R. Chellen tomonidan muomalaga kiritilgan bo’lib, hozirgi davrda davlatlar va dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, falsafada, siyosat falsafasi va fanlarida keng qo’llanilmoqda. Geosiyosat ko’p qirrali tushuncha sifatida turli manfaatlarni o’zida mujassam etadi.

Hozirgi davrda geosiyosiy maqsadlar ko’proq mafkuraviy siyosat bilan hamohangligini alohida ta’kidlash zarur. Bunda mafkuraviy ta’sir ko’rsatish geosiyosatning eng ta’sirchan vositasi sifatida namoyon bo’lmoqda. Ya’ni turli davlatlarning maqsadlari xalqning turli qatlamlari, xususan yoshlar ongi va qalbiga mafkuraviy ta’sir ko’rsatish orqali, ularning faoliyatini o’z ta’siriga, ya’ni manfaatlariga yo’naltirgan mafkuraviy muhitni yaratishni ko’zlagan holda amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonni to’g’ridan-to’g’ri ko’rish, uning qanday amalga oshirishini aniq bilish qiyin va murakkabdir. Ana shu sababdan ham Prezidentimiz mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda xavfliroq bo’lib qolganligini alohida ta’kidlaganlar.

Yadro poligonlarining qayerda joylashganini, uning quvvatini, qanday maqsadga yo’nalganligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo yovuz, yot mafkuraviy maqsadlarning qayerdan va qanday yo’llar bilan va qaysi insonlar qalbini egallab olayotganini osonlikcha bilib bo’lmaydi.

Bugun “ikki qutbli mafkura” o’rtasidagi kurashga barham berilgan bo’lsada, ammo dunyoda mafkuraviy kurashlar to’xtab qolgani yo’q. aksincha jahon maydonlarini mafkuraviy bo’lib olishga urinishlar turli yo’llar bilan sodir bo’lmoqda. Masalan, O’zbekiston mustaqillikni qo’lga kiritgandan keyin mafkura sohasida hayot osonlikcha kechmadi. Milliy istiqlol g’oyasiga zid bo’lgan yot va begona g’oyalar kirib kelishga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug’ maqsadlarni amalga oshirishga qarama-qarshi qo’yishga urinishlar bo’lganligining guvohimiz. Bunday harakatlarning tarafdorlari o’zlarini “do’st”, “millatdosh”, “vatandosh”, “dindosh” etib ko’rsatish niqobi bilan o’z g’oyalarini amalga oshirishga urindilar. Natijada, haqiqiy qadriyatlarimizga zid bo’lgan turli xil oqimlar aholi, ayniqsa yoshlar ongini egallashga harakat qildi.

Jahon geosiyosatida xalqlarni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va bugungi kunda dunyoni shunday asosda bo'lib olishga urinishlar davom etmoqda. Buning uchun ular hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari, ularning yutuqlaridan hamda turli xil markazlar, ayni paytda o'zaro hamkorlikka yo'naltirilgan ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy vositalardan foydalanish orqali dunyoning turli hududlarida o'zlariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirish maqsadlarini ham ko'zlamodalar.

Ana shunday sharoitda milliy istiqlol g'oyasini chuqur egallash orqaligina bunday mafkuraviy maydonlarda olib borilayotgan kurashlar mohiyatini to'g'ri tushunish va oldini olish mumkin. Mafkuraviy jarayonlar fikr va g'oyalar tizimi sifatida inson ongiga yo'naltirilganligi, o'ziga xos maqsadlari borligi bilan xarakterlanadi. Ular ko'plab odamlar ongi va qalbini egallab olish orqali o'ziga xos ta'sir ko'rsatish maydonini yaratadi. Bu maydon ichida turli xalqlar, insonlar faoliyati mujassamlashadi.

Ma'rifiy rivojlanish va dunyo xalqlari rivoji shuni taqozo etadiki, geosiyosat ham ma'lum bir maqsadlarni ko'zlar ekan, u faqat insoniyat orzu qilib kelgan tinchlik va barqarorlikka, mamlakatlar va xalqlar ravnaqiga, erkin va farovon hayot qurish g'oyasiga mos bo'lishi kerak. U Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, Xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalarini o'zida mujassam etib, hozirgi geosiyosiy maqsadlarning bosh mezoniga aylanib borishi lozim. U nosog'lom mafkura va g'oyalarni boshqa xalqlar ongiga, qalbiga singdirib, mafkuraviy jihatdan dunyoni bo'lib olishga emas, o'zaro manfaatli hamkorlikka, dunyoviy muammolarni o'zaro hamjihatlik bilan hal etishga xizmat etishi kerak. Shu ma'noda geosiyosatga yangicha yondoshuv XXI asrda yangicha ma'no va ahamiyat kasb etadi va dunyo taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish tarixi, ayniqsa har jihatdan bir-biriga bog'liq bo'lib qolgan hozirgi dunyo voqeligi shundan dalolat berib turibdiki, alohida olingan bir davlatdagi hech bir mojaro uzoq vaqt davomida milliy chegaralar doirasida qolib ketmaydi. Bir qancha sabablarga ko'ra bunday mojaro nazorat qilib bo'lmaydigan darajada yoyilib ketishi muqarrar. Bu esa ertami-kechmi qo'shni davlatlar oldiga barcha salbiy oqibatlari bilan bir qator muammolarni ko'ndalang qilib qo'yadi. Hatto mintaqadagi vaziyatni beqarorlashtirish darajasiga borib yetadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mojaroning yashirin va oshkora tarzdagi baynalminallashuvi tanglikni chuqurlashtiradi. Chunki turli maqsadlarni ko'zlaydigan va tanglik mavjud bo'lgan hududda o'z manfaatlarini ta'minlashga intiladigan tashqi kuchlar hamma vaqt shay turadi.

Xullas, bugungi kunda xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish mintaqadagi barcha mamlakatlarning istiqbolini ham bir qadar belgilab beradi. Shuning bilan birga bu – mintaqada yashayotgan xalqlarning azaliy qon-qarindoshligi, hamkorligi va ma'naviy-ruhiy yaqinligini mustahkamlashda ham o'ta muhim ahamiyatga molik masala bo'lib qolaveradi. Xuddi shuningdek, mittaqaqa qarshi qaratilgan mafkuraviy ta'sirlarga qarshi kurashni kuchaytirishda umummintaqaviy birlikni mustahkamlashning ahamiyati ham oshib boraveradi.

Dunyo siyosatida ro'y berayotgan ulkan yangilanishlar ta'sirida olamni tushunish, idrok etish va unga munosabat ham o'zgarganligining guvohi bo'lib turibmiz. Mamlakatimizda ham inson haqidagi tasavvurlar o'zgarib bormoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bugungi kun kishilari kechagi kun odamlaridan tubdan farq qiladi. Milliy ma'naviyat va qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, o'zligimizni anglay boshlaganimiz tufayli bugun har birimizning ongimizda, tafakkur tarzimizda muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Har bir fuqoroning o'ziga, ertangi kunga ishonchi ortib bormoqda.

Taraqqiyot jarayonida ijtimoiy munosabatlar chuqurlashib, davlatimiz murakkab umumbashariy muloqot tizimiga uyg'unlashib borayotgan pallada rahbar kadrlar mas'uliyati kuchayib boradi. Mas'uliyatni his qilish esa, birinchi navbatda, davlat va umummilliy manfaatlar darajasida fikr qilish bilan uzviy bog'liqdir. Ona zaminga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'usi elu yurtga tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday xavf-xatarni yengishning asosiy manbaidir. Shunday ekan, Vatan xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda, uning kuch-qudratini yanada oshirishda inson salohiyati, ya'ni inson omilining o'rni beqiyosdir. Davr inson dunyoqarashi va faoliyatida sifat jihatdan o'zgarish ro'y berishini, o'zligini anglab yetishini taqozo etmoqda. Darhaqiqat, inson aql-idroki, zakovati va salohiyati ijtimoiy taraqqiyot, olam yaxlitligining birdan-bir omiliga aylanishiga ehtiyoj kuchaymoqda. Turli-tuman tahdidlarni bartaraf etish faqat va faqat inson zimmasiga tushmoqda. Shu bois jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan bunyodkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan, hayotimizni obod va farovon bo'lishiga xizmat qiladigan yangi ishlanmalar, taklif va tavsiyalar bugun har qachongidan ham zarurdir.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilligida insoniyat hayotida ro'y bergan muhim o'zgarishlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Birinchidan. Ikki qutbli dunyo, "sovuq urush" muhiti barham topdi va insoniyatning yagona makonda yakdil maqsad sari yashashi uchun imkoniyat paydo bo'ldi.

Ikkinchidan. Dunyo xaritasida asosan, Markaziy Osiyo, Boltiqbo'yi va Sharqiy Yevropa mintaqalari hisobiga yangi milliy davlatlar paydo bo'lib, demokratik rivojlanish yo'liga kirdi.

Uchinchidan. Inson huquqlarini amalda ro'yobga chiqarish, dunyo xalqlarining yagona maqsadi – tinch va farovon hayotini barpo qilish va integratsiyalashish yo'nalishlarida amaliy ishlar boshlandi.

Bu o'zgarishlar jahon taraqqiyotiga oid eski andoza va qoliplarni qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Jahon tarixida iz qoldirgan ko'plab olim va mutaxassislar, siyosatchi va davlat arboblari "taraqqiyot" tushunchasiga oid o'z qarashlarini bayon etgan. Ularning aksariyati "taraqqioyot" faqat quyidan yuqoriga qarab borish g'oyasini yoqlab chiqadi.

Biri taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisi kommunizm deb ta'riflasa, boshqasi uni "G'arb demokratiyasi" deb atagan. Amalda esa har ikkalasi mohiyatan bitta bo'lib, u hayot faoliyatining quyidan yuqoriga qarab harakatidan iborat ekani haqidagi fikrni ifoda etadi. Bu jarayonni bir tomonlama tushuntirishga intilish "5 formatsiya"

nazariyasida o'z aksini topgan. Uning tarafdorlari nazarida taraqqiyot **ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va pirovardida kommunizm bosqichlarining** ketma-ketligidan tashkil topgan. Mazkur ta'limot hech qaysi millat bu chiziqli doirasidan chiqib olmasligi va chiqishi mumkin ham emasligi barcha millatlar ana shi 5 ta formatsiyani bosib o'tishi shart ekanligini ta'kidlab kelgan.

Masalan, Malayziya davlatini olaylik. U o'ziga xos rivojlanish yo'lini tanlab, taraqqiyotning yuqori cho'qqisini zabt etdi. Yohud Xitoy tanlagan taraqqiyot yo'li ham butun jahon hamjamiyatini hayratda qoldirdi desak, xato bo'lmaydi. Marksistik nuqtai-nazardan qaraganda, ularning taraqqiyoti to'xtagan davlar sifatida qabul qilishimiz kerak edi. Hayot esa buning aksini tasdiqlamoqda.

Demak, bundan xulosa qilib aytish mumkinki, dunyoda turli jamiyat yoki davlat qancha ko'p bo'lsa, taraqqiyot yo'llari va modellari shuncha ko'p bo'lishi mumkin ekan. Zero har bir davlat yoki millat tarixiy tajribasi, urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan o'ziga xos taraqqiyot yo'nalishini belgilash imkoniyati va huquqiga ega. Har bir davr esa yangicha yondoshuv va fikrlashni taqozo etadi. Aks holda jamiyat hayotida faoliyat va tafakkur tanballigi paydo bo'lishi hech gap emas.

Shunday ekan, bugungi kunda yangi tarixiy bosqich, ya'ni **yangi davr** haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Ko'z o'ngimizda vujudga kelayotgan vaziyatni hisobga olib, aksariyat olimlar insoniyat "qaltis davrga qadam qo'ydi", deb ta'kidlayotgani bejiz emas.

Jumladan, XX asrning 80-yillarida amerikalik olim Emmanuel Vallersteyn o'z asarlarida, "...hozirgi mojarolar holva, agarda jarayon shu tarzda kechadigan bo'lsa, XXI asrning o'rtalariga borib ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealar sodir bo'lishi mumkin" deya bashorat qilgan. Bu xulosa qanchalik keskin bo'lmasin hamda dalil, isbot talab etmasin, u ko'pchilikning diqqatini jalb etayotgani sir emas. Bizningcha bunday murakkab vaziyatda davrni aniq belgilab, ma'lum to'xtamga kelishning o'zi g'oyatda qiyin masala.

Ma'lumki, XX asrning zabardast faylasufi Karl Yaspers "**Smisl i naznachenie istorii**" kitobida "**davr – o'ziga xos tahdid**" degan fikrni ilgari surgan. Uning fikricha insoniyat tarixi faqat bir yo'l – davrlar orqaligina kechadi. Va har bir tarixiy davr o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Uni aniq tasavvur etish va bu jarayondagi muammolarning yechimini topishga bo'lgan intilish esa davr tahdidiga berilgan javob hisoblanadi.

Shubhasiz, davrga nisbatan befarqlik har qanday millatni tarix sahifasidan butunlay o'chib ketishga olib kelishi mumkin. Davrni chuqur anglab yetgan, unga hamnafas bo'lishga intilgan millat esa abadul-abad yashab qoladi. Boshqacha aytganda, davrni chuqur o'rganib, uning talablariga javob berishga qodir millatgina barhayotdir. Demak, bir tomondan, **davr talabi** va ikkinchi tomondan, **davrni anglash** jarayonlari bir-biri bilan dialektik bog'langan bo'lib, taraqqiyot uchun zamin hozirlaydi. Davrga nisbatan befarq bo'lgan millat esa daraxtdan uzilgan shoh singari qovjirab qolishi bashariyat tarixida ko'p bora isbotlangan.

Millatlarning davr talabiga hamnafaslik darajasini belgilaydigan muayyan mezonlar mavjuddir.

Birinchidan, o'z rivojlanish tamoyillariga amal qilgan holda qoqilmay olg'a intilayotgan millat davr bilan hamnafas taraqqiy etadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Ikkinchidan, biror bir millat davr talabini vaqtida anglab yetmasa, har qadamda qoqilsa, dunyo hamjamiyati oldidagi obro'-e'tibori pasayadai, u davr talablaridan ortda qolib ketaveradi. Dunyoda bunday davlatlar oz bo'lsada uchrab turadi. Ilmiy adabiyotda "**muammoli davlat**" deganda aynan ana shunday davlatlar nazarda tutiladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayangan holda hozirgi davr xususiyatida noaniqlik mavjud ekanligini ta'kidlash zarur. Bu uning quyidagi ijobiy va salbiy tendensiyalarida namoyon bo'ladi.

1. Ijobiy tendensiyalar.

1. Bipolyar (ikki qutbli) tizim va "sovuq urush) – ning barham topishi
2. Milliy ozodlik harakatida yangi bosqich bo'lgan yangi mustaqil davlatlarning qaror topishi.
3. Totalitarizmning barbod bo'lishi.
4. Polipolyar (ko'p qutbli) dunyo sari tendensiyalarning paydo bo'lishi va kuchayishi, yangi taraqqiyot yo'llari va imkoniyatlarining vujudga kelishi.
5. Axborot-kommunikatsiya asrining kirib kelishi.
6. Fuqorolik jamiyatini shakllantirishga bo'lgan ehtiyojning ortishi, ijtimoiylashuv jarayoning kuchayishi.

II. Salbiy tendensiyalar.

1. Monopolyar (bir qutbli) dunyoni shakllantirishga bo'lgan moyillikning kuchayishi (AQSH, Buyuk Britaniya).
2. Polipolyar dunyo sari taraqqiyotni qabul qilolmaslik alomatlarining kuchayishi.
3. Demokratiyani suiiste'mol qilish, ya'ni undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinish va unga tayyor kuchlarning paydo bo'lishi.
4. Agressiv millatchilik va milliy ayirmachilikning kuchayishi.
5. Buyuk davlatchilik shovinizmining saqlanib qolayotganligi.
6. Axborot maqomida raqobatning xavfli tus olishi.

Davrga xos salbiy tendensiyalar jahon taraqqiyotiga xavf-xatar va tahdidlar hamon saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Fikrimizcha, buning quyidagi ob'yektiv va sub'yektiv sabablari mavjud:

A) Ob'yektiv (bilvosita) sabablar:

1. Ijtimoiy taraqqiyotning manfaatlar (kuchlar) to'qnashuvidan, ya'ni ziddiyatlardan iborat ekanligi.
2. Ijtimoiy taraqqiyotning tasodiflarga boy ekani va barcha hollarda uni modellashtirish (andozaga solish) mumkin emasligi.
3. Rivojlanishda ilgarilab ketgan (badavlat) va orqada qolayotgan (nochor) davlatlar o'rtasidagi tafovutning kuchayishi.
4. Ba'zan kutilmagan voqea-hodisalar rivoji qarshisida inson tafakkurining o'jiz qolayotgani.

B. Sub'yektiv (bevosita) sabablar:

1. O'zaro ijtimoiy munosabatlar mukammal tizimining (insonlararo, millatlararo, davlatlararo, sivilizatsiyalararo va h.k) zamon talabi darajasiga mos kelmayotgani.
2. Bir millatning boshqa millatlarga nisbatan ustunlikka intilishi.

3. Mavjud ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari uning sub'yektlari tomonidan to'laqonli anglab yetilmagani.
4. O'z manfaatlarini amalga oshirish maqsadida millionlab insonlarning xohish-irodasi, ularning yashash huquqini paymol etish va bu yovuz maqsad yo'lida har qanday g'ayriinsoniy vositalardan foydalanishga urinishlarning namoyon bo'layotgani.

Ma'lum bo'ladiki, dunyo taraqqiyotiga xavf-xatar hamda tahdidlar doimiy ravishda saqlangan holda, ayni paytda, jahon hamjamiyati diqqat-e'tiborini jalb etib kelmoqda.

Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotiga xavf-xatar hamda tahdidlar kuchatyishini quyidagilarda kuzatish mumkin:

1. Dunyo miqyosida ijtimoiy-siyosiy tengsizlikning chuqurlashuvi.
2. Amaldagi xalqaro huquq tizimining davr talabidan ortda qolayotgani.
3. Siyosat va ilm o'rtasidagi tafovutning kengayishi.
4. Bir guruh davlatlar va transmilliy tashkilotlar tomonidan manfaatlar tamoyiliga rioya qilmaslik, jahon iqtisodiyotida manfaatlar muvozanatining izdan chiqarilayotganligi.
5. Dunyo siyosatida ro'y berayotgan o'zgarishlarni anglash darajasining pastligi.
6. Yo'l qo'yilgan va qo'yilayotgan siyosiy xatolarni tan olmaslik.
7. Ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida kuch ishlatishga moyillikning kuchayishi.
8. Dunyoni "ma'rifiy" hamda "noma'rifiy" makon va davlatlarga ajratish amaliyotining saqlanib qolayotgani.
9. Vujudga kelayotgan yangi ijtimoiy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashda bir tomonlama yondoshuv va andozalarning saqlanib qolayotgani.
10. Jahondagi yetakchi davlatlarning dunyo zahiralari to'liq egallash va nazorat qilishga intilishlarning namoyon bo'layotgani.
11. Iqtisodiy yordam berish bahonasida siyosiy shartlarni bajarishga majbur qilish.
12. Dunyoning turli mintaqalarida geosiyosiy intilishlarning kuchayishi. Iqtisodiy jihatdan zaif davlatlarni o'z siyosiy ta'sir doirasiga o'tkazishga majburlash.
13. Azaldan mavjud bo'lgan dinlararo baxs-munozaralarni bugungi kunda sun'iy ravishda siyosiy lashtirish amaliyoti.
14. Inson ma'naviyatida, ruhiyatida diniy omilning kuch-qudratini hisobga olgan holda musulmon aholisi ongi va dunyoqarashiga ta'sir o'tkazish.
15. Narkobiznesning hozirgi zamon xalqaro terrorizmini moliyaviy ta'minlash manbaiga aylantirilgani.
16. Azaldan insonlar ongida ustuvor bo'lib kelgan etnik va milliy turfa xillik kabi jihatlarni ataylab siyosiy lashtirish amaliyoti.

Bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyotining yangi ufqlari ochilmoqda. Adolatli, huquqiy demokratik jamiyat qurishdek ulug'vor maqsadlarga erishish yo'lida sobitqadam bo'lish, bu borada oldimizda turgan muammo hamda kamchiliklarni anglash va bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, ijtimoiy tahdidlarning nazariy jihatlariga alohida e'tibor qaratishga zarurat tug'iladi.

Hozirgi sharoitda, umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o'zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda. Bu esa davlatlar va xalqlarning barqarorligini ta'minlash uchun yangicha yondoshuvlarni izlab topishni, xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda butun insoniyatni tashvishlantirayotgan muammolarga javob izlash borasida to'plangan muayyan tajriba ma'lum ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bu xulosalar Yurtboshimizning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" fundamental asarida atroflicha tahlil etilgan.

Prezidentimiz mazkur kitobda o'z taqdirimizni o'zimiz belgilashimiz, istiqbol bergan imkoniyat – erk va ozodlikni murakkab va shafqatsiz dunyoda sodir bo'layotgan turli xavf-xatarlardan omon saqlash har birimizga bog'liqdir, degan g'oyani ilgari suradi. Agar buni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchidan, biz yashab turgan dunyo mustaqilligimiz va taraqqiyotimizga qarshi turli tahdidlarga to'la ekanini anglab yetish qiyin emas. Ikkinchidan, bizning xohish-irodamizga bo'ysunmaydigan ijtimoiy, umumjahoniy rivojlanish jarayonlari fuqorolar oldiga o'ta mas'uliyatli talablar qo'yayotgani bois, tahdidlarning oldini olish va barqarorlikka erishishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish har birimizning siyosiy ongimiz, vatanparvarligimizga bog'liq ekani to'g'risida tasavvurga ega bo'lamiz.

Mamlakatimiz xavfsizligi, yurtimizda hukm surayotgan barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash, kelajak avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirishdek ezgu maqsadlar yo'lida har bir fuqoroning mas'uliyati haqida fikr yuritish ekanimiz, erkinlikning qadriga yetishda inson omilining o'rni va mavqeini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi vaqtda ko'pgina demokratik mamlakatlarda insonning ma'naviy dunyosi bilan bog'liq omillarni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, olam barqarorligi va yaxlitligi belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, texnologik omillar bilan bir qatorda, ijtimoiy jarayonlarda inson xohish-irodasi, xatti-harakati, ongi, hayotiy faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlanmoqda.

Turli xavfli jarayonlarni bartaraf etishda insonning o'rni va ishtiroki haqida so'z yuritganda, ijtimoiy faol shaxsning qiyofasi, ichki dunyosi, umuman, ma'naviy-ruhiy xislatlari to'g'risida turli fikrlar mavjudligini e'tiborga olish zarur. Insonning shakllanishi va ijtimoiy mavjudot sifatidagi ma'naviy rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari, ularning mohiyati va xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu haqiqatni hech kim inkor eta olmaydi. Lekin mustaqillikka erishib, tafakkur xilma-xilligi tamoyili qaror topgunga qadar bu muammo bir yoqlama talqin qilib kelindi. Ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari bilan inson salohiyati o'rtasidagi o'zaro munosabat borasida g'ayriilmiy tasavvurlar hukmron bo'lib, insonga ko'r-ko'rona bo'ysunuvchi omil sifatida qaralgan. U cheksiz imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan mahrum etilgan edi. Ilg'or dunyoqarashga ega, ma'naviyati boy shaxslarga esa "idealist" tamg'asi yopishtirilardi.

Turli mintaqalarda sodir bo'layotgan va insoniyatga xavf solib turgan noxush hodisalarni tahlil qilib, ularning barchasida inson omili bosh sababchi ekanini sezish qiyin emas. Birgina misol. Germaniya olimlari amalga oshirgan tadqiqot natijalariga ko'ra 1945-1995 yillar oralig'ida, ya'ni ikkinchi jahon urushidan keyingi 50 yillik "tinchlik hukm surgan davr"da insoniyat atigi 26 kun tinchlik nashidasidan bahramand bo'lgan ekan. Shu yillar mobaynida yuz bergan turli mojarolar oqibatida 25-35 million begunoh inson halok bo'lgan. Nemis olimlarining g'ayrimantiqiy xulosasiga ko'ra millatchilik, zo'ravonlik, tajovuzkorlik va mutaassiblik kabi illatlar odamzotga xos aql-zakovat, madaniyat va ma'rifat tufayli sodir etilar emish.

Hozirgi shiddatli davrda insondan keskin sifat o'zgarishlari talab etilmoqda. Inson, uning aql-idroki, zakovati va salohiyati ijtimoiy taraqqiyot, olam yaxlitligining asosiy omiliga aylanishiga ehtiyoj kuchaymoqda. Zamon bugun insondan o'z-o'zini anglab olishni taqozo etmoqda. Tahdidlarni bartaraf etish faqatgina insoniyat zimmasiga tushmoqda. Bu o'rinda Prezidentimizning "xavfsizlik, barqarorlik va tanlagan yo'ldan og'ishmay borish" degan so'zlarida teran ma'no mujassamlashgan. Bu ibora bugun har bir inson uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, mamlakatimizga xavf solayotgan jiddiy tahdidlar yutuqlarimizni ko'ra olmayotgan, hamon g'arazli niyatidan qaytmagan yovuz kuchlar g'ayriinsoniy uslublarni qo'llayotgani mustaqillik, demokratiya, qolaversa, mamlakat kelajagiga nisbatan xavf-xatarlarni bartaraf qilishga yuqoridagi omil yetarli emasligini yaqqolroq namoyon etmoqda.

Xavf-xatar mohiyati va funksional jihatdan 2 toifaga bo'linadi: iqlimiy-ekologik tabiiy xavf-xatarlar va ijtimoiy xavf-xatarlar.

O'z navbatida, ijtimoiy xavf-xatar vaqt jihatidan olganda 2 turga bo'linadi: an'anaviy va muayyan tarixiy davr bilan bog'liq xavf-xatarlar.

An'anaviy deganda, uzoq vaqtdan bo'yon davol etib kelayotgan, ammo davr o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan muammolar tushuniladi. Masalan, ba'zan davlatlararo munosabatlarda o'zaro ishonchsizlik kabi xolatlar yuzaga keladi. Aniq, tarixiy davr bilan bog'liq xavf-xatarlar esa muayyan tuzumda yuzaga keladi. Masalan, tuzum, jamiyat taraqqiyot yo'nalishining noto'g'ri belgilanishi ana shunday holatdir.

Ijtimoiy xavf-xatarni bilvosita (ob'yektiv, ya'ni diniy radikalizm, terrorizm, milliy ayirmachilik kabi) va bevosita (sub'yektiv, ya'ni siyosiy loqaydlik, beparvolik kabi) omillar tashkil etadi.

Ayni paytda bu omillar jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo'lishi mumkin. Bunday nomutanosiblikning yechimini tizimlararo, manfaatlararo muloqot, o'z-o'zini asrashga bo'lgan moyillikdan foydalanish asosida yechimini izlash lozim, degan xulosaga kelish mumkin.

Xavf-xatar holatiga inson zarurat tug'ilgan paytda yetarlicha ta'sir ko'rsata olmasa, u maqbul doiradan chiqib, zo'rayib ketish ehtimolligi ortadi. Buni shartli ravishda "vaziyat" deb atab, undan qutilish yo'li sifatida davr, taraqqiyot va xavfsizlikning o'zaro bog'liqligini anglashdir, degan xulosaga kelish mumkin.

Shunday qilib, hozirgi davrda ijtimoiy xavf-xatar muammosi quyidagicha ko'rinishga ega:

I. Ijtimoiy xavf-xatar:

Zamon va makon nuqtai nazaridan doimiy, jamiyat faoliyati va rivojlanishiga salbiy ta'sir kuchiga ega, hadsiz-hududsiz substansional ijtimoiy-siyosiy hodisa. Uning salbiy ta'sir qilish qobiliyati jamiyat siyosiy va intellektual salohiyati darajasiga teskari proporsionaldir.

II. Risk.

Inson tafakkuri, dunyoqarashi va kundalik amaliy faoliyati bilan bog'liq bevosita xatolar.

Tayanch tushunchalar:

Geosiyosat, Markaziy Osiyo, mafkuraviy siyosat, mafkuraviy ta'sir, mintaqaviy hamkorlik. Inson omili, taraqqiyot, "5 formatsiya" nazariyasi, yangi davr, tarixiy davr, muammoli davlat, xavf-xatarlar, ijtimoiy xavf-xatar. Risk.

Takrorlash uchun savollar:

1. Hozirgi paytda geopolitik maqsadlar qanday namoyon bo'lmoqda?
2. "Mafkuraviy siyosat" tushunchasining mazmun-mohiyati nimadan
3. iborat?
4. Mintaqamizga qanday tajovuzkor g'oyalar ta'sir ko'rsatmoqda?
5. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash uchun nimalarga e'tibor berish lozim?
6. "Davr" va tahdid tushunchalarining mohiyati nimadan iborat?
7. Hozirgi davr xususiyatlarini ta'riflab bering.
8. Hozirgi davrda tobora kengayib borayotgan xavf-xatar va tahdidlarning sabablari nimada?
9. Xavf-xatarning ijtimoiy voqeligi nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Inson faoliyatida riskning kuchayishi deganda nimani tushunasiz?

5-mavzu: Geosiyosat va mafkuraviy poligonlar

Reja:

1. Geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiluvchi omillar ichida mafkuraning o'rni.
2. *Tahdidga javob berish muammosi.*
3. *Tahdidga javobning asosiy yo'nalishlari.*

XXI asrda insoniyat ko'plab murakkab muammolarga duch kelmoqda. Ularni shartli ravishda ikki toifaga ajratish mumkin. Birinchi toifaga o'tgan asrda hal etilmay, uchinchi ming yillikka, bizga meros bo'lib o'tgan an'anaviy muammolarni, ikkinchi toifaga keyingi vaqtda mutlaqo yangi asosda vujudga kelgan tahdidlarni kiritish mumkin. President Islom Karimov ta'kidlaganidek, "afsuski, bu tahdidlarni oldindan ko'ra bilishga hamma vaqt ham muvaffaq bo'linmayotir. Ko'pincha ular kutilmaganda ro'y bermoqda". Shunday ekan, mazkur masalaga jiddiy yondoshish, teran tahlil etish asosida uning yechimini topish zarur. Bu o'rinda insoniyat ushbu muammoni qay darajada anglab yetayotgani, tahdidlar qanday oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligini qay darajada tasavvur etayotgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahdid va uning siyosiy jihatlarini dunyo siyosatchilari, davlat va jamoat arboblari e'tiborini jalb etib kelmoqda. Bu o'rinda Reyshauer, Nibur, Xantington, Kissenjer

(AQSH), Toynbi (Angliya), Turli (Fransiya), Moiseev (Rossiya) singari olimlarni, “Rim klubi” va Pagoush tinchlik harakati kabi tashkilotlar faoliyatini misol tariqasida keltirish mumkin.

O'zbekistonda esa muammoga, uning mazmun-mohiyatini anglashga bo'lgan qiziqish Prezident I.A.Karimovning mazkur masalaga oid bir necha asarlarining nashr etilishi, ularda ilgari surilgan g'oya va fikr-mulohazalarning jiddiy o'rganilishi hamda bu borada o'tkazilgan baxs-munozaralar bilan uzviy bog'liqdir. Sirasini aytganda “tahdid” tushunchasining o'zi ham bizning siyosiy leksikonimizga ilk bor Prezident I.A.Karimov tomonidan 1994 yil 22 sentabrda Oliy Majlis sessiyasida so'zlagan nutqida kiritilgan edi. Ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbarining asarlarida mamlakatimizga huruj qilayotgan tahdid turlari, manbalari batafsil tahlil etilgan va ularni bartaraf qilish yo'l-yo'riqlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot tajribasi shundan guvohlik beradiki, mamlakat, jamiyat hayotiga nisbatan xavf-xatarlar ob'yektiv ravishda hamisha mavjud bo'ladi. Bu hol aslida insoniyat jamiyati taraqqiyoti xarakteridan hamda ijtimoiy xavf-xatarlar omilining ichki mohiyati bilan belgilanadi. Tahdidlar aksariyat hollarda turli ijtimoiy-siyosiy guruhlar manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlarga e'tiborsizlik va ularning vaqtida hal etilmagani oqibatida vujudga keladi.

Shu bois xavf-xatar omiliga doimiy ravishda e'tibor qaratilgan, muntazam nazorat etib borilgan hollarda u jamiyat asoslariga jiddiy xavf tug'dirmaydi.

Tahdidga bevosita javob tariqasida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: umummilliy siyosiy yetakchi omili; zudlik bilan aniq siyosiy qaror qabul qilish; milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan barcha zarur ishlarni zudlik bilan amalga oshirish; tahdid va unga qarshi chora-tadbirlar mohiyati va yo'nalishi haqida jahon hamjamiyatini ogoh qilish; hokimiyat organlari, muassasalari faoliyatining uyg'unlashuviga erishish; tahdidga qarshi umummilliy safarbarlikni ta'minlash; OAV orqali tahdidga oid haqqoniy axborot berib borish va uning millat taqdiri va istiqboliga qarshi qaratilganini targ'ib etish; xalqning siyosiy ongiga tayanish; umumxalq, umumdavlat birligini oshirish; tahdid va tahdidli holatga barham berish.

Tahdid – inson va jamiyat hayotiy faoliyatini qiyinlashtiradigan, uning barqarorligi, taraqqiyoti va xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan ijtimoiy-siyosiy tuzilmani zaiflashtirish, ya'ni davlatning konstitutsiyaviy asoslarini buzishga qaratilgan va salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy-siyosiy hodisadir.

Tahdid o'ziga xos tuzilishga ega bo'lib, uning shartli ravishda ijtimoiy va geosiyosiy jihatlariga ajratish mumkin.

Ijtimoiy jihatlarini quyidagilardan iborat:

- Siyosiy;
- Iqtisodiy,
- Sotsial;
- Ma'naviy;
- Ma'furaviy;

Geosiyosiy nuqtai nazardan esa:

- Mahalliy;
- Hududiy;
- Mintaqaviy;

- Umumbashariy.

Shu bilan birga, kelib-chiqishi, ta'sir manbaiga ko'ra, u ichki va tashqi, yadroviy bakteriologik hamda information xuruj tarzida namoyon bo'lishi mumkin.

Jamiyatning tahdidli holatini shartli ravishda hayotiy faoliyat uchun nomaqbul (tashvishli) yo'l deb atash mumkin. Binobarin, bunday vaziyatda zarur darajada javob majmuasiga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

Izlanish, kuzatish hamda tajriba shuni ko'rsatadiki, tahdiddan bevosita javobgacha ma'lum vaqt o'tadi. Uni shartli ravishda "pauza" iborasi bilan atab, siyosiy vaqt mazmuni bilan o'lganuvchi qiymat, deb hisoblash mumkin. U quyidagi parametrlarga ega bo'lishi zarur: tahdidni makro va mikro darajalarda tasavvur qilish; tahdidning ichki va tashqi, bilvosita va bilvosita impul'slariga o'z vaqtida aniq baho berish va xakazo.

Tahdidga bevosita javob xususida uning asosiy yo'nalishiga quyidagilar kiradi: umummilliy siyosiy yetakchi omili hamda zudlik bilan aniq siyosiy qaror qabul qilish.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi davrda muayyan davlat, millatning mavjudligi, xavfsizligi, barqarorligi hamda istiqbollari son-sanoqsiz, yangi tahdidlar, xavf-xatarlar tizimini, birinchi navbatda uning "muhitoy omillari"ni idrok etish darajasiga borib taqalmoqda. Zero, insoniyat tarixida o'ziga ortiqcha baho bergan, tahdidlarga nisbatan hotirjam yoki ularni butunlay sezmaslik oqibatida tanazzulga yuz tutgan davlatlar va xalqlar ham bo'lgan. Aksincha, umrboqiylikka dahldor millatlar ham borki, ular boqiylikning bosh omili tahdidning har qanday turiga o'z vaqtida javob bera olish qobiliyati, aniqrog'i, "**tahdidbardoshlik**" darajasi bilan uzviy bog'liqdir. Bunday millatlarni zamon bilan makonnning uyg'unlashuviga erishgan deb aytsak xato bo'lmasa kerak.

Ma'lumki, turli xalqlar bir-birlaridan alohida xususiyatlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Lekin umumdunyoviy taraqqiyot nuqtai nazaridan ular o'zaro bog'liq bo'lib ulkan tizimning unsurlari hisoblanadi. Chunki muayyan millat o'z xavfsizligini qanchalik chuqur anglasa, ya'ni dunyo ham shunchalik barqarorlik kasb etadi. Bu o'rinda so'z ma'lum darajada har bir millatning dunyoning barqarorligi uchun javobgar ekani haqida bormoqda.

Tahdidni bartaraf etishga qaratilgan jahon tajribasi haqida to'xtaladigan bo'lsak, uni ijobiy ham, samarali ham, deb baholash mumkin.

Jumladan, geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlarga tayanib global hukmronlikka intilayotgan ayrim kuchlar, davlatlar say harakati jahon taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etmoqda deb bo'lmaydi.

Masalan, Amerika hukumati Yugoslaviyadagi tahdidli holatni bartaraf qilishni ro'kach qilib, NATO kuchlari bilan hamkorlikda ularning ichki ishlariga oshkora aralashuvi oqibatida mamlakatning parchalanib ketishiga, mazkur hududda vaziyatning keskinlashuviga hamda yangi tahdidlarning yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi.

Hozirgi davrda dunyodagi eng qudratli mamlakat AQSH hukmron doiralari tomonidan jahon taraqqiyoti, insoniyat taqdirini belgilash imkoniyatiga ega yagona davlat degan qarashlar ilgari surilmoqda. Lekin mazkur davlatning dunyodagi ayrim mintaqalardagi xatarli jarayonlarga e'tiborsizligi yohud xalqaro siyosatda ikki xil andozalar bilan yondoshuvi qanday oqibatlarga olib kelganligi ma'lum.

Masalan, Prezident I.Karimov ko'p yillar mobaynida 1978 yildan bo'yon Afg'onistondagi sodir bo'layotgan xunrezlik urushida qanchadan-qancha begunoh

insonlarning nobud bo'layotgani, bu hududdagi beqaror vaziyat ta'sirida Markaziy Osiyo mintaqasida tahdidli holatning hukm surayotgani, qo'shni davlatlar taraqqiyotiga katta xavf solayotgani xususida bong urib keldi. Ammo uzoq yillar mobaynida o'zlarini "inson huquqlarining bosh himoyachisi" va "tinchlik uchun kurashchilar" deb hisoblayotgan AQSH va uning NATO bo'yicha hamkorlari mazkur mintaqadagi tahlikali vaziyatni bartaraf etish masalasiga panja orasidan qarab kelishdi. Aksincha Afg'oniston hududida sobiq Ittifoq va AQSH tomonidan harbiy kuch va zamonaviy qurol-yarog' vositalarini sinash poligoniga aylantirilgan edi.

AQSH hukumati xalqaro terrorizm vujudga keltirgan murakkab vaziyatdan "unumli" foydalanib, Iroqqa nisbatan ko'pdan beri maqsad qilib kelayotgan rejasini amalga oshirishga qaror qilib keldi.

AQSH tomonidan olib borilgan harbiy harakatlar tinch yashayotgan Iroq xalqining xalovatini buzib, ko'plab begunoh insonlarning o'limiga sabab bo'ldi. Aslida esa Iroqda ommaviy qirg'in qurollarini ishlab chiqaruvchi zavodlar u yoqda tursin, hattoki birorta sex ham topilmadi.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyoda yuz bergan voqea va hodisalar dunyo e'tiborini mazkur hududga qaratganini ta'kidlash joiz. Avvalo Qirg'izistondagi "demokratiya tantanasi" deya baholangan to'polonlardan so'nggi hukumat almashinuvi xalq uchun, mamlakat manfaatlari uchun ham hech qanday samara keltirmadi. Aksincha, bu hol mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yanada keskinlashishiga olib keldi. "Andijon voqealari" esa G'arbdagi ayrim kuchlarning muayyan maqsadlarni ko'zlagan holda terrorchilar bilan ham til biriktirib, jinoyatkorona hatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlashi mumkinligini namoyon etdi. Eng achinarlisi shundaki, G'arbdagi ayrim hukmron doiralar xalqaro tashkilot va OAV vakillari begunoh odamlar qoni to'kilishiga sabachi bo'lgan terrorchi jinoyatchilarni o'z himoyasiga olib, mamlakat va mintaqa barqarorligini saqlab qolgan hukumatga qarshi esa taz'iyq, axborot bosimi o'tkazishga harakat qildi.

Ushbu masala haqida so'z ketganda Ukraina, Gruziya va Qirg'iziston davlatlaridagi tahdidli holatlarning vujudga kelishi va ularni bartaraf etish xususida to'xtalish lozim.

Keyingi vaqtlarda bu davlatlardagi boshqaruvdagi boshbodoqlik, tahdidlarni taxlil etish va ularni oldini olish masalalariga e'tiborsizlik, ayrim rivojlangan davlatlarning aralashuvi tufayli murakkab vaziyat vujudga keldi. AQSH va G'arb davlatlarining "beg'araz yordam"i bilan "rangli inqilob" sodir bo'ldi. Bu davlatlarda "demokratiya tantanasi" deb baholangan to's-to'polon va ommaviy tartibsizlik oqibatida sodir etilgan hukumat almashinuvi jamiyatdagi ziddiyatning yanada keskinlashuvi, aholi noroziligining kuchayishiga olib keldi. Bu hududlarda tahdid omili saqlanib qolayotgani bois ular muammoli davlatlar safidan o'rin olishi ehtimoldan holi emas.

O'zbekistonda xavf-xatar va tahdidni bartaraf etish tajribasi shundan guvohlik beradiki, ba'zan davlat va millatning taqdirini hal etadigan vaziyat bir martagina tug'ilishi mumkin. Jumladan, mamlakat Prezidenti rahbariyatining xalq bilan bahamjihatligi va yakdilligi tufayli 1999 yil 16 fevral tahdidi yoki undan keyinroq sodir etilgan terroristik hurujlarning oqibatlari qisqa fursatda bartaraf etildi.

Darhaqiqat, har bir davlat, jamiyatning barqarorligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavf-xatarlar hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni nazarda tutgan samarali tizimning mavjudligi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda joriy etilgan ushbu tizimning alohida o'rni va qimmatini shundaki, u tahdidni oldindan

sezish, mohiyati, tabiati va oqibatlarini anglash, ularni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan keng qamrovli tadbirlar tizimini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Shunisi ham muhimki, jahon maydonida, xalqaro munosabatlarda harbiy kuch-qudrat emas, intellektual salohiyat, aql-idrok, ilm-fan va ilg'or texnologiyalar ahamiyat kasb etishi mazkur tizimning takomillashuviga, yurtimizda bu borada to'plangan tajribani ommalashtirishga xizmat qilgan bo'lur edi.

Bu tajribaning mazmun-mohiyati va ahamiyati quyidagi strategik omillar bilan belgilanadi:

A). Jamiyatni ma'naviy yuksaltirish. Ma'lumki, zamonning shafqatsiz sinovlariga qarshi yuksak ma'naviyati va ma'rifati bilan javob bergan millat hech qachon zavolga yuz tutmagan. Chunki ana shu omil millatning zamon bilan hamnafasligini ta'minlagan, jamiyat hayotiga tahdidlar tug'ilgan vaziyatlarda o'ziga xos talqin vazifasini o'tagan.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, **“Marifatparvarlik biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql-zakovatli, yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz. Yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi. Agar shu muamoni yechmasak, barcha toat-ibodatlarimiz bir pul: taraqqiyot ham, kelajak ham, farovon hayot ham bo'lmaydi”**.

Bu borada mamlakatimizda ishlab chiqilgan va bosqichma-bosqich hayotga joriy qilinayotgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muhim ahamiyat kasb etadi.

B). Harbiy sohani mustahkamlash. O'zbekistonning mudofaa doktrinasini o'z hududini, davlat va xalqini tajovuzlardan himoya qilish konsepsiyasiga tayanadi. Shu o'rinda yurtimizda ixcham va yaxshi jihozlangan qurolli kuchlarni tashkil etishdan maqsad: 1. Davlat mustaqilligini saqlash; 2. Mamlakatning hududiy yaxlitligini himoya qilish; 3. Aholining osuda hayotini ta'minlash. 4. Jamiyat xavfsizligini muhofaza qilish ekanligini har bir fuqaro yaxshi anglab olishi kerak. Bunday armiyaning tuzilishi mamlakatimizning tabiiy ehtiyoj va hayotiy manfaatlari bilan belgilanadi.

C) Iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash. O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyot strategiyasi avvalo xususiy sektorni jadal rivojlantirish konsepsiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur konsepsiya mulkdorlar sinfini shakllantirish orqali jamiyatning iqtisodiy qudratini ta'minlashni nazarda tutadi. Shuning uchun ham bugun fermerlik va tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

D) Moliyaviy barqarorlikka erishish. Bu umumiy harajat yalpi daromadidan oshib ketmasligi, byudjet kamomadi 35% dan, inflyatsiya darajasi esa 6-8% dan oshmasligini ta'minlash demakdir.

Mazkur omil jamiyat iqtisodiy qudratining oshishi, o'zini-o'zi muhofaza qilish imkoniyatining oshib borishiga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar:

Tahdidning siyosiy jihatlari, tahdidning ijtimoiy jihatlari, geosiyosiy jihatlari, “tahdidbardoshlik”, “demokratiya tantanasi”, muammoli davlatlar, strategic omillar.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tahdidli holat mamlakat taraqqiyoti uchun qanday xavflarni vujudga keltiradi?

2. Tahdidning siyosiy, ijtimoiy, geosiyosiy jihatlarini qanday hurujlarda namoyon bo'ladi?
3. O'zbekistonda xavf-xatar va tahdidni bartaraf etishning tajribasi qanday strategik omillar bilan belgilanadi?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T. "O'zbekiston" 1997.
2. Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin", "Tafakkur" jurnali, 1998.
3. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T. "Sharq". 1998. 32-b.
4. Karimov I.A. "Hushyorlikka da'vat". T. "O'zbekiston" 1999.
5. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T. "O'zbekiston" 2000.
6. Karimov I.A. "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir". "Fidokor" gazetasi. 2000 yil 8- iyun.
7. Temur tuzuklari. T. "G'. G'ulom" nomidagi nashriyot-matbba birlashmasi. 1991 yil.
8. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "O'zbekiston" 2000.
9. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T. "Sharq". 1998. 32-b.
10. Paxrutdinov Sh. "Taraqqiyotga tahdid: nazariya va maliyot" T. "Akademiya". 2006 yil.

6-mavzu: Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.

Reja:

- 1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi.**
- 2. Hozirgi davr va mafkuraviy poligonlar.**
- 3. Mafkuraviy immunitet va mafkuraviy profilaktika.**

Hozirgi davr – dunyoda qarama-qarshiliklar murakkab tus olgan, mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchliroq bo'lib borayotgan davrdir.

Insoniyat XX asr oxiriga kelib chegara bilmaydigan muammolarga duch keldi. Turli mintaqaviy, diniy-etnik, tajovuzkor millatchilik va shovinizm asosidagi mojarolar, ekologiya falokatlari, ma'naviy tanazzul, giyohvandlik, terrorchilik kabi muammolar shular jumlasidandir.

Shuningdek, globallashuv jarayonlari, axborot oqimining tezlashuvi ham bir talay muammolarni keltirib chiqarmoqda. Butun yer yuzi odamzot uchun yagona makon ekanligi aniq. Bunga shak-shubha yo'q. Ammo tarixda mavjud chegaralarni o'zgartirish, muayyan hududlarni bosib olish uchun son-sanoqsiz urushlar bo'lgani ma'lum. Bu jarayonda esa urush qurollari muntazam takomillashib borganini bilamiz. Mazkur urushlar to XX asrgacha asosan ko'proq bir davlat ichida, ikki davlat o'rtasida yoki nari borganda bir mintaqada doirasida bo'lishi mumkin edi. Aleksandr

Makedonskiy, Chingizxonning ulkan davlat barpo etish uchun yoki o'rta asrlardan boshlab yevropalaik istilochilarning boshqa qit'alarni zabt etish uchun olib borgan urushlari ko'lami jihatidan ajralib turadi. Ammo bunday holatlar istisno tariqasida ro'y bergan.

XX asrda ro'y bergan ikkita jahon urushida o'nlab davlatlar, bir necha qit'a davlatlari ishtirok etganligini eslasak, bunday xulosa muayyan darajada o'rinli ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Urush qurollari takomillashib boraveradi. Bugungi kunda ular boshqa hududni bosib olish u yoqda tursin, balki butun Yer sayyorasidagi hayotni bir necha marta yo'q qilib tashlashga yetadi.

Shu bilan birga hozirgi vaqtda turli mafkuraviy vositalar orqali dunyoda o'z ta'sir doirasini kengaytirib, insonlar qalbi va ongini zabt etishga, shu tariqa butun-butun xalqlar va davlatlarni o'z yo'rig'iga yuritishga intilayotgan kuchlar ham yo'q emas. Tajovuzkor millatchilik va shovinizm, neofashizm va kommunizm, irqchilik va diniy ekstremizm mafkuralari shular jumlasidandir. Natijada dunyoda inson qalbi va ongini egallash uchun kurash tobora kuchayib bormoqda. Bu hol bugungi kunda dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab bermoqda.

Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasini o'z maqsadlari yo'lida o'zgartirmoqchi bo'layotgan mafkura shakllari barqarorlik va taraqqiyotga tahdid solmoqda. Ularning asosiy shakllari va yo'nalishlari Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" nomli asarida ko'rsatib berilgan.

Taraqqiyotga nisbatan xavf-xatarlardan biri buyuk davlatchilik shovinizmidir. Buyuk davlatchilik shovinizmini, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, mafkuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin.

Shovinizm ba'zi ko'p sonli millatlarning nafaqat ko'p millatli imperiya doirasida, balki uni o'rab turgan jug'rofiy-siyosiy makonda ham o'zining mutlaq hukmronligini o'rnatish uchun kurashda namoyon bo'ladi".

Ko'rinib turibdiki, buyuk davlatchilik shovinizmi g'ayriinsoniy xarakterga ega. Zero, u mohiyatiga ko'ra milliy tengsizlikni oqlash, targ'ib-tashviq qilish hamda himoya qilishning o'ziga xos shaklidir.

Buyuk davlatchilik shovinizmining xavfi davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatining kattaligida emas, balki axborot orqali va mafkuraviy yo'l bilan taz'yiqlik ko'rsatish imkoniyatlarining kengligida, ular qo'lidagi g'oyaviy ta'sir ko'rsatish vosita va mexanizmlarining xilma-xilligida hamdir.

Buyuk davlatchilik shovinizmi bugungi kunda pansovetizm bilan o'ziga xos tarzda qo'shib ketmoqda. Pansovetizm tushunchasi uzoq vaqt davomida bir ittifoq doirasida yashash natijasida ijtimoiy-madaniy hayotda yuzaga kelgan muayyan yaqinlik, o'xshashlik, umumiylik, iqtisodiy aloqadorlik va bog'liqlikni mutlaqlashtirishga asoslangan. Ammo, Prezidentimiz o'rinli ta'kidlaganidek, bunday qarashlar ortida ham sodda kishilarning bosh-ko'zini aylantirib, o'z umrini yashab bo'lgan g'oyalarini hayotimizga qaytadan tiqishtirishga, shu yo'l bilan yana eski tuzumni tiklashga, bir so'z bilan aytganda, milliy o'zligimizni yo'qotishga qaratilgan intilish yotganini yoddan chiqarmaslik zarur.

Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan ekan, xilma-xil qarashlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga intilishi tabiiy, albatta. Bunga e'tiqod umumiyligiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o'ziga qaram qilishga bo'layotgan xatti-harakatlarni misol keltirish mumkin. Diniy aqidaparastlik shular jumlasidandir. Masalan, islom dinidagi hozirgi aqidaparastlar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qat'iy nazar barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib ularning yagona xalifalik ostida siyosiy birlashuvi g'oyasini asoslashga harakat qiladi. Ko'rinib turibdiki, bu diniy-siyosiy ideologiya diniy asosda birlashuv g'oyasini birinchi o'ringa qo'yadi. U diniy-ma'naviy zamindagi uyg'unlik mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ilmiy-texnik sohalaridagi hamkorligiga, ular salohiyatining birlashishiga va xalqlar taraqqiyotiga yo'l ochsa, buning nimasi yomon, degan savolni o'rta tashlaydi. Yuzaki qaraganda, bu gap to'g'riga o'xshaydi. Bunday mafkura tarafdorlari o'z qarashlarini aksariyat hollarda ana shunday "beozor" shaklda taqdim etishga harakat qiladilar.

Ammo, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, birinchidan, ular milliy suverenitetdan voz kechish yoki uni boy berish hisobiga yagona davlat tuzishni ko'zlayotganlari ma'lum bo'ladi.

Ikinchidan, xalifalikni tiklashga, uning to'g'ri ekanini asoslashga urinuvchilar, bu hol aynan millat sifatida o'zligimizni anglashga yo'l qo'ymasligini yashiradilar.

Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik huquqiy davlat, erkin fuqorolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilishlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish milliy mafkura va unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emasligi aniq. "Men, - deb yozadi Prezidentimiz, - Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan fikrini ko'p mushohada qilaman. Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ko'ra ham muhim va dolzarbdir".

Hozirgi davr va mafkuraviy poligonlar. Jamiyat hayotida mafkuraviy omillarning sezilarli ta'siri mavjudligini bir qarshdayoq sezish mumkin.

G'arazli geosiyosiy maqsadlarga erishish yo'lidagi mafkuraviy ta'sir o'tkazishda eng avvalo bo'lib tashla hukmronlik qil, degan qadimiy tamoyilga amal qilishga urinishni ta'kidlash zarur.

Bu tamoyilni ro'yobga chiqarishning birinchi yo'li mamlakat ichida ijtimoiy parokandalikni keltirib chiqarishdir. Va u jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. Masalan, mamlakatimizga nisbatan bu usul o'tish davridagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklarni bo'rttirib ko'rsatish orqali aholining mavjud holatdan noroziligini uyg'otish, o'z nog'oralariga o'ynaydigan muxolifatchi kuchlarni yuzaga keltirish yo'li bilan siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishga bo'lgan harakatlarda namoyon bo'ldi. Bu yo'lda diniy omildan foydalanishga bo'lgan urinishlar ham kuzatilayotir, ana shu holat ham

“maqsad vositani oqlaydi” degan aqida g’arazli geostrategik manfaatlarni ro’yobga chiqarishning asosiy qoidasiga aylanayotganligini ko’rsatadi.

“Bo’lib tashla va hukmronlik qil” tamoyilini amalga oshirishning ikkinchi yo’li mintaqa davlatlari o’rtasida turli ziddiyatlarni yuzaga keltirishdir. Bu yo’lning eng keng tarqalgan usuli go’yoki mintaqada gegemonlikka talabgor bo’lgan davlat borligini asoslash, ta’bir joiz bo’lsa, shunday davlat obrazini yaratishdir. Bunday obrazlarning yaratilishi yer yuzining turli nuqtalarida nizoli, kam deganda davlatlararo munosabatlarda tanglikni yuzaga keltirganligi to’g’risidagi misollarni istagancha topish mumkin. Bunday “obrazlar” yaratilishi natijasida mamlakatlarning moddiy-moliyaviy, ma’naviy-intellektual salohiyati jamiyat taraqqiyotini ta’minlash o’rniga ana shu “obraz” ta’sirining oldini olishga yo’naltirilmoqda. Natijada ikkinchi asosiy maqsadga – muayyan davlatni zaiflashtirish orqali o’z “ittifoqchisiga” aylantirishga erishilmoqda.

“Bo’lib tashla va hukmronlik qil” tamoyilini amalga oshirishning uchinchi yo’li xalqaro maydonda muayyan mamalakat haqida noto’g’ri, noxolis tasavvurlarni shakllantirishdir. Xalqaro munosabatlar maydonidan ayrim mamlakatlarning vaqti-vaqti bilan “quvg’in” qilinib turilishi ana shunday harakatlar natijasidir.

Imtiyozli hamkorlikni belgilash muayyan mintaqada geostrategik manfaatlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan yana bir tamoyildir. Albatta, muayyan sabablar, aytaylik, diniy, lisoniy birlik, madaniy yaqinlik yoki boshqa sabablarga ko’ra har bir davlat kim bilandir imtiyozli hamkorlik qilishi mumkin. Bu tabiiy holat. Ammo gap “imtiyozli hamkor”dan mintaqa davlatlari o’rtasida ayirmachilikni shakllantirish, “nomaqbul” davlatlar imkoniyatlarini cheklash yo’lida foydalanish, shu bilan birga “hamkor” davlatning mintaqadagi boshqa davlatlardan qaysidir jihatdan ustunligini ta’minlashga qaratilgan intilishlar haqida bormoqda. Aslida u yoki bu ko’rinishdagi ustunlikni ta’minlash ham asosiy maqsad emas. Bosh maqsad - muayyan mintaqaga ta’sir o’tkazish platsdarmiga ega bo’lishdir. Bunday platsdarmga ega bo’lishga intilish esa o’z navbatida ushbu mintaqaning geostrategik imkoniyatlari bilan belgilanadi. Imtiyozli hamkorni belgilashda ana shunday uzoqni ko’zlovchi g’arazli geosiyosiy va geostrategik maqsadlar ham yotishi mumkinligini unutmaslik lozim. Shu nuqtai nazardan qaraganda, “imtiyozli hamkor” tamoyili bo’lib tashla va hukmronlik qil tamoyilining to’ldiruvchisi sifatida yuzaga chiqadi. Bunga sobiq Ittifoqning Kubadan mintaqaga revolyutsiyani eksport qilish uchun foydalanishga uringani misol bo’la oladi.

Teng huquqli va o’zaro hamkorlik tamoyiliga amal qilish – geostrategik manfaatlarni ro’yobga chiqarish va davlatlararo aloqalarni mustahkamlashning eng oqilona va to’g’ri yo’lidir. O’zbekiston o’z mustaqilligining birinchi kularidanoq ana shu tamoyilga amal qilib kelmoqda. Negaki, bu tamoyil geostrategik manfaatlardagi uyg’unlikka erishish va jahon miqyosida taraqqiyotni ta’minlash omilidir.

Maflkuraviy immunitet va maflkuraviy profilaktika. Maflkuraviy ta’sir va tahdidlar haqida gap ketar ekan, ularni aniqlash, baholash xususiyatlarini yaqqol ko’rsatish uchun O’zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilmiy muomalaga bir qator tushunchalar kiritilganligini qayd etish lozim. Ular qatorida “maflkuraviy immunitet”, “maflkuraviy profilaktika” kabilar bor. Ana shu tushunchalar

oydinlashtirilganda hozirgi dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yanada yaqqolroq tasavvur qilish imkoni tug'iladi.

Hozirgi kunda Yer yuzining turli mintaqalari xalqlarining ongi va qalbi turli g'oyalarni sinash maydoniga, boshqacha aytganda mafkuraviy poligonga aylantirilmoqda. Xo'sh, mafkuraviy poligon deganda nimani tushunamiz? Polygon (grekcha serqirra degan ma'noni bildiradi) harbiy termin ekanligiga o'rganib qolganmiz. Odatda polygon deganda qurol-aslaha va texnikani sinash, qo'shinlarni harbiy tayyorgarlikdan o'tkazish yoki harbiy sohada mashq va tadqiqotlar olib borish uchun mo'ljallangan maxsus maydon tushuniladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarixga nazar tashlasak, o'zga hududlarni zabt etish maqsadida ishlatiladigan urush qurollari uzluksiz takomillashib borganini ko'ramiz. U nayzalardan toki avtomatik qurollargacha, zambaraklardan to yer yuzining har qanday nuqtasiga bexato yetib boradigan qit'alararo ballistik raketalarigacha bo'lgan uzoq takomil yo'lini bosib o'tdi. Bu qurollar bosib olinishi kerak bo'lgan aholisini jismonan yo'q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, o'zga hududlarni zabr etish uchun ularning aholisini yo'qotish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari "ma'qul" yo'nalishga o'zgartirilgan aholi ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib qolmoqda.

Mafkura poligonlarida sinovdan o'tayotgan, mohiyatan g'ayriinsoniy bo'lgan g'oyalarga qarshi tura olish uchun aholida mafkuraviy immunitet hosil qilish lozim. Immunitet (lotincha immunitas– ozod bo'lish, qutilish ma'nosini bildiradi) deganda organizmdagi mo'tadillikni saqlab, uni turli tashqi ta'sirlardan, infeksiyalardan himoya qilishga qodir bo'lgan muhofaza tizimi tushuniladi.

Avvalo, insonning ko'plab xususiyatlari tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur bo'ladi.

Ikkinchidan, u har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina mafkuraviy dahlsizlikni ta'minlash mumkin (immunitetga ega bo'lmagan chaqaloqning uzoq yashay olmasligini eslaylik).

Mafkuraviy immunitet tizimi o'z ichiga nimalarni oladi? Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo, bilimlar ko'p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasini va amaliyoti tarafdorlari ham muayyan "bilimlar"ga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, bir tomondan, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'yektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ikkinchi tomondan, bu bilimlar o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va xalq manfaatlarini, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak.

Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy qismi ana shunday bilimlar zahirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda mafkuraviy profilaktikaning o'rnini katta. U o'z mohiyatiga ko'ra, yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Demak, mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllarda ijtimoiy institutlar tomonidan amalga

oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuini, bu sohada to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

Tayanch tushunchalar:

Dunyoning mafkuraviy manzarasi, mafkuraviy poligonlar, mafkuraviy ta'sir, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy profilaktika.

Nazorat savollari:

1. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda nimani tushunasiz? Unda hukmronlik qilishga intilayotgan qanday mafkura shakllarini bilasiz?
2. Buyuk davlatchilikning mohiyati va xavfli jihatlari nimada?
3. Mafkuraviy poligon deganda nimani tushunasiz?
4. Mafkuraviy immunitetning qanday unsurlarini ajratib ko'rsatish mumkin?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T. "O'zbekiston" 1997.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. I-jild – T. "O'zbekiston" 1996 yil.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – II-jild – T. "O'zbekiston" 1996 yil.
 4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild – T. "O'zbekiston" 1996 yil.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lida. 4-jild.- T. "O'zbekiston" 1996 yil.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild.- T. "O'zbekiston". 1997 yil.
 7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild.- T. "O'zbekiston" 1998 yil.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. -T. "O'zbekiston" 2000 yil.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. -T. "O'zbekiston" 1998 yil.
10. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "O'zbekiston" 2000.
11. Siyosatshunoslik: ma'ruzalar matni. T. O'AJBNTM, 2000 yil.

7-mavzu: Globallashuv va uning namoyon bo'lish shakllari

1. "Globallashuv" tushunchasi. Globallashuv jarayoni chuqurlashib borishining asosiy bosqichlari va shart-sharoitlari.
2. Iqtisodiy integratsiya, uning asosiy yo'nalishlari. Antiglobalizmning mohiyati.
3. Siyosiy integratsiya va globallashuv. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy integratsiya jarayonlarining mintaqaviy xususiyatlari.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to'la ihtotalanib olgan birorta ham davlat yo'q, deb to'la ishonch bilan aytish mumkin. Xattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a'zo bo'lipshi istamayotgan mamlakatlar ham

bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Globallashuvning turli mamlakatlarga o'tkazayotgan ta'siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma'naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijo-biy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisani mohiyatini chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, kerak bo'lganda, uning yo'nalishini tegipshi tarzda o'zgartirish mumkin emas. Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvsiz kayiqni topshirib qo'yish bilan baravar bo'ladi.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ipshar endigina boshlanayotganidan guvohlik beradi. Globallashuv milliy ma'naviyatga ham ta'sir o'tkazadi. Har qanday siyosat, jumladan, iqtisodiy siyosat va ma'naviyat sohasidagi siyosat ham ilmiy asosga ega bo'lgandagina muvaffaqiyat keltirishini nazarda tutsak, bu masalada olimlarimiz siyosatchilarimizga etarli ko'mak berishlarini e'tirof etishga to'g'ri keladi. Mamlakatimizning jahon maydonida olib borayotgan siyosati ko'proq samara va muvaffaqiyat keltirishini istasak, globallashuvning mohiyati, yo'nalishlari, xususiyatlarini chuqurroq tadqiq va tahlil qilish zarur. Aynan shu jarayonni chuqurroq tahlil etish orqali siyosatchilarning to'g'ri yo'l tanlashi va qarorlar qabul qilishi uchun imkoniyat yaratish mumkin.

Globallashuv — turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishidir.

Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olgani, bizningcha, frantsuz tadqiqotchisi B.Bandi bergan ta'rif. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

- globallashuv — muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- globallashuv — jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- globallashuv — milliy chegaralarning "yuvilib ketish" jarayoni.

B.Bandi ta'rifida keltirilgan globallashuv o'lchovlarining har uchalasiga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning har uchovi ham unda mavjud ekanini ko'ramiz.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodiy siyosati va ma'naviyatiga o'tkazipsh mumkin bo'lgan ijobiy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida yaxshi ifodalangan: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. SHu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman".

SHuning uchun ham milliy istiqlol g'oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda, "dovullar"dan saqlash omili ekanligini anglash muhim.

Hozirgi zamon globallashuv jarayo-ni o'ta murakkab hodisa. Uning turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana ham murakkab bo'lgani sababli unga nisbatan ham jahonda bir-biriga nisbatan raqobatda bo'lgan ikki guruh: globalistlar va aksilglobalistlar guruhlari vujudga keldi.

Milliy ma'naviyatimizni va ma'naviy o'zligimizni tahdidlardan himoya qilish uchun milliy istiqlol g'oyasi-dan samaraliroq va kuchliroq vosita yo'q. SHu masalada milliy istiqlol

g'oyasining juda muhim funktsiyasi, ya'ni milliy va ma'naviy o'zlikni himoyalash kabi muhim funktsiyasi namoyon bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasi ana shu funktsiyani bajarishi uchun esa yoshlar va aholi ongida faqat bilim, tasavvur sifatida emas, ishonch va e'tiqod sifatida shakllanishi lozim. Milliy istiqlol g'oyasining shakllantirilishi va uning o'quvchilar, talabalar, keng aholi tomonidan o'rganishga kirishilishi mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotida alohida bosqichni tashkil qiladi. Aslida, milliy istiqlol g'oyasining negizlari chuqur. U xalqimizning milliy madaniy merosidan, ezgu g'oyalardan oziqlanadi. Lekin, bu g'oyani yoshlar va aholi ongiga singdirish uchun muayyan poydevor kerak edi. YA'ni, avvalo milliy qadriatlarni, milliy ma'naviyatni tiklash, milliy g'ururni uyg'otish, bir so'z bilan aytganda, milliy istiqlol g'oyasi tomir otishi va gurkirab rivojlanishi uchun zamin tayyorlash lozim edi. Mustaqillik qo'lga kiritilgandan buyon o'tgan davr ichida ma'naviyat sohasida ulkan nazariy, ma'rifiy va amaliy ishlar bajarildi. Ma'naviyat va ma'rifat kengapshari to'zildi, yuzlab maqola va risolalar nashr etildi, tadqiqotlar o'tkazildi, ta'lim to'g'risida milliy dastur qabul qilindi. Bir so'z bilan aytganda, milliy istiqlol g'oyasini keng targ'ib qilish uchun zamin yaratildi.

Milliy ietqlol g'oyasini targ'ib qilishda, bizningcha, ba'zan bir tomonlamalikka yo'l qo'yilmoqda. Bu g'oyani targ'ib qilishda ishtirok etayotgan murabbiy va o'qituvchilar, tadqiqotchilarning chiqishlarida, maqola va risolalarida ma'rifatchilik bilan cheklanish ko'zga tashlanmoqda. Holbuki, ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy yondashuv ma'rifiy yondashuv bo'lsa ham, milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishda bu yondashuv bilan cheklanib bo'lmaydi. Bu hol milliy istiqlol g'oyasining xususiyatlari bilan bog'liq.

, Milliy g'oya jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko'ndalang qo'yayotgan masalalarni hal qilishga, chetdan bo'layotgan g'oyaviy, ma'naviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Jahondagi globallashuv jarayonlari ana shu g'oyaga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytiradi. Aslini olganda, globallashuv jarayoni bo'lmasa, milliy g'oyaga ham ehtiyoj oshmas edi. CHunki, globallashuv bo'lmaganda har bir xalq va millatning ma'naviyati o'zicha mavjud bo'lar va imkoniyat darajasida rivoj topardi. Tashqi ta'sir va taxdadning yo'qligi esa milliy g'oyaga ehtiyojni ham dolzarblashtirmas edi.

Milliy istiqlol g'oyasining mohiyati shundaki, u odamlar ongida, xotirasida g'oyaligicha qolmay, amaliyotga, hayotga aylangan taqdirdagina haqiqiy milliy va haqiqiy istiqlol g'oyasi bo'lishi mumkin. SHundagina u globallashuv sharoitida

milliy ma'naviyatni va ma'naviy o'zlikni tashqi nosog'lom g'oyaviy tahdidlardan ximoya qiladigan kuchga aylanadi.

Asosiy darsliklar va adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: "O'zbekiston" 2003 yil.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6.-T.: "O'zbekiston", 1997 yil, 31-40, 125-135, 149-162 betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi PQ 451 sonli qarori. 2006 yil 25 avgust.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8.-T.: "O'zbekiston", 2000 yil, 489-508 betlar.
Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8.-T.: "O'zbekiston", 2000 yil, 462-467 betlar.
Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: "O'zbekiston", 2001 yil
Milliy istiqlol g'oyasi. Darslik.-T.: "Akademiya ", 2005 yil
YUnusov K. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Andijon. TND Servis. 2003 yil.
Alimova D. Insoniyat tarixi - g'oya va mafkuralar tarixidir.-T.: "YAngi asr avlodi", 2001 yil.
Boboev G'., G'ofurov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot.-T.: "YAngi asr avlodi", 2001 yil.
Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet.-T.: "Ma'naviyat", 2001 yil.
"Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo'yicha o'quv dasturini tayyorlash va ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvardagi Farmoyishi.
Nazarov Q. Milliy istiqlol g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari.-T.: "YAngi asr avlodi", 2001 yil.
Norboev T., Ortiqov M., Usmonov M. G'oya va mafkura.-T.: "YAngi asr avlodi", 2001 yil.

8-mavzu: Mafkuraviy jarayonlarda globallashuvning namoyon bo'lish xususiyatlari

Reja:


1. Turli ko'rinishdagi mafkuralarning transnatsional xarakter kasb etishini keltirib chiqaruvchi omillar..
2. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida ommaviy axborot vositalarining o'rni.
3. Informatsion xavfsizlikni ta'minlash masalalari.

Globallashuv – dunyodagi turli davlat va hududlarning o'zaro bog'liqligining kuchayishi jarayonidir.

Globallashuv – murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, iqtisodiy yo'nalishdagi sabablar oqibatidir va inson hayot faoliyatining barcha jabhalarida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi.

Globallashuv – butun dunyoni qamrab olgan madaniy inqilob.

Hozirgi zamon dunyosining o'ziga xos xususiyati shundaki, bugungi kunda davlatlar nafaqat o'z hududiy yaxlitligi va siyosiy-iqtisodiy mustaqilligini, balki “axborotlashgan davr” sharoitida turli shakl va ko'rinishdagi madaniy unifikatsiyalash hurujlariga, “ramziy zo'ravonlik”ka uchrayotgan ramziy universumlarini himoya qilishga majbur bo'lmoqdalar.



“Globallashuv madaniyat sohasidagi plyuralizmga jiddiy xavf solmoqda: tabiiy bo'lgan an'analarning buzilishi va e'tiqod, qadriyat va yashash tarzlarini tanlash imkoniyatining paydo bolishi. Asosli ravishda aytish mumkinki, bu jarayon individual, shuningdek jamoaviy erkinlikning ortib borishiga olib boradi. Erkinlikni qadrlagan kishi bu rivojlanishni, u qanchalik qimmatga tushmasin, qoralanishi gumondan holi”.

Piter Berger.

“Axborotlashgan jamiyatda hokimiyat fundamental pog'onada madaniy kodlarga kirib boradi. Odamlar va institutlar esa ular orqali hayotni tasavvur etadilar va tegishli qarorlar, jumladan, siyosiy qarorlar qabul qiladilar. Shu ma'noda hokimiyat, u real bo'lganda moddiy bo'ladi”.

Manuel Kastel's.

Shunday ekan, globallashuvga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Globallashuv – ramzlar va ramz doirasidagi o'zgarishlarning umumjahoniy jarayoni bo'lib, uning davomida har bir jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar, ijtimoiy-madaniy ko'nikma va amaliyot hamda ravshanlik kategoriyasi soxtalashtiriladi va yoki qayta tavsiflanadi".

Global dunyoda davlat yoki hududlarning ramzlari ziddiyatga kirishadi va bir paytning o'zida birga mavjud bo'lib, birga yashash zaruratini his etadi.

O'z-o'zidan ayonki, kuchli davlatlar o'z hayotiy ramzlarini himoya qilish uchun barcha vositalarni ishga soladilar, jumladan, o'z "yashash tarzlarini" boshqa hududlarga yoyishga harakat qiladilar. Boshqa so'zlar bilan aytganda, o'z ramzlari kompleksini intervensiyasini amalga oshiradilar.

Janub davlatlari atigi 4% kompyuterlarga ega, telefonlarning 75% dunyoning 9 ta eng boy davlatlarida jamlangan. Yaponiyaning o'zida Afrikaning 50 ta davlatidan ko'ra telefonlar ko'p. 39 ta rivojlanayotgan davlatlarda 1 ta ham gazeta yo'q, yana 30 tasida faqat 1 ta. Bir paytning o'zida Yaponiyada 125 ta kundalik gazeta bor, AQSHda 1687.

Boy davlatlarda 1000 kishiga 911 ta radio (447 ta televizor) to'g'ri keladi, kambag'al davlatlarda 142 ta radio (36 ta televizor)


Bu axborot oqimining yo'nalishini ham belgilaydi. Shimolda janubga 100 barobar ko'p axborot boradi. Masalan, Yevropa Afrikaga yiliga 855 soat translyatsiya qiladi. Afrika esa Yevropaga 70 soat.

Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra dunyo 80% axborotni London, Parij va Niyu-Yorkdan oladi.


Ramzlar intervensiyasi – "manipulyatsiya qilish doirasini" oshirish orqali dunyoni o'z ta'siri ostiga olishning qulay vositasidir.

_(AQSHning butun dunyoga demokratiya haqidagi o'z tushunchalarini yoyishi, SSSRning sotsializm haqidagi o'z talqinini targ'ib etishi, diniy missionerlik).

Dunyoga egalik qilish uchun ramzlar orqali bosimni amalga oshirish kifoya.



“Hech qanday dinlar yoki “tamaddunlar to’qnashuvi” amalda yo’q hamda gap islom va Amerika masalasidan ancha yuqori turgan narsalar haqida bormog’i lozim. Biz o’z-o’ziga qarshi kurashayotgan g’olibona globallashuvni kuzatayapmiz... bu degani, dunyoning o’zi, butun yer kurrasi globallashuvga qarshilik ko’rsatmoqda”.



Bugungi kundagi jahon tarixi – taqdiri umumiy bo’lgan yer kurrasidagi barcha xalq, mamlakat va hududlarni o’z ichiga olgan umumtamaddun oqimdir. Bu oqimga ular o’z noyob madaniyati, an’analari, betakror tarixiy tajribasi bilan qo’shiladi. Bu qarama-qarshilik asosidagi birlik aslida dunyo yaxlitligini tashkil etadi, uning boyligini ifodalaydi, uning harakatdagi murakkab tizim sifatidagi yashovchanligini belgilaydi.

Insoniyat dunyoning rang-barangligi asosidagi borligini anglasa, tan olsa milliylik va umuminsoniylikni optimal darajasida birlashtira olsa, integratsiyalashuv jarayonining zamini yashovchan va mustahkam bo’ladi.

O’zbekiston qadimdan turli dinlar tarqalgan o’lka bo’lib, islomdan avval zardo’shtiylik, xristianlik, yaxudiylik va boshqa o’nga yaqin dinlar mavjud bo’lgan. Dinlararo munosabatlarda bironta nizo chiqqanligi tarixiy kitoblarda qayd etilmagan.

Mo'g'ul bosqini islomlashtirish jarayonini to'xtatib qo'ya olmadi. Tasavvuf tariqatlari rivoj topib, Islomni bizning zaminda o'ziga xos belgi olishga sababchi bo'ldi. Bu davrda Islom tasavvuf shaklida Markaziy Osiyoda ma'naviy va g'oyaviy kuch sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Amir Temurning mug'ullarga qarshi sarbadorlar kurashida ham sufiylar faol ishtirok etdilar. Tarixdan ma'lumki Amir Temur Islom dinini o'ziga xos, mutaasiblikdan xoli, erkin tushungan. Uning komil e'tiqodi boshqa dinlarni rad etish hisobiga bo'lmagan va bu jihatdan u nafaqat o'z asri, balki hozirgi zamon kishisi uchun ham namunadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18, 31, 61-moddalarida ham "Din va vijdon erkinligi" masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Unda xalqimiz ruhiga mos keladigan imon-e'tiqod, adlu insof, diyonat, mehru oqibat, or-nomus, iffat va hayo kabi ezgu fazilatlar o'z aksini topgan. Bundan tashqari asosiy qomusda O'zbekiston hududida yashovchi har bir fuqaroning manfaatlari, huquq va burchlari qonun asosida belgilab qo'yilgan. Asosiy qonunimiz O'zbekiston fuqarosini millati, irqi va dinidan qat'iy nazar teng huquqli deb biladi, shuningdek, ularning vijdon erkinligini, urf-odatlarini, milliy an'analarini hurmat qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qomusiy qoida 1998 yil 1 may kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunda ham o'z ifodasini topgan.

Qonunning 23-moddasida belgilanganidek, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar, diniy tashkilotlarning xizmatidagilar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Bu modda qonun oldida barcha bir xil javobgar bo'lishini ta'minlaydi.

1998 yilning 1 may kuni O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Ma'muriy kodekslariga ham qo'shimcha o'zgartirishlar kiritildi va yangi moddalar bilan to'ldirildi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy kodeksining 184, 1841, 201, 2021, 240, 241, moddalari, Jinoyat kodeksining 53, 145, 156, 158, 159, 190, 216, 2161, 2162, 2292, 242, 2441, 244 va 246 moddalari shular jumlasidandir.

Kommunistik tuzum davrida vijdon erkinligi qog'ozda kafolatlandi va hayotda paymol etildi. XX asrning boshida Buxoroda 300, Qo'qonda esa 382 masjid bo'lgan. 1917 yil 22 noyabrda xalq komissarlari soveti Rossiya va Sharq musulmonlariga murojaat etib, vijdon erkinligini kafolatlaydi, aslida esa birgina 1918 va 1933 yillar mobaynida 3600 masjid yopiladi. O'zbekistonda ateizm islomga qarshi kurashib, unga asoslangan ko'xna milliy merosni xalq ongidan sildirib tashlashga urinadi.

Ammo, natijada din arboblari pinhona ish tutib, yashirin islom strukturalari shakllanadi, ular G'arbda parallel yoki norasmiy islom nomini oladi. Musulmon ruhoniylarining eng ma'rifatli qismi yo'q qilindi yoki xorijga qochishga majbur bo'ldi. 1930 yillarning oxiriga kelib barcha masjidlar va madrasalar yopildi. (inqilobgacha ularning soni 10000 bo'lgan).

Biroq II-jahon urushi yillari sovet tuzumi xalqni kurashga safarbar etish niyatida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasini tashkil etadi, 70 masjid va ikkita diniy madrasa ochishga ruhsat beradi. Aynan shu yillarda Navoiy haqida fil'm qo'yildi. Amir Temurning Hindistonga yurishi haqidagi asar tarjima

qilinib, nashr etildi. Mamlakat uchun sinov yillari azaliy ma'naviyat va ma'rifat esga olindi va bu o'z samarasini berdi.

Darhaqiqat, mazkur voqealar haqida nafaqat bizning matbuotimizda, balki xorijiy mamlakatlarda ham ko'p-ko'p chiqishlar bo'lmoqda. Ularda turli xil ehtimollar, tasmol va gumonlar bayon etilmoqda. Qabih niyatlar bilan qilingan bu mudhish ishlar orqasida turgan kuchlarning aqlga sig'maydigan qilmishlari to'g'risida xolis, vazmin mulohazalar bilan bir qatorda ayrim ommaviy axborot vositalarida asossiz fikrlar, biryoqlama qarashlar, yengil-yelpi xulosalar ham ko'zga tashlanmoqda. Bunga shov-shuv gaplarga o'ch ba'zi "chaqqon" jurnalistlarning, muayyan siyosiy va moddiy manfaatlar nuqtai nazaridan ish ko'radigan mutaxassis va sharxlovchilarning xatti-harakatlari ham sabab bo'lmoqda.

Muqaddas islom dinimizning hayotimizdagi o'rnini yaxshi anglamaydigan odamlar ham bu nozik, murakkab mavzuga bilar-bilmas aralashmoqda. Bu xususda so'z yuritayotgan ayrim mualliflar bizning tariximizni, bugungi kunimizni, milliy xususiyatlarimizni, islom dinining O'zbekiston hayotidagi ahamiyatini, uning odamlar ruhiy dunyosiga ko'rsatayotgan ta'sirini yaxshi tushunmaydi.

"O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" nomli kitobda bu haqda to'xtalib, din madaniy, ma'naviy, insoniy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishda beqiyos xizmat qilganligi ta'kidlab o'tiladi.

Bizning musulmonchiligimiz, Ollohga, dinimizga munosabatimiz ba'zi milliy qadriyatlarimizda ham yaqqol ko'rinadiki, har bir musulmon yurtdoshimiz ularga beixtiyor rioya qiladi.

Hammamizga tanish bir manzarani eslaylik. Ko'chada tobut ko'tarib borilyapti. Duch kelgan yo'lovchi – u piyodami, mashinadami yoki o'tliqmi – darhol yugurib kelib tobutga yelkasini tutadi. Kamida yetti qadam uni ko'tarishib boradi. Marhumni taniydimi, tanimaydimi, bundan qat'i nazar, Xudo rahmat qilsin, deya yuziga fотиha tortadi.

Axir, shuning o'zi ham musulmonchilik, Ollohni tanishning bir ko'rinishi emasmi? Axir, shuning o'zi ham Tangri taolaga itoat etish, oxiratni o'ylab yashashning bir misoli emasmi?

Eng muhimi, biz bu ishlarni namoyish uchun emas, iymonimiz, e'tiqodimiz amri bilan ado etamiz.

Sivilizatsion rivojlanishning zamonaviy bosqichida axborot davlat, jamiyat institutlari hamda shaxs hayoti faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Keng ma'noda xavfsizlik – xavfning yo'qligi, ya'ni shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining xavf – xatardan himoyalanganlik holatidir. Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, axborotning xavfsizligi – bu ma'lumot joylashtirilgan axborot tashuvchi moddiy vositalarning qasddan yoki ehtiyotsizlik natijasida yo'q qilish yoki o'zgartirish kiritishdan himoyalanganlik holatidir. Axborotning xavfsizligi tashkiliy, me'yoriy-huquqiy, qo'riqlash tizimi va boshqa tadbirlarni qo'llash jarayonida amalga oshiriladi.

O'z navbatida information xavfsizlik tushunchasi shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari yo'lida information borliqning shakllanishi, rivojlanishi hamda undan foydalanish imkoniyatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi.

Informatika va informatsiyalashtirish jarayoni shu qadar shiddat bilan rivojlanib bormoqdaki, insoniyat nafaqat uning oqibatlarini bashorat qilish, balki uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va harbiy sohalaridagi salbiy oqibatlarini anglashga ham ulgurmay qolmoqda. Shuning uchun information xavfsizlik milliy xavfsizlik tizimining tarkibiy elementi bo'lishi bilan birga ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holatiga u yoki bu tarzda ta'sir ko'rsatib, milliy xavfsizlikning barcha sohalarida mavjud bo'ladi.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot jarayonida informatsiya va information texnologiyalar asosiy milliy resurslardan biriga aylanmoqda. Shu bilan birga ijtimoiy jarayonlarning information ta'sirlardan zarar ko'rish holatlari ham kuchayib bormoqdaki, bu esa o'z navbatida, davlat milliy xavfsizligiga real tahdid solishi mumkin.

Bugungi kunda information sohadagi tahdidlardan yanada himoyalaniish maqsadida information xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi asosiy tushunchalarni aniqlash va o'rganish, uning mohiyati, tuzilishi va xususiyatlarini tahlil qilish zaruriyati tug'ilganini ta'kidlash lozim.

Rossiya olimlaridan A.V.Fyodrov information xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi informatsiya tushunchasiga quyidagi ta'riflarni beradi: informatsiya bu –

1. manbalari va namoyon bo'lishidan qat'i nazar, shaxs, buyum, faktlar, voqealar, qarashlar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
2. insonlar tomonidan biror ishning borishi yoki biror narsa to'g'risida beriladigan xabar;
3. boshqaruv bilan uzviy bog'liq bo'lgan ma'lumotlar;
4. turli xil ob'yekt va jarayonlardagi o'tish holatlari;
5. ma'lumot olish natijasida noaniqlikning kamayishi va yechilish holati.

1993 yilda AQSH xavfsizligi bo'yicha uyushgan komissiya Kongressda qilgan ma'ruzasida, kelgusida ma'lumotlar tarqatish tarmog'i asosiy kurash maydoniga aylanishini ta'kidlagan edi.

Information texnologiyalarda mudofaa va hujum qilishda elektron tezliklar hech qanday qon to'kishlarsiz iqtisodiy-siyosiy inqirozlarning oldini olishni ta'minlash imkoniyatlarini yaratmoqda.

Shunday ekan, jamiyatning barcha sohalarida informatsion xavfsizlikni ta'minlash har bir davlatning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Information xavfsizlikning global kommunikatsion borliqning tarkibiga kirishi hozirgi davrning muhim masalalaridan biriga aylandi. U o'zining imkoniyatlari va cheksizligi bilan milliy xavfsizlik tizimidagi barcha information qarashlarning tahdidlarini o'ziga tortadi.

Demak, **information xavfsizlik** – shaxs, jamiyat, davlat hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi information tahdidlardan himoyalanganlik holati, ularning oldini olish va neytrallashtirish tadbirlari majmuidir; bu fuqarolar, tashkilotlar va davlatlar manfaatlarining rivojlanishi va shakllanishini ta'minlab beruvchi information borliqning himoyalanganlik holati.

Siyosatshunos R.Alimov information xavfsizlik borasida quyidagicha fikr bildirgan: information xavfsizlik – fuqarolar, tashkilotlar va davlatlarning

manfaatlari yo'lida information borliqning shakllanishi va rivojlanishining himoyalanganlik holati; tizimning informatsiyadan foydalanishida uning o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan infratuzilmaviy holati; informatsiyaning manfiylik, butunlik va muhimlik mezonlarining buzilmaslik holati.

Shunga o'xshash fikr Rossiya information xavfsizlik doktrinasida ham berilgan bo'lib, unga ko'ra, information xavfsizlik deb, information sohada shaxs, jamiyat va davlatning muvozanatlashgan manfaatlari yig'indisini belgilaydigan milliy manfaatlarning himoyalanganlik holati tushuniladi.

Information xavfsizlikning maqsadi huquqiy, tashkiliy va texnik tadbirlar o'tkazish orqali information texnologiyalar, infratuzilmalar va information resurslarni shakllantirishda information faoliyat sub'yektlarining huquqlarini himoya qilishdir.

O'zbekistonda ham boshqa davlatlardagi kabi information xavfsizlikni ta'minlash muammosi mamlakatning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham bu muhim vazifani har tomonlama o'rganib chiqish uchun **information xavfsizlikning ob'yekti va sub'yektlarini** aniqlab olish kerak.

Information xavfsizlikning ob'yektlari: davlat, jamiyat, shaxs manfaatlariga tegishli bo'lgan informatsiya, shuningdek, ularni qayta ishlovchi, uzatuvchi vositalar va infrastrukturalar.

Information xavfsizlikning sub'yektlari: axborot resurslarining shakllanishi va ishlatilishida ishtirok etuvchi, o'z vakolati doirasida information xavfsizlik sub'yektlari orasidagi munosabatlarni boshqaruvchi davlat va hokimiyat organlari; axborot resurslarini ishlab chiqaruvchi, mulkdori va foydalanuvchisi bo'lgan davlat boshqaruvi va hokimiyat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar; information xavfsizlikni ta'minlashning vositalari ustida ilmiy tadqiqot o'tkazuvchi, ishlab chiqarish hamda yaratish bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar; mulkchilik shaklidan qat'i nazar ommaviy axborot vositalari hisoblanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, information borliqda shaxs, jamiyat va davlatning information xavfsizligini ta'minlash quyidagi zaruriy omillarning mavjudligiga bog'liqligi kelib chiqadi. Ya'ni;

- shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining shakllanishini ta'minlovchi information borliqning himoyalanganlik holati;
- infratuzilma tizimi (ob'yekt, davlat) ning holati, ya'ni informatsiya faqat maqsad bo'yicha ishlatilib, uni ishlatish jarayonida tizimga (ob'yekt, davlat) salbiy ta'sir etmaslik;
- informatsiyaning holati, ya'ni informatsiyaning manfiylik, yaxlitlik va foydalanish imkoniyati kabi xususiyatlarining buzilishining keskin qiyinlashishi yoki istisno etilishi.

Information xavfsizlik ta'minlanadigan eng asosiy sohalarga siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy, ilmiy-texnikaviy, huquqni saqlash, shuningdek, mudofaa sohasi va jamoat ongini kiritishimiz mumkin.

Information xavfsizlik mezonlari deganda, informatsiyaning yo'q bo'lib ketishi, tashqariga chiqib ketishi kabi o'z qimmatini yo'qotuvchi shakllardan himoyalanganlik holati tushuniladi.

Information xavfsizlik tizimida information resurslarning ahamiyati katta bo'lib, ular jamiyat ishlab chiqarish mahsuli hisoblanadi hamda egalik qilish va foydalanish huquqlarining ob'yektlaridir.

Information xavfsizlikka tahdid esa, information sohada shaxs, jamiyat va davlatning muhim manfaatlariga zarar yetkazish imkoniyatlarini o'zida jamlagan omillar yig'indisi tushuniladi.

Information xavfsizlikka tahdidlar tashqi va ichki tahdidlarga bo'linadi.

Tashqi tahdidlar:

- chet el davlatlarining global information monitoringi, informatsiya va yangi information texnologiyalarni tarqatish borasidagi nodo'stona siyosati;
- davlat manfaatlariga qarshi yo'naltirilgan chet el siyosiy, iqtisodiy va ekstremistik tuzilmalarning faoliyati;
- chet el davlatlari maxsus xizmatlarining razvedkaviy faoliyati.

Ichki tahdidlar:

- siyosiy, iqtisodiy, jamoat tuzilmalari, alohida shaxs va guruhlarning informatsiyani shakllantirish, yoyish va foydalanish sohasidagi noqonuniy faoliyatlari;
- ichki information urush;
- chet el nodavlat tuzilmalari va tashkilotlarining davlat manfaatlari va xavfsizligiga zid keluvchi xatti-harakatlari;
- yuridik va jismoniy shaxslarning informatsiyani shakllantirish, yoyish va foydalanish sohasidagi noqonuniy faoliyatlari.

Shu o'rinda, information urush tushunchasiga alohida e'tibor qaratish lozim. Information urush – Qurolli kuchlar, maxsus xizmatlar va boshqa tashkilotlarning o'z mamlakatining manfaatlari yo'lida amalga oshiriladigan va raqib ustidan information ustunlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar va operatsiyalar majmuasidir.

Demak, information urush – konfliktning bir ko'rinishi bo'lib, unda qarama-qarshi tomonlar o'z raqibiga jismoniy, moddiy, psixologik yoki boshqa zarar yetkazish maqsadida information infratuzilmalar elementlaridan foydalaniladi. Bunda har bir davlat information infratuzilmasining asosiy komponenti sifatida ommaviy axborot vositalari namoyon bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Xavfsizlik, axborot xavfsizligi, milliy xavfsizlik, informatsiya, tashqi va ichki tahdidlar, information urush.

Globallashuv, axborot oqimi, ramzlar intervensiyasi, integratsiyalashuv jarayonlari, vijdon erkinligi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Globallashuv deganda qanday jarayon nazarda tutiladi?

2. O'zbekistonda dinga bo'lgan munosabat haqida nimalarni bilasiz?
3. Qaysi hujjatlarda davlatning dinga bo'lgan munosabati aks etgan?
4. Informationsion xavfsizlik nima?
5. O'zbekistonda information xavfsizlikni ta'minlash muammosi o'z yechimini qanday topmoqda?
6. Informationsion xavfsizlikning ob'yekti va sub'yektiga qanday jarayonlarni kiritish mumkin?

Adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi" (Asosiy qonun) va qonunlar majmui. T."Adolat" 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida. (Yangi tahriri). T."Aolat" 1998.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T. "O'zbekiston" 1997.
4. Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin", "Tafakkur" jurnali, 1998.
5. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T. "Sharq".1998. 32-b.
6. Karimov I.A. "Hushyorlikka da'vat". T. "O'zbekiston" 1999.
7. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T. "O'zbekiston" 2000.
8. Karimov I.A. "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir". "Fidokor" gazetasi. 2000 yil 8- iyun.
9. Temur tuzuklari. T. "G'. G'ulom" nomidagi nashriyot-matbba birlashmasi. 1991 yil.
10. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "O'zbekiston" 2000.
11. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T. "Sharq". 1998. 32-b.
12. N.Komilov, K.Jo'rayev. Davlat, jamiyat va din. O'quv qo'llanma. T. "Akademiya". 2006.

9-mavzu: Markaziy Osiyodagi mafkuraviy jarayonlar.

Reja:

1. Hozirgi davrda xavf-xatar va tahdidlar kuchayishininng ob'yektiv va sub'yektiv sabablari.
2. Xavf-xatarning ijtimoiy voqelik ekanligi
3. Insoniyat faoliyatida "bevosita xavfning" kuchayishi.

Dunyo siyosatida ro'y berayotgan ulkan yangilanishlar ta'sirida olamni tushunish, idrok etish va unga munosabat ham o'zgarganligining guvohi bo'lib turibmiz. Mamlakatimizda ham inson haqidagi tasavvurlar o'zgarib bormoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, bugungi kun kishilari kechagi kun odamlaridan tubdan farq qiladi. Milliy ma'naviyat va qadriyatlarimizning qayta tiklanishi, o'zligimizni

anglay boshlaganimiz tufayli bugun har birimizning ongimizda, tafakkur tarzimizda muhim ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Har bir fuqoroning o'ziga, ertangi kunga ishonchi ortib bormoqda.

Taraqqiyot jarayonida ijtimoiy munosabatlar chuqurlashib, davlatimiz murakkab umumbashariy muloqot tizimiga uyg'unlashib borayotgan pallada rahbar kadrlar mas'uliyati kuchayib boradi. Mas'uliyatni his qilish esa, birinchi navbatda, davlat va umummilliy manfaatlar darajasida fikr qilish bilan uzviy bog'liqdir. Ona zaminga muhabbat, vatanparvarlik tuyg'usi elu yurtga tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday xavf-xatarni yengishning asosiy manbaidir. Shunday ekan, Vatan xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda, uning kuch-qudratini yanada oshirishda inson salohiyati, ya'ni inson omilining o'rni beqiyosdir. Davr inson dunyoqarashi va faoliyatida sifat jihatdan o'zgarish ro'y berishini, o'zligini anglab yetishini taqozo etmoqda. Darhaqiqat, inson aql-idroki, zakovati va salohiyati ijtimoiy taraqqiyot, olam yaxlitligining birdan-bir omiliga aylanishiga ehtiyoj kuchaymoqda. Turli-tuman tahdidlarni bartaraf etish faqat va faqat inson zimmasiga tushmoqda. Shu bois jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan bunyodkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan, hayotimizni obod va farovon bo'lishiga xizmat qiladigan yangi ishlanmalar, taklif va tavsiyalar bugun har qachongidan ham zarurdir.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilligida insoniyat hayotida ro'y bergan muhim o'zgarishlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Birinchidan. Ikki qutbli dunyo, "sovuq urush" muhiti barham topdi va insoniyatning yagona makonda yakdil maqsad sari yashashi uchun imkoniyat paydo bo'ldi.

Ikkinchidan. Dunyo xaritasida asosan, Markaziy Osiyo, Boltiqbo'yi va Sharqiy Yevropa mintaqalari hisobiga yangi milliy davlatlar paydo bo'lib, demokratik rivojlanish yo'liga kirdi.

Uchinchidan. Inson huquqlarini amalda ro'yobga chiqarish, dunyo xalqlarining yagona maqsadi – tinch va farovon hayotini barpo qilish va integratsiyalashish yo'nalishlarida amaliy ishlar boshlandi.

Bu o'zgarishlar jahon taraqqiyotiga oid eski andoza va qoliplarni qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Jahon tarixida iz qoldirgan ko'plab olim va mutaxassislar, siyosatchi va davlat arboblari "taraqqiyot" tushunchasiga oid o'z qarashlarini bayon etgan. Ularning aksariyati "taraqqioyot" faqat quyidan yuqoriga qarab borish g'oyasini yoqlab chiqadi.

Biri taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisi kommunizm deb ta'riflansa, boshqasi uni "G'arb demokratiyasi" deb atagan. Amalda esa har ikkalasi mohiyatan bitta bo'lib, u hayot faoliyatining quyidan yuqoriga qarab harakatidan iborat ekani haqidagi fikrni ifoda etadi. Bu jarayonni bir tomonlama tushuntirishga intilish "5 formatsiya" nazariyasida o'z aksini topgan. Uning tarafdorlari nazarida taraqqiyot **ibtidoiy, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va pirovardida kommunizm bosqichlarining** ketma-ketligidan tashkil topgan. Mazkur ta'limot hech qaysi millat bu chiziqli doirasidan chiqa olmasligi va chiqishi mumkin ham emasligi barcha millatlar ana shi 5 ta formatsiyani bosib o'tishi shart ekanligini ta'kidlab kelgan.

Masalan, Malayziya davlatini olaylik. U o'ziga xos rivojlanish yo'lini tanlab, taraqqiyotning yuqori cho'qqisini zabt etdi. Yohud Xitoy tanlagan taraqqiyot yo'li ham butun jahon hamjamiyatini hayratda qoldirdi desak, xato bo'lmaydi. Marksistik nuqtai-nazardan qaraganda, ularning taraqqiyoti to'xtagan davlar sifatida qabul qilishimiz kerak edi. Hayot esa buning aksini tasdiqlamoqda.

Demak, bundan xulosa qilib aytish mumkinki, dunyoda turli jamiyat yoki davlat qancha ko'p bo'lsa, taraqqiyot yo'llari va modellari shuncha ko'p bo'lishi mumkin ekan. Zero har bir davlat yoki millat tarixiy tajribasi, urf-odatlar va an'alaridan kelib chiqqan o'ziga xos taraqqiyot yo'nalishini belgilash imkoniyati va huquqiga ega. Har bir davr esa yangicha yondoshuv va fikrlashni taqozo etadi. Aks holda jamiyat hayotida faoliyat va tafakkur tanballigi paydo bo'lishi hech gap emas.

Shunday ekan, bugungi kunda yangi tarixiy bosqich, ya'ni **yangi davr** haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq. Ko'z o'ngimizda vujudga kelayotgan vaziyatni hisobga olib, aksariyat olimlar insoniyat "qaltis davrga qadam qo'ydi", deb ta'kidlayotgani bejiz emas.

Jumladan, XX asrning 80-yillarida amerikalik olim Emmanuel Vallersteyn o'z asarlarida, "...hozirgi mojarolar holva, agarda jarayon shu tarzda kechadigan bo'lsa, XXI asrning o'rtalariga borib ko'z ko'rib, quloq eshitmagan voqealar sodir bo'lishi mumkin" deya bashorat qilgan. Bu xulosa qanchalik keskin bo'lmasin hamda dalil, isbot talab etmasin, u ko'pchilikning diqqatini jalb etayotgani sir emas. Bizningcha bunday murakkab vaziyatda davrni aniq belgilab, ma'lum to'xtamga kelishning o'zi g'oyatda qiyin masala.

Ma'lumki, XX asrning zabardast faylasufi Karl Yaspers "**Smisl i naznachenije istorii**" kitobida "**davr – o'ziga xos tahdid**" degan fikrni ilgari surgan. Uning fikricha insoniyat tarixi faqat bir yo'l – davrlar orqaligina kechadi. Va har bir tarixiy davr o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Uni aniq tasavvur etish va bu jarayondagi muammolarning yechimini topishga bo'lgan intilish esa davr tahdidiga berilgan javob hisoblanadi.

Shubhasiz, davrga nisbatan befarqlik har qanday millatni tarix sahifasidan butunlay o'chib ketishga olib kelishi mumkin. Davrni chuqur anglab yetgan, unga hamnafas bo'lishga intilgan millat esa abadul-abad yashab qoladi. Boshqacha aytganda, davrni chuqur o'rganib, uning talablariga javob berishga qodir millatgina barhayotdir. Demak, bir tomondan, **davr talabi** va ikkinchi tomondan, **davrni anglash** jarayonlari bir-biri bilan dialektik bog'langan bo'lib, taraqqiyot uchun zamin hozirlaydi. Davrga nisbatan befarq bo'lgan millat esa daraxtdan uzilgan shoh singari qovjirab qolishi bashariyat tarixida ko'p bora isbotlangan.

Millatlarning davr talabiga hamnafaslik darajasini belgilaydigan muayyan mezonlar mavjuddir.

Birinchidan, o'z rivojlanish tamoyillariga amal qilgan holda qoqilmay olg'a intilayotgan millat davr bilan hamnafas taraqqiy etadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Ikkinchidan, biror bir millat davr talabini vaqtida anglab yetmasa, har qadamda qoqilsa, dunyo hamjamiyati oldidagi obro'-e'tibori pasayadai, u davr talablaridan ortda qolib ketaveradi. Dunyoda bunday davlatlar oz bo'lsada uchrab turadi. Ilmiy adabiyotda "**muammoli davlat**" deganda aynan ana shunday davlatlar nazarda tutiladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarga tayangan holda hozirgi davr xususiyatida noaniqlik mavjud ekanligini ta'kidlash zarur. Bu uning quyidagi ijobiy va salbiy tendensiyalarida namoyon bo'ladi.

Ijobiy tendensiyalar.

1. Bipolyar (ikki qutbli) tizim va "sovuq urush) – ning barham topishi
2. Milliy ozodlik harakatida yangi bosqich bo'lgan yangi mustaqil davlatlarning qaror topishi.
3. Totalitarizmning barbod bo'lishi.
4. Polipolyar (ko'p qutbli) dunyo sari tendensiyalarning paydo bo'lishi va kuchayishi, yangi taraqqiyot yo'llari va imkoniyatlarining vujudga kelishi.
5. Axborot-kommunikatsiya asrining kirib kelishi.
6. Fuqorolik jamiyatini shakllantirishga bo'lgan ehtiyojning ortishi, ijtimoiylashuv jarayoning kuchayishi.

II. Salbiy tendensiyalar.

1. Monopolyar (bir qutbli) dunyoni shakllantirishga bo'lgan moyillikning kuchayishi (AQSH, Buyuk Britaniya).
2. Polipolyar dunyo sari taraqqiyotni qabul qilolmaslik alomatlarining kuchayishi.
3. Demokratiyani suiiste'mol qilish, ya'ni undan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinish va unga tayyor kuchlarning paydo bo'lishi.
4. Agressiv millatchilik va milliy ayirmachilikning kuchayishi.
5. Buyuk davlatchilik shovinizmining saqlanib qolayotganligi.
6. Axborot maqomida raqobatning xavfli tus olishi.

Davrga xos salbiy tendensiyalar jahon taraqqiyotiga xavf-xatar va tahdidlar hamon saqlanib qolayotganidan dalolat beradi. Fikrimizcha, buning quyidagi ob'yektiv va sub'yektiv sabablari mavjud:

111 Ob'yektiv (bilvosita) sabablar:

- Ijtimoiy taraqqiyotning manfaatlar (kuchlar) to'qnashuvidan, ya'ni ziddiyatlardan iborat ekanligi.
- Ijtimoiy taraqqiyotning tasodiflarga boy ekani va barcha hollarda uni modellashirish (andozaga solish) mumkin emasligi.
- Rivojlanishda ilgarilab ketgan (badavlat) va orqada qolayotgan (nochor) davlatlar o'rtasidagi tafovutning kuchayishi.
- Ba'zan kutilmagan voqea-hodisalar rivoji qarshisida inson tafakkurining ojiz qolayotgani.

B. Sub'yektiv (bevosita) sabablar:

- O'zaro ijtimoiy munosabatlar mukammal tizimining (insonlararo, millatlararo, davlatlararo, sivilizatsiyalararo va h.k) zamon talabi darajasiga mos kelmayotgani.
- Bir millatning boshqa millatlarga nisbatan ustunlikka intilishi.
- Mavjud ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari uning sub'yektlari tomonidan to'laqonli anglab yetilmagani.
- O'z manfaatlarini amalga oshirish maqsadida millionlab insonlarning xohish-irodasini, ularning yashash huquqini paymol etish va bu yovuz

maqsad yo'lida har qanday g'ayriinsoniy vositalardan foydalanishga urinishlarning namoyon bo'layotgani.

Ma'lum bo'ladiki, dunyo taraqqiyotiga xavf-xatar hamda tahdidlar doimiy ravishda saqlangan holda, ayni paytda, jahon hamjamiyati diqqat-e'tiborini jalb etib kelmoqda.

Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotiga xavf-xatar hamda tahdidlar kuchatyishini quyidagilarda kuzatish mumkin:

- 1Dunyo miqyosida ijtimoiy-siyosiy tengsizlikning chuqurlashuvi.
- Amaldagi xalqaro huquq tizimining davr talabidan ortda qolayotgani.
- Siyosat va ilm o'rtasidagi tafovutning kengayishi.
- Bir guruh davlatlar va transmilliy tashkilotlar tomonidan manfaatlar tamoyiliga rioya qilmaslik, jahon iqtisodiyotida manfaatlar muvozanatining izdan chiqarilayotganligi.
- Dunyo siyosatida ro'y berayotgan o'zgarishlarni anglash darajasining pastligi.
- Yo'l qo'yilgan va qo'yilayotgan siyosiy xatolarni tan olmaslik.
- Ijtimoiy-siyosiy muammolar yechimida kuch ishlatishga moyillikning kuchayishi.
- Dunyoni "ma'rifiy" hamda "noma'rifiy" makon va davlatlarga ajratish amaliyotining saqlanib qolayotgani.
- Vujudga kelayotgan yangi ijtimoiy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashda bir tomonlama yondoshuv va andozalarning saqlanib qolayotgani.
- Jahondagi yetakchi davlatlarning dunyo zahiralarni to'liq egallash va nazorat qilishga intilishlarning namoyon bo'layotgani.
- Iqtisodiy yordam berish bahonasida siyosiy shartlarni bajarishga majbur qilish.
- Dunyoning turli mintaqalarida geosiyosiy intilishlarning kuchayishi. Iqtisodiy jihatdan zaif davlatlarni o'z siyosiy ta'sir doirasiga o'tkazishga majburlash.
- Azaldan mavjud bo'lgan dinlararo baxs-munozaralarni bugungi kunda sun'iy ravishda siyosiylashtirish amaliyoti.
- Inson ma'naviyatida, ruhiyatida diniy omilning kuch-qudratini hisobga olgan holda musulmon aholisi ongi va dunyoqarashiga ta'sir o'tkazish.
- Narkobiznesning hozirgi zamon xalqaro terrorizmini moliyaviy ta'minlash manbaiga aylantirilgani.
- Azaldan insonlar ongida ustuvor bo'lib kelgan etnik va milliy turfa xillik kabi jihatlarni ataylab siyosiylashtirish amaliyoti.

Bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyotining yangi ufqlari ochilmoqda. Adolatli, huquqiy demokratik jamiyat qurishdek ulug'vor maqsadlarga erishish yo'lida sobitqadam bo'lish, bu borada oldimizda turgan muammo hamda kamchiliklarni anglash va bartaraf etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, ijtimoiy tahdidlarning nazariy jihatlariga alohida e'tibor qaratishga zarurat tug'iladi.

Hozirgi sharoitda, umumiy xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror

rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o'zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda. Bu esa davlatlar va xalqlarning barqarorligini ta'minlash uchun yangicha yondoshuvlarni izlab topishni, xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda butun insoniyatni tashvishlantirayotgan muammolarga javob izlash borasida to'plangan muayyan tajriba ma'lum ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bu xulosalar Yurtboshimizning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" fundamental asarida atroflicha tahlil etilgan.

Prezidentimiz mazkur kitobda o'z taqdirimizni o'zimiz belgilashimiz, istiqlol bergan imkoniyat – erk va ozodlikni murakkab va shafqatsiz dunyoda sodir bo'layotgan turli xavf-xatarlardan omon saqlash har birimizga bog'liqdir, degan g'oyani ilgari suradi. Agar buni tahlil qiladigan bo'lsak, birinchidan, biz yashab turgan dunyo mustaqilligimiz va taraqqiyotimizga qarshi turli tahdidlarga to'la ekanini anglab yetish qiyin emas. Ikkinchidan, bizning xohish-irodamizga bo'ysunmaydigan ijtimoiy, umumjahoniy rivojlanish jarayonlari fuqorolar oldiga o'ta mas'uliyatli talablar qo'yayotgani bois, tahdidlarning oldini olish va barqarorlikka erishishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish har birimizning siyosiy ongimiz, vatanparvarligimizga bog'liq ekani to'g'risida tasavvurga ega bo'lamiz.

Mamlakatimiz xavfsizligi, yurtimizda hukm surayotgan barqarorlik va millatlararo hamjihatlikni mustahkamlash, kelajak avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirishdek ezgu maqsadlar yo'lida har bir fuqoroning mas'uliyati haqida fikr yuritar ekanimiz, erkinlikning qadriga yetishda inson omilining o'rni va mavqeini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi vaqtda ko'pgina demokratik mamlakatlarda insonning ma'naviy dunyosi bilan bog'liq omillarni o'rganishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, olam barqarorligi va yaxlitligi belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, texnologik omillar bilan bir qatorda, ijtimoiy jarayonlarda inson xohish-irodasi, xatti-harakati, ongi, hayotiy faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlanmoqda.

Turli xavfli jarayonlarni bartaraf etishda insonning o'rni va ishtiroki haqida so'z yuritganda, ijtimoiy faol shaxsning qiyofasi, ichki dunyosi, umuman, ma'naviy-ruhiy xislatlari to'g'risida turli fikrlar mavjudligini e'tiborga olish zarur. Insonning shakllanishi va ijtimoiy mavjudot sifatidagi ma'naviy rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot bosqichlari, ularning mohiyati va xususiyatlari bilan uzviy bog'liqdir. Bu haqiqatni hech kim inkor eta olamaydi. Lekin mustaqillikka erishib, tafakkur xilma-xilligi tamoyili qaror topgunga qadar bu muammo bir yoqlama talqin qilib kelindi. Ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlari bilan inson salohiyati o'rtasidagi o'zaro munosabat borasida g'ayriilmiy tasavvurlar hukmron bo'lib, insonga ko'r-ko'rona bo'ysunuvchi omil sifatida qaralgan. U cheksiz imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishdan mahrum etilgan edi. Ilg'or dunyoqarashga ega, ma'naviyati boy shaxslarga esa "idealist" tamg'asi yopishtirilardi.

Turli mintaqalarda sodir bo'layotgan va insoniyatga xavf solib turgan noxush hodisalarni tahlil qilib, ularning barchasida inson omili bosh sababchi ekanini sezish qiyin emas. Birgina misol. Germaniya olimlari amalga oshirgan tadqiqot natijalariga

ko'ra 1945-1995 yillar oralig'ida, ya'ni ikkinchi jahon urushidan keyingi 50 yillik "tinchlik hukm surgan davr"da insoniyat atigi 26 kun tinchlik nashidasidan bahramand bo'lgan ekan. Shu yillar mobaynida yuz bergan turli mojarolar oqibatida 25-35 million begunoh inson halok bo'lgan. Nemis olimlarining g'ayrimantiqiy xulosasiga ko'ra millatchilik, zo'ravonlik, tajovuzkorlik va mutaassiblik kabi illatlar odamzotga xos aql-zakovat, madaniyat va ma'rifat tufayli sodir etilar emish.

Hozirgi shiddatli davrda insondan keskin sifat o'zgarishlari talab etilmoqda. Inson, uning aql-idroki, zakovati va salohiyati ijtimoiy taraqqiyot, olam yaxlitligining asosiy omiliga aylanishiga ehtiyoj kuchaymoqda. Zamon bugun insondan o'z-o'zini anglab olishni taqozo etmoqda. Tahdidlarni bartaraf etish faqatgina insoniyat zimmasiga tushmoqda. Bu o'rinda Prezidentimizning "xavfsizlik, barqarorlik va tanlagan yo'ldan og'ishmay borish" degan so'zlarida teran ma'no mujassamlashgan. Bu ibora bugun har bir inson uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, mamlakatimizga xavf solayotgan jiddiy tahdidlar yutuqlarimizni ko'ra olmayotgan, hamon g'arazli niyatidan qaytmagan yovuz kuchlar g'ayriinsoniy uslublarni qo'llayotgani mustaqillik, demokratiya, qolaversa, mamlakat kelajagiga nisbatan xavf-xatarlarni bartaraf qilishga yuqoridagi omil yetarli emasligini yaqqolroq namoyon etmoqda.

Xavf-xatar mohiyati va funksional jihatdan 2 toifaga bo'linadi: iqlimiy-ekologik tabiiy xavf-xatarlar va ijtimoiy xavf-xatarlar.

O'z navbatida, ijtimoiy xavf-xatar vaqt jihatidan olganda 2 turga bo'linadi: an'anaviy va muayyan tarixiy davr bilan bog'liq xavf-xatarlar.

An'anaviy deganda, uzoq vaqtdan bo'yon davol etib kelayotgan, ammo davr o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan muammolar tushuniladi. Masalan, ba'zan davlatlararo munosabatlarda o'zaro ishonchsizlik kabi xolatlar yuzaga keladi. Aniq, tarixiy davr bilan bog'liq xavf-xatarlar esa muayyan tuzumda yuzaga keladi. Masalan, tuzum, jamiyat taraqqiyot yo'nalishining noto'g'ri belgilanishi ana shunday holatdir.

Ijtimoiy xavf-xatarni bilvosita (ob'yektiv, ya'ni diniy radikalizm, terrorizm, milliy ayirmachilik kabi) va bevosita (sub'yektiv, ya'ni siyosiy loqaydlik, beparvolik kabi) omillar tashkil etadi.

Ayni paytda bu omillar jamiyat hayotining barcha sohalarida namoyon bo'lishi mumkin. Bunday nomutanosiblikning yechimini tizimlararo, manfaatlararo muloqot, o'z-o'zini asrashga bo'lgan moyillikdan foydalanish asosida yechimini izlash lozim, degan xulosaga kelish mumkin.

Xavf-xatar holatiga inson zarurat tug'ilgan paytda yetarlicha ta'sir ko'rsata olmasa, u maqbul doiradan chiqib, zo'rayib ketish ehtimolligi ortadi. Buni shartli ravishda "vaziyat" deb atab, undan qutilish yo'li sifatida davr, taraqqiyot va xavfsizlikning o'zaro bog'liqligini anglashdir, degan xulosaga kelish mumkin.

Shunday qilib, hozirgi davrda ijtimoiy xavf-xatar muammosi quyidagicha ko'rinishga ega:

III. Ijtimoiy xavf-xatar:

Zamon va makon nuqtai nazaridan doimiy, jamiyat faoliyati va rivojlanishiga salbiy ta'sir kuchiga ega, hadsiz-hududsiz substansional ijtimoiy-siyosiy hodisa. Uning salbiy ta'sir qilish qobiliyati jamiyat siyosiy va intellectual salohiyati darajasiga teskari proporsionaldir.

IV. Risk.

Inson tafakkuri, dunyoqarashi va kundalik amaliy faoliyati bilan bog'liq bevosita xatolar.

Tayanch tushunchalar:

Inson omili, taraqqiyot, "5 formatsiya" nazariyasi, yangi davr, tarixiy davr, muammoli davlat, xavf-xatarlar, ijtimoiy xavf-xatar. Risk.

Takrorlash uchun savollar:

1. "Davr" va tahdid tushunchalarining mohiyati nimadan iborat?
2. Hozirgi davr xususiyatlarini ta'riflab bering.
3. Hozirgi davrda tobora kengayib borayotgan xavf-xatar va tahdidlarning sabablari nimada?
4. Xavf-xatarning ijtimoiy voqeligi nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Inson faoliyatida riskning kuchayishi deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T. "O'zbekiston" 1997.
2. Karimov I.A. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin", "Tafakkur" jurnali, 1998.
3. Karimov I.A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", T. "Sharq". 1998. 32-b.
4. Karimov I.A. "Hushyorlikka da'vat". T. "O'zbekiston" 1999.
5. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T. "O'zbekiston" 2000.
6. Karimov I.A. "Milliy istiqlool mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir". "Fidokor" gazetasi. 2000 yil 8- iyun.
7. Temur tuzuklari. T. "G'. G'ulom" nomidagi nashriyot-matbba birlashmasi. 1991 yil.
8. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "O'zbekiston" 2000.
8. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T. "Sharq". 1998. 32-b.

10-mavzu: Mafkuraviy jarayonlar istiqboli

Reja:

1. Global miqyosda gumanistik va bunyodkor mafkuralarning ustuvor bo'lishiga xizmat qiluvchi omillar va ushbu jarayonlarning rivojlanish istiqbollari.
2. Ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya va etnosiyosiy differentsiatsiyaning mafkuraviy jarayonlar rivojiga ta'siri.
3. Umuminsoniy miqyosdagi mafkuraviy jarayonlardagi xilma-xillik, konfrontatsiya ruhidagi mafkuralarning saqlanib qolish imkoniyatlari.

Hozirgi zamonda yangi shakl va qiyofa kasb etayotgan xalqaro terrorizm insoniyatga tahdid solib, dunyo sivilizatsiyasi va davlatlararo integratsiyaning ashaddiy dushmaniga aylanib bormoqda. Shu tufayli ham xalqaro terrorizmga

qarshi kurash umumsayyoraviy, birinchi navbatda, hal etilishi zarur bo'lgan muammodir. Aks holda bu ofat ona zaminimiz barqarorligiga ilm-fan va madaniyatlar rivojida, millatlararo birodarlikka, xullas, umumtamadduniy taraqqiyotga jiddiy putur yetkazishi turgan gap. Negaki, har qanday qabihlik kabi terrorizmning ham na millati, na dini borligi bugun kundek ravshan. Qolaversa, hozirgi vaqtda terrorizmning tajovuzidan o'zini holi his qilgan qit'a yoki davlatning o'zi yo'q. U huddi vabodek tarqalib, yer sharidagi ko'plab mamlakatlarga balo-qazodek yopirilib bormoqda. U qachon, qaysi tomonda, qanday huruj qilishini hech kim bilmaydi. U kimni nishonga olishini ham oldindan bashorat qilish qiyin.

“Al-Qoida”, “Xizbut-tahrir”, “Abu sayyof”, “akromiylar” kabi ekstremistik guruhlarining tajovuzkorona harakatlari hamon davom etmoqda. Birgina AQSHning o'zida 80 dan ortiq ekstremistik tashkilotlar faoliyat yuritmoqda, “Al qoida”ning maxsus tayyorlangan guruhlar 100ga yaqin davlatlarda odamlarni qo'rquv va vahimaga solib kelmoqda. 2001 yil 11 sentabrda N'yu Yorkda, keyinchalik Moskvadagi “Nord Ost” kinokonsert zalida ro'y bergan fojeali voqealar insoniyat tarixida abadiy muhrlanib qoldi. Ispaniyada yo'lovchi poyezdning portlatilishi yoki 2004 yil Madridda, 2004 yil 1 sentabrda Beslanda, 2005 yil 13 mayda Andijonda va 2005 yil 7 iyulda Londonda sodir etilgan terroristlar hujumi tufayli ko'plab begunoh odamlar hayotdan ko'z yumdi. Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ahvolni o'rganuvchi BMT huzuridagi tashkilot ma'lumotiga ko'ra, o'tgan asrning so'nggi 30 yilida dunyo bo'yicha jinoyatlar soni 4 marta jumladan, MDH davlatlari va AQSHda 8 marta, Buyuk Britaniyada 7 marta, Fransiyada 6 marta ko'paygan. Kremenolog olimlar taxminiga ko'ra yaqin yillarda har soatda 2000 jinoyat sodir etilishi ehtimoli bor. Mazkur jinoyatlarning aksariyati terroristlar tomonidan sodir qilinishi xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmning jahon hamjamiyatiga tobora jiddiy xavf solib borayotganidan dalolat beradi.

XXI asr vabosining bugungi qiyofasi xususida so'z borar ekan, uni keltirib chiqargan ba'zi omillar haqida to'xtalib o'tish joiz. Bu baloi azim dastlab bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda turli mintaqalarda zo'ravonlik va qurolli hujumlarini namoyon qilgan bo'lsa, endi bu yovuzliklarning bir-biri bilan uzviy bog'lanib ketayotganligi hech kimga sir emas.

Prezidentimiz Islom Karimov xalqaro terrorizm va ekstremizmning tinch davlatlar aholi hamda davlatlarga talofotlar keltiradigan yovuz xatti-harakatlarining biri Filippinda, biri Bolqonda, biri Chechenistonda, yana biri Yaqin Sharqda amalga oshirilgan bo'lsada, ularning barchasi bir zanjirga bog'langanini, bu tajovuzlar ortida katta mablag'lar, kuchga ega bo'lgan, ma'lum markazga ega bo'lgan ekstremistik kuch va tashkilotlar borligi ochiq – oydin ko'rinib turganligini, ularning o'zaro uyg'unlashib, chuqur ildiz otib ketganligini ta'kidlar ekan, “agar diniy ekstremizm va aqidaparastlik shiorlari xalqaro terrorning g'oyaviy niqobi bo'lsa, narkobizness va narkotrafik, hech shubhasiz xalqaro terrorning moliyaviy tayanchi ekanini alohida e'tirof etadi. Shu tufayli ham dunyodagi aksariyat davlatlar qonunchiligida bu baloi azim uchun jinoiy javobgarlik belgilab qo'yilgan. Ta'kidlash joizki, bunday qabih niyatli kuchlar

hamda markazlar juda puxta o'ylangan, uzoqni ko'zlaydigan dastur va rejaga, eng zamonaviy vosita va imkoniyatlarga ega.

Bugungi kunda ham xavf-xatar va tahdidlar tobora globallashib, mintaqaviy va umumbashariy xarakter kasb etib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Demak, xavf-xatar va tahdidlar faqat hududiy ahamiyatga ega bo'lib, keyinchalik u boshqa joylarga tarqaydi, u shu yerda paydo bo'ldimi, aynan shu hududda bir kuni barham topadi. Buni oldini olish, chegaralash mumkin, degan mulohazalar mutlaqo asosli bo'lib qoldi.

So'nggi yillarda mamlakatimizning taraqqiyot yo'liga g'ov bo'lishga harakat qilayotgan "tizim buzuvchi" va "vayron qiluvchi" kuchlar faoliyati bilan bog'liq tahdidlarning sodir bo'lib turgani g'oyatda achinarlidir.

13 may kuni Andijonda yuz bergan voqealarni maxsus yo'naltirgan siyosiy qo'poruvchilikni terroristik harakat sifatida baholash mumkin. Odamlarning qurbon bo'lishiga olib kelgan bu harakat O'zbekiston Respublikasiga qarshi qaratilgan jinoyat bo'lib, uning konstitutsiyaviy tuzumga, odamlar hayotiga tajovuz qilish, boshqaruv tizimini izdan chiqarish, davlatga zarar yetkazish, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka rahna solish ko'zda tutilgan edi. Unda Andijonda xalq saylagan konstitutsiyaviy hokimiyatni ag'darib, mazkur hududda musulmon xalifaligi tuzish maqsad qilib olingan edi.

Shuningdek, terrorchilar maqsadi nafaqat O'zbekistonda, balki butun Markaziy Osiyoda, qolaversa, MDH hududida vaziyatni beqarorlashtirish, xalqaro munosabatlarni izdan chiqarishga qaratilgan edi.

Prezidentimiz Islom Karimov Andijon voqealari munosabati bilan OAV vakillari uchun o'tkazilgan matbuot konferensiyasida ushbu voqea xususida to'xtalar ekan, uni amalga oshirganlar Qirg'izistondagi voqealarni takrorlashga uringani yaqqol ko'zga tashlanadi, deya ta'kidladi. Biron davlat hududidagi notinch vaziyat qarama-qarshilik uzoq davom etadigan mojaro faqat shu mamlakat hududida qolib ketmaydi, ertami-kechmi qo'shni davlatlarga ham yoyilishi mumkin, dedi mamlakatimiz rahbari.

Andijonda payt poylab yurgan aqidaparast ekstremistik guruhlar yovuz niyatlarini amalga oshirish uchun o'zlarining aqidaparast hamda xorijdagi rahnamo va homiylari topshiriqlari bo'yicha uzoq vaqt mobaynida puxta tayyorgarlik ko'rib kelgan. Ular Qirg'izistondagidek xalq bizni qo'llab-quvvatlaydi, mahalliy hokimiyat zaiflik qiladi, degan xom xayol bilan harakat qilgan edi.

Ongi zaharlangan yoshlarni o'zlariga ergashtirib qurollangan, o'q otgan holda viloyat hokimligi, Milliy xavfsizlik xizmati viloyat boshqarmasi va viloyat ichki ishlar boshqarmasi binolariga hujum uyushtirganlar. Ayollar, bolalar, qariyalar va garovga olingan boshqa kishilar panasida viloyat hokimligi binosini egallaganlar.

Ammo jangarilarning urinishlari zoye ketdi. Ularni xalq qo'llab-quvvatlamadi. Jangarilar orasida qo'shni davlatdan suqilib kirganlar ham bor edi. Bu yovuz kuchlar birinchi navbatda, Afg'onistonda kechayotgan ijobiy jarayonlarni yo'qqa chiqarish, mintaqamizdagi mustaqil davlatlarda konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish, ularni dunyoviy taraqqiyot yo'lidan qaytarishga urinishdi.

Radikal diniy oqimlar, jumladan, “Hizb ut-tahrir” yoki Andijonda o’zini “akromiylar” deb atagan guruhlar ham fursati kelganda voqealar oqimini o’z manfaatlari yo’liga burib yuborish uchun payt poylab turgani sir emas. Andijon voqealariga kamida 3-6 oy davomida tayyorgarlik ko’rilgan. Uning rejasini tuzish va amalga oshirishda mintaqamizda, ayniqsa, o’zga hududda ildiz otgan turli diniy-ekstremistik markazlarning bevosita ishtiroki bor. Bu bosqinchilik ishlarida chet el ko’magi ham ko’rinib turibdi. Sarhad ortidagi kimsalar buyurtmachilarning xarom pullari, yolg’on va’dalariga uchgani, noxolis kimsalarning qo’lida qo’g’irchoqqa aylanib qolganiga hech shubha yo’q.

Kishini ajablantiradigan joyi shundaki, terrorchilarning lagerlari bu ofatga “muloyimlik” bilan qaraydigan yoki o’zini o’ta liberal deb hisoblaydigan davlatlar hududida ham bimalol faoliyat yuritmoqda. Ular ayrim rivojlangan davlatlar huquqni himoya qiluvchi maxsus xizmatlar tomonidan yordam olib kelayotgan lagerlari ko’pchilikka oshkor bo’lmoqda. Bu esa xavfsizlik va barqarorlikka nisbatan yangi tahdidlarning mohiyati, vosita va uslublari tubdan o’zgarib borayotganidan dalolat beradi. Mazkur kuchlarning turli ekstremistik va ayirmachi tuzumlar bilan qo’shib borayotgani, shuningdek, ayrim mamlakatlarning terroristik tashkilotlar ro’yhatiga kiritilgan guruhlardan o’z yovuz maqsadlari yo’lida foydalanishdan ham toymayotgani mintaqa xalqlarini tahlikaga solmoqda. Masalan, “Hizb ut-tahrir” terrorchi tashkilot sifatida qoralanib, faoliyati ko’pgina davlatlar, xususan Germaniya, Rossiya, 16 ta arab davlati tomonidan ta’qiqlab qo’yilganiga qaramasdan, uning qarorgohi Buyuk Britaniya poytahti – Londonda joylashgani kishini hayratga soladi. Axir Buyuk Britaniya huquqiy demokratiya davlati bo’lsa, nima uchun u o’z poytahtidan ularga boshpana berib qo’ygan? Uning butun insoniyat boshiga qanchadan-qancha talafotlar yog’dirgani ko’plab begunoh insonlarning yostig’ini quritgani barchaga ayonku? Xususan, “Hizb ut-tahrir” 1968 yilda Iordaniya va Suriyada, 1974 yilda Misrda davlat to’ntarishi qilgan. Uning a’zolari hukumat rahbarlariga suiqasd uyushtirgan. Rossiya va Markaziy Osiyoda ular qo’poruvchilik, terrorchilik ishlarini sodir etishgan. Ammo ayrim hukumat rahbarlari o’z siyosiy maqsadini amalga oshirish maqsadida mazkur yovuz kuchdan foydalanishga urinishi o’t, olov bilan o’ynashishga urinish ekanini, ertami-kechmi ofat avj olib o’z oshyonlarini ham kuydirib, kulini ko’kka sovurishi mumkinligini nahotki anglab yetmasa?!

O’z mamlakatida qonun ustuvorligini o’rnata olmagan Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri Jek Stro janoblarining xalqaro minbardan turib, O’zbekistonda qonunga amal qilinmayapti, deya ayyuhannos solganini nima deb izohlash mumkin? Yurtimiz boshiga musibat tushib, terroristlar bilan yuzma-yuz turgan paytimizda terrorizm balosidan bizdan ko’proq jabr ko’rgan mazkur davlatning ayrim siyosatdonlari O’zbekistonni qo’llab-quvvatlash o’rniga asossiz da’vo va talablar qo’yayotganini qanday izohlash mumkin? IWPR, ya’ni urush va tinchlik masalalarini yoritish bo’yicha Buyuk Britaniya institutining respublikamizda faoliyat olib borishi uchun akkreditatsiyadan o’tmagan “uddaburon” muxbirlari Andijonda sodir bo’lgan voqealarni yolg’on va buhtonlar asosida baholab, ko’z ko’rib quloq eshitmagan uydirmalarni Toshkentdan turib havo to’lqinlari orqali tarqatib turgani so’zimizning isbotidir.

Hozir xalqaro terrorizm ko'inishidagi jinoyatlarning oldini olish, ularga qarshui kurashni ko'zda tutgan xalqaro miqyosdagi huquqiy asoslar mavjud. Jumladan, 1970-2001 yillarda ishlab chiqilgan va davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan 13 ta xalqaro hujjat Konvensiyalar mavjud bo'lib, mamlakatimiz ham bularning aksariyatiga a'zo bo'lgan. Bundan tashqari, BMT tomonidan aynan ana shu masalaga oid 6 ta hujjat (rezolyutsiyalar) qabul qilingan.

Xavfsizlikni ta'minlashning "harbiy modeli", ya'ni harbiy yoki kuch ishlatish yo'li bilangina xavfsizlikni ta'minlash endi tarixda qolib ketdi. Xalqaro terrorizmga qarshi harbiy yo'lni ta'minlashning xato ekani bugun hech kimga sir emas. Iroq voqealari orqali harbiy yo'l bilan kurashish kutilmagan oqibatga olib kelishining guvohi bo'ldik. Noharbiy yo'l esa, shubhasiz, o'zaro hamkorlikni talab qiladi. Xatto, Afg'onistondagi terrorizm o'chog'ini qanchalar kuch-qudratga ega koalitsiya ham eplay olmadi. Bugun terroristlar u hududni tark etib, boshqa hududda o'z harakatlarini bemaol davom ettiraverishlari ham mumkin.

Hamkorlikdan xavfsizlik sari konsepsiyasi haqida gapirar ekanmiz, bunga oddiy misol keltirish mumkin. 2001 yil 11 sentabr voqeasidan keyin dunyo davlatlarining eng kuchlisi AQSH ham hamkorlik qilmasa bo'lmas ekan, degan xulosaga kelishga majbur bo'ldi. Afg'oniston va Iroqdagi terroristik kuchlarni AQSHning bir o'zi bartaraf etolmaydi. Ularni bartaraf qilish uchun davlatlar kaolitsiyasi tuzish ehtiyoji tug'ildi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng, avvalo, o'z tashqi siyosatini xalqaro hamjamiyatning to'laqonli sub'yekti sifatida amalga oshirish uchun real imkoniyatlarga ega bo'ldi.

Ikkinchidan, hozirgi dunyoda 200 dan ortiq mustaqil davlat bo'lsada, hammasi ham mustaqil tashqi siyosat yurita olmaydi. O'zbekiston esa qisqa vaqt ichida mustaqil davlat sifatida mustaqil tashqi siyosat olib bora olishini amalda isbotladi. Bu – jahon siyosatida davlatning nufuzini belgilovchi muhim mezondir.

Uchinchidan, O'zbekistonning xalqaro munosabatlar tizimiga kirib borishi va unda o'z o'rnini egallashi xalqaro siyosatning o'ta chigallashgan davriga to'g'ri keldi. bir tomondan, xalqaro tartibot o'zgarib, xalqaro siyosatning yangi o'yin qoidalari shakllanayotgan, xalqaro munosabatlarning globallashuvi kengayib, uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda , salbiy oqibatlari ham kuchayib borayotgan sharoitda, ikkinchi tomondan esa, ichki siyosatni uyg'unlashtirish bilan bog'liq muammolarning o'zaro bog'liqligi holatida tashqi siyosatni aniqlab olish va amalga oshirishni har qanday davlat ham uddasidan chiqa olmaydi. O'zbekiston ana shunday vazifani bajara oldi va jahon hamjamiyatining hurmatiga sazovor bo'ldi.

To'rtinchidan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning nafaqat mamlakat manfaatlariga javob berishi, balki yangitdan shakllanayotgan xalqaro siyosat hamda iqtisodiyot bilan hamkorlik aloqalarining mustahkamlanishiga xizmat qilishini ta'kidlash joiz. Iqtisodiy islohotlar xalqaro iqtisodiy jarayonlarning zamonaviy talablari asosida olib borilmoqda. Bu, o'z navbatida, mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish bilan bir qatorda, yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotni jahon bozoriga olib chiqish, raqobatga kirishish, hatto muayyan yutuqlarga erishishimizga zamin yaratmoqda. Tabiiyki, hozirgi kundagi xalqaro munosabatlarda qaysi mamlakat ko'proq iqtisodiy jihatlarga

e'tibor bersa, o'sha mamlakat bilan hisoblashiladi. O'zbekiston – ana shunday mamlakat.

Beshinchidan, O'zbekiston o'zining tashqi siyosatini milliy-madaniy merosiga asoslangan va jahon madaniy taraqqiyotining ilg'or yutuqlari bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirmoqda. O'zbekistonning jahon hamjamiyatida qaytadan e'tirof etilishida ma'naviy merosimiz beqiyos o'rin tutadi.

Oltinchidan, har bir davlat o'z tashqi siyosatini amalga oshirishda aniq metodologiya, nazariy yondoshuv va milliy mafkuraga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati metodologiyasi, nazariyasi Prezident Islom Karimov tomonidan yaratildi. bugungi kunda Yurtboshimizning asarlari, g'oya va qarashlari nafaqat O'zbekiston tashqi siyosati uchun, balki Markaziy Osiyodagi xalqaro munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Jamiyat va davlatlar tarixi shuni ko'rsatadiki, biron-bir mamlakat boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan taraqqiyotga erishgan emas. Sharq va G'arb mamlakatlarini bir-biriga bog'lagan Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashgan O'zbekiston bir necha asrlardan bo'yon dinlar, millatlar va madaniyatlarning tutashuv nuqtasi bo'lib kelmoqda.

Ayniqsa Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida dunyodagi yirik davlatlar Samarqand bilan o'z aloqalarini o'rnatgan. Amir Temurning Angliya, Ispaniya qirollari, o'nlab qo'shni davlatlarning hukmdorlari bilan yozishmalari o'sha davrning joshqin siyosiy, madaniy va savdo-sotiq aloqalaridan guvohlik beradi.

Jahon hamjamiyati O'zbekistonning mintaqa xavfsizligini ta'minlash, nizolarni siyosiy choralar bilan bartaraf etish, Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan holi hudud deb e'lon qilish, narkobiznesga qarshi kurashdagi say-harakatlarni muvofiqlashtirish borasidagi amaliy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlamoda.

O'zbekiston poytaxti Toshkent bugungi kunda nufuzli xalqaro tashkilotlar ishtirokida o'tkazilayotgan muhim xalqaro anjumanlar markaziga aylandi. Mazkur anjumanlarda qabul qilingan hujjatlarning ahamiyati va dolzarbligi jahon hamjamiyati, jumladan, BMT, Xavfsizlik Kengashi tomonidan e'tirof etilayotgani O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori ortib borayotganidan dalolat beradi.

Tayanch tushunchalar:

Xalqaro terrorizm, terroristik markazlar, terrorizm maqsadlari, radikal diniy oqimlar, xavfsizlik konsepsiyasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. “Xamkorlikdan – xavfsizlik sari” g'oyasi deganda nimani tushunasiz?
2. Bu g'oyani amalga oshirish tadbirlari nimalardan iborat?
3. Qanday xalqaro tashkilotlarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” T. “O'zbekiston” 1997.

2. Karimov I.A. “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin”, “Tafakkur” jurnali, 1998.
3. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”, T. “Sharq”.1998. 32-b.
4. Karimov I.A. “Hushyorlikka da’vat”. T. “O’zbekiston” 1999.
5. Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asrga intilmoqda”. T. “O’zbekiston” 2000.
6. Karimov I.A. “Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir”. “Fidokor” gazetasi. 2000 yil 8- iyun.
7. Temur tuzuklari. T. “G’. G’ulom” nomidagi nashriyot-matbba birlashmasi. 1991 yil.
8. Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. “O’zbekiston” 2000.
9. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug’at. T. “Sharq”. 1998. 32-b.
10. Paxrutdinov Sh. “Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot” T. “Akademiya”. 2006 yil.